

O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY VA O‘RTA
MAXSUS TA’LIM VAZIRLIGI
TOSHKENT DAVLAT SHARQSHUNOSLIK INSTITUTI

Qo‘lyozma huquqida

UDK: 314.143 (520)

BBK: 60.7 (5Yapo.)

T-29

Tashtaeva Sevara Sharofiddin qizi

**YAPONIYA YIRIK VA O‘RTA SHAHARLARIDA DEMOGRAFIK
RIVOJLANISH XUSUSIYATLARI**

5A 231001– Xorijiy mamlakatlar iqtisodiyoti va mamlakatshunoslik (Uzoq
Sharq mintaqasi mamlakatlari)

Magistr akademik darajasini olish uchun yozilgan
dissertatsiya

Ilmiy rahbar:
i.f.n. dots. **G.P.G’ulomova**

TOSHKENT-2015

Himoyaga ruxsat berildi:

Magistratura bo‘limi boshlig‘i:
Sh.B.

f.f.n. Ibrohimova

Mundarija

Kirish.....	3
I bob. Demografik jarayonlar va ularni o‘rganishning nazariy asoslari.....	8
1.1. Demografik taraqqiyotning zamonaviy tendensiyalari va ularni tadqiq etishning nazariy asoslari.....	8
1.2. Urbanizatsiya jarayoni va uning demografik taraqqiyot bilan bog‘liqligi.....	19
1-bob bo‘yicha xulosalar.....	30
II bob. Yaponiya yirik va o‘rta shaharlari demografik rivojlanish xususiyatlari	32
2.1. Yaponiya aholisining o‘sishi va urbanizatsiya jarayonlarining rivojlanishi.....	32
2.2. Yaponiya shaharlarining aholi soniga ko‘ra klassifikatsiyasi va ularning aholi ko‘rsatkichlariga ta’siri.....	50
2.3 Yaponiya shaharlarining demografik rivojlanishida tabiiy va mexanik harakat.....	64
2-bob bo‘yicha xulosalar.....	81
III bob. Shaharlar demografik muammolari, hal etish yo‘nalishlari hamda rivojlanish istiqbollari.....	84
3.1. Yaponiya yirik va o‘rta shaharlarining demografik muammolari.....	84
3.2. Yaponiya shaharlarida demografik muammolarni hal etish yo‘nalishlari va undan O‘zbekiston tajribasida foydalanish imkoniyatlari.....	99
3-bob bo‘yicha xulosalar.....	115
Xulosa	117
Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati	122
Ilova	135

Kirish.....	
I BOB DEMOGRAFIK JARAYONLARNING NAZARIY ASOSLARI.....	
1.1 Demografik taraqqiyotning nazariy asoslari.....	
1.2 Urbanizatsiya jarayoni va uning demografik taraqqiyot bilan bog'liqligi.....	
II BOB YAPONIYA YIRIK VA O'RTA SHAHARLARINING DEMOGRAFIK RIVOJLANISH XUSUSIYATLARI	
2.1 Yaponiya aholisining o'sishi va urbanizatsiya jarayonlarining rivojlanishi.....	
2.2 Yaponiya shaharlarining aholi soniga ko'ra guruhlanishi va ularning demografik ko'rsatkichlariga ta'siri.....	
2.3 Yaponiya shaharlarining demografik rivojlanishida tabiiy va mexanik harakat.....	
III BOB. SHAHARLARNING DEMOGRAFIK MUAMMOLARINI HAL ETISH YO'NALISHLARI VA RIVOJLANISH ISTIQBOLLARI	
3.1 Yaponiya yirik va o'rta shaharlarining demografik muammolari.....	
3.3 Yaponiya shaharlarida demografik muammolarni hal etish tajribasidan O'zbekiston amaliyotida foydalanish imkoniyatlari.....	
Xulosa	
Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati	
Ilova	

Kirish

Magistrlik dissertatsiyasi mavzusining asoslanishi va uning dolzarbligi. Aholi, aholi tug‘ilish, tabiiy o‘sishi, o‘lim jarayonlarini kuzatish natijalari, ularning hududiy taqsimoti va bir-biriga ta’siri uzoq yillardan beri barcha mamlakatlar uchun ijtimoiy-iqtisodiy hamda strategik ahamiyatga ega bo‘lib kelgan. Bundan ayniqsa, shaharlar aholisi, unga doir ko‘rsatkichlar doimo dunyo olimlari diqqat e’tiborida bo‘lib, u o‘zida tarixiy taraqqiyotning eng muhim davrlarini aks ettirishi bilan ajralib turadi.

So‘nggi yillarda jahon miqyosida urbanizatsiya jarayoni jadal rivojlanib bormoqda va shahar aholisining salmog‘i hozirgi kunga kelib, 50 foizdan ortdi. Aholining shaharlarda ko‘plab to‘planishi davrlar mobaynida qator iqtisodiy, ekologik, sotsiologik, transport, shovqin-suron, demografik va boshqa muammolarni kuchaytirib kelgan. Ayrim yirik shahar aglomeratsiyalari, megalopolislarida 20-30 millionlab aholi yashamoqda. Bu hol ayniqsa, aholi soni nihoyatda ko‘p bo‘lgan Xitoy, Hindiston, Yaponiya, Meksika, AQSH va boshqa davlatlarda kuzatiladi. Bunday urbanizatsiyalashgan hududlarda aholining o‘ta zich joylashishi o‘ziga xos demografik jarayonlar va demografik muammolar kelib chiqishiga olib kelmoqda. Bu haqda BMT Ming yillik Taraqqiyot Dasturida ham ko‘rsatib o‘tilgani ushbu muammolarning nihoyatda **dolzarb** ekanligini asoslab beradi. Shu bois, mazkur magistrlik dissertatsiyasining mavzusi sifatida “Yaponiya yirik va o‘rta shaharlarining demografik rivojlanish xususiyatlari” tanlab olindi.

Tadqiqot obyekti va predmeti. Tadqiqot ishining **obyekti** sifatida Yaponiya shaharlari aholisi tanlab olindi. Uning **predmeti**ni esa, demografik jarayonlar va ularning mintaqaviy xususiyatlari hamda qonuniyatlarini o‘rganish tashkil etadi.

Tadqiqotning maqsadi va vazifalari. Tadqiqot ishining **maqsadi** Yaponiya shaharlaridagi demografik muammolarni hal etish tajribasidan

O'zbekiston amaliyotida qo'llashga oid ilmiy taklif va amaliy tavsiyalarni ishlab chiqishdan iborat. Ushbu maqsad doirasida quyidagi **vazifalar** belgilandi:

- Demografik jarayonlarni o'rganishning nazariy asoslari va zamonaviy jarayonlarni tadqiq etish;
- Yaponiyada demografik jarayonlar va urbanizatsiya jarayoni rivojlanishining bog'liqlik jihatlarini tahlil etish;
- Yaponiya shaharlarini aholi soniga ko'ra tasniflash;
- Yaponiya o'rta va yirik shaharlarida aholining tabiiy va mexanik harakatining o'ziga xos jihatlarini o'rganish;
- Yaponiya shaharlari demografik jarayonlaridagi muammolarni aniqlashtirish va ularni hal etish bo'yicha tajribalarini o'rganish va boshqalar.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi. Yuqorida keltirilgan vazifalardan kelib chiqqan holda, quyidagi ishlar aamalga oshirildi:

- Demografik jarayonlarni o'rganishning nazariy asoslarini umumlashtirish va zamonaviy tendensiyalarni aniqlashtirish;
- Yaponiyada demografik jarayonlar va urbanizatsiya jarayoni rivojlanishining bog'liqlik jihatlarini yoritib berish;
- Yaponiya shaharlarini aholi soniga ko'ra tasniflash;
- Yaponiya o'rta va yirik shaharlarida aholining tabiiy va mexanik harakatining o'ziga xos jihatlarini ochib berish;
- Yaponiya shaharlari demografik jarayonlaridagi muammolarni aniqlashtirish va ularni hal etish bo'yicha tajribalarini o'rgangan holda tavsiyalar ishlab chiqish.

Tadqiqotning asosiy masalalari va farazlari. Mamlakatni to'g'ri hamda samarali rivojlantirishda katta ahamiyatga ega bo'lgan, ishlab chiqarish kuchlaridan biri bo'lib hisoblangan aholi (mehnat resurslari) ni tabiiy jarayon sifatida rivojlanishiga imkon yaratish, aholining tabiiy ehtiyojlari orqali hududiy taqsimotni olib borish nafaqat, rivojlangan, balki, rivojlanayotgan mamlakatlar uchun ham muhim bo'lib hisoblanadi.

Tadqiqot mavzusi bo'yicha adabiyotlar sharhi. Xorijda mazkur sohada Zigel va Shroyk tomonidan izlanishlar olib borilib, unda “aholining kattaligi, joylashuvi hamda tarkibi” yoritib berilgan.¹ U aholining miqdorini, hududda joylashuvi, turlicha bo'lgan tarkibi, uning ko'payishi yoki kamayishini o'z ichiga olishi zarur bo'lgan.

Amerikalik olimlar P.Xauzer va O.Dunkan tadqiqotlarida esa demografik analiz haqida gapirib o'tilib, u yillar davomida hududiylikka qarab turlicha o'zgarishi, o'zgacha tus olishi mumkin ekanligi aytib o'tilgan.²

Yaponiyada esa M.Higashide³ demografiya fanining taraqqiyoti uchun katta hissa qo'shgan bo'lib, alohida shaharlar, ularning shakllanishi, tasniflanishi borasida H.Matsumoto⁴, J.Yasuda⁵, K.Tsutsumi, N.Sasaki⁶, S.Buxnik, T.Mizuishi, T.Uemura, V.Sakakibara, Y.Fuiji, Osaka shahri misolida A.Sakanishi, T.Tsukamoto⁷, metropoliten hududlar misolida H.Tsukada, S.Ohsugi⁸ tomonidan ilmiy izlanishlar olib borgan.

Bu kabi demografik jarayonlar aniq vazifalari MDHda A.G.Vishnevskiy⁹, L.P.Maksakova¹⁰, M.F.Gerasimenko tomonidan o'rganilib, bu kabi izlanishlar o'zining ilk olib borilgan tadqiqotlar ekanligi bilan ajralib turgan. O'zbekistonda demografiya fanining maqsadli shakllari 1920-yillardan boshlab tadqiqot tarzida o'tkazila boshlangan. Bunda fanning rivojiga M.Q.Qoraxonov katta hissa qo'shib, olim tomonidan mamlakatimizning XIX asrdan keyingi holati hududlarga bo'lingan holda tahlil etib berilgan.

¹Shryock H.S., Sigel J.S. The Methods and Materials of Demography. N.Y., San Francisco, London, 1973. P. 1.

² Hanser P.M., Duncan O.D. Overview and Conclusion // The Study of Population. An Inventory and Appraisal / Ed. by P.M. Hauser and O.D. Duncan. Chicago, 1959. Cit. in: Shryock H.S., Sigel J.S. The Methods and Materials of Demography. N.Y., San Francisco, London, 1973.

³ M.Higashide, Japanese Cities: “A Geographical Approach”, The Association of Japanese Geographers, Tokyo, Japan, 1995.

⁴ Hideaki Matsumoto, Yosetsu ChihoJichiHo (The Essential Local Autonomy Law), the sixth edition, Gyosei Corporation, 2009.

⁵ Uemura T., Uto M., Mizuishi t., Sakakibara V. and Yasuda J. “Jinkou Gensyou Jidaino Jyuutaku. Tochiriyou. Shyakaishuihon Kanrino Mondai to Sono Kaiketsuni Mukete, Japan, 2009.

⁶ Nobuo Sasaki, Do-Shu Sei (The System of Do and Shu) Chikumashobo Ltd., 2010

⁷ Tsukamoto T. 2010 “Regionalism in Osaka: the success and limits of local state rescaling”. Paper presented at the Association of American Geographers 2010 Annual Meeting.

⁸ Satoru Ohsugi, 2009 “Toku-seido Kaikaku to Daitoshi Tokyo (Reform of the System of the To and Special Wards and the Metropolis of Tokyo)” Toshi Mondai Kenkyu (The Journal of Municipal Problems) Volume 61 Issue No. 4.

⁹ Вишневский А. Г. Серп и рубль. – М.: ОГИ. 1998.

¹⁰ Максакова Л. П. Миграция населения: проблемы регулирования. – Т.: Элодинур, 2001.

Shuningdek, M.Q.Qoraxonovdan tashqari bu mavzuda ilmiy izlanishlar olib borgan olimlar qatoriga A.S.Soliyev¹¹, E.A.Axmedov¹², I.R.Mullajonov, M.R.Bo‘riyeva¹³, O.B.Ota-Mirzayev¹⁴, R.A.Ubaydullayeva, X.S.Salimov kabi olimlarning ilmiy tadqiqot ishlarini ko‘rsatishimiz mumkin.

Tadqiqotda qo‘llanilgan metodikaning tavsifi. Magistrlik ishida tarkibiy va qiyosiy tahlil, taqqoslash, kompleks tahlil qilish, statistik ma’lumotlar, dinamik qatorlarni guruhlashtirishdan foydalanildi. Shuningdek, tadqiqot ishi hududiy tahlil qilish, tarixiy yondoshuvlarga tayangan holda bajarilgan.

Tadqiqot natijalarining nazariy va amaliy ahamiyati. Dissertatsiyada olib borilgan tadqiqotning nazariy-uslubiy jihatida shahar joylarda demografik jarayonlar shakllanishi va rivojlanishini o‘rganish, dunyoning yetakchi mamlakatlaridan biri bo‘lib hisoblangan Yaponiya shaharlari demografik jarayonlarida kuzatilayotgan o‘zgarishlarni tadqiq etishda ahamiyatga ega.

Tadqiqot ishidagi ilmiy jihatdan taklif etilgan masalalar va tavsiyalar O‘zbekiston Respublikasi tegishli vazirliklari, muassasalari hamda shaharni rejalashtirish tashkilotlari tomonidan axborot-tahliliy materiallar tayyorlashda foydalanilishi mumkin. Shuningdek, mazkur tadqiqot ishida olib borilgan tahlil hamda yig‘ilgan ma’lumotlar, tadqiqot materiallaridan mamlakat oliy o‘quv yurtlarida “Xalqaro iqtisodiy munosabatlar”, “Jahon iqtisodiyoti”, “Xorijiy mamlakatlar iqtisodiyoti”, “Yaponiya iqtisodiyoti” kabi o‘quv kurslari uchun ma’ruza matnlari tayyorlashda qo‘llash maqsadga muvofiqdir.

Ish tuzilmasining tavsifi. Mazkur magistrlik dissertatsiyasi **tarkibiy jihatdan** kirish, uch bob, xulosa, foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati va ilovadan tashkil topgan.

¹¹ Солиев А. Шахарлар географияси. Т, ЎЗМУ, 2000.

¹² Ахмедов Э. Ўзбекистон шаҳарлари мустақиллик йилларида. – Т.: Ибн Сино нашриёти, 2002.

¹³ Бўриева М. Б., Эгамова Д. Н. Дунё аҳолисини ривожланиш жараёнлари. – Т.: Фан, 2008.

¹⁴ Ubaydullaeva R. A., Ata – Mirzaev O.B., Umarova N. O. Ўзбекистон демографик жараёнлари ва аҳоли бандлиги. – Т.: Университет, 2006.

I BOB DEMOGRAFIK JARAYONLAR VA ULARNI O‘RGANISHNING NAZARIY ASOSLARI

1.1 Demografik taraqqiyotning zamonaviy tendensiyalari va ularni tadqiq etishning nazariy asoslari

Dunyo aholisi XX asrga kelib tez o‘sa boshladi. Agar asrimiz boshida Yer kurrasi aholisi har yili o‘rtacha 10 mln. kishidan ko‘payib borgan bo‘lsa, asr o‘rtalariga kelib bu raqamlar 35-40 mln. kishiga yetdi. Aholi soni 1960-70-yillarda misli ko‘rilmagan darajada ko‘paydi (yiliga o‘rtacha 90 mln. kishi) va u “demografik portlash” deb ataladi. Hozirgi vaqtda esa aholi soni yiliga taxminan 78-80 mln. kishidan ortib bormoqda. Garchi, demografik portlash ortda qolgan bo‘lsada, aholi sonining tez o‘sib borayotganligi keyingi 10 yillikda jahon ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyotining eng muhim muammolaridan biriga aylandi. Yer sharining muntazam ko‘payib borayotgan aholisini oziq-ovqat, ish bilan ta‘minlash, tabiiy muhitni muhofaza qilish va undan oqilona foydalanish ana shu muammo bilan bevosita yoki bilvosita bog‘liqdir.¹⁵

Jahonda demografik jarayonlar azaldan demografiya fani doirasida o‘rganilib kelingan. Demografik tadqiqotlar ilk marta eramizdan oldingi III-VI asrlardan boshlab Osiyo va Afrika davlatlari, Misr, Mesopotamiya, Hindiston, Xitoy, Yaponiyada hamda qadimgi Rim va Gretsiyada o‘tkazilgan aholi ro‘yxatlarida o‘z aksini topgan. Demografik statistika qadimdan rivojlanib kelib, u o‘zida aholi soni, aholining yosh-jins va ijtimoiy tarkibi, tug‘ilishi, o‘lim, nikoh va ajralish jarayonlari, migratsiya, oilaning demografik holatiga oid tadqiqotlar natijalarini aks ettirgan.

Demografik taraqqiyot hozirgi rivojlanish davrigacha bosib o‘tgan yo‘l mutaxassislar tomonidan uchga bo‘linib, ular quyidagilardir: ‘

¹⁵ 2014 World Population Data Sheet. Population Reference Bureau

Birinchi davr XVI asrga qadar bo'lgan davrni o'z ichiga oladi. Bu davrda davlatchilik rivojlanishi bilan bog'liq holda aholining soni, ayniqsa erkaklar soni, xo'jaliklar haqida ma'lumotlar to'plangan. Ba'zi davlatlarda esa aholi ro'yxati ham o'tkazilib turilgan. Bu davlat rahbarlariga soliq yig'implari, davlat xazinasiga kelib tushuvchi tushum, urushlarda qatnashuvchi aholi sonini aniqlashtirish imkonini bergan.

Qadimgi sivilizatsiya o'choqlarida demografiya fan sifatida uzoq vaqt davomida aholi to'g'risida ma'lumot to'plash, ularni tahlil etish hamda aholi to'g'risidagi ma'lumotlarni amaliy talab mavjud bo'lgan sohalardagina ishlatilishi bilan chegaralanib kelgan. Bu jarayonlar keyinchalik tadqiqot uslublarining takomillashishiga olib keldi. Demografik bilimlar asosi bir necha yillar avvalgi davrga to'g'ri keladi. Ular orasida Konfutsiy aholi soni hamda ishlov beriluvchi yerlar miqdori o'rtasida ma'lum bog'liqlik asosida proporsiya bo'lishi zarurligini ko'rsatib, bu ko'rsatkich tengsizligi aholi kamligi oqibatida yerlarning yomonlashuvi, soliq yuki og'irlashib ketishi, sotsial hamda resurs bosimining ortishi kabi salbiy oqibatlarga olib kelishi mumkinligini keltirib o'tgan.

Platon esa ideal davlat to'g'risidagi izlanishlari natijasida ozod aholi hisoblanuvchi fuqarolar uchun cheklangan miqdor 5040 kishidan ortib ketmasligi ko'rsatilgan. Shu bilan birga, nikoh munosabatlarining ma'lum chegarasi bo'lishi lozimligi, erkaklar faqat 30-55 yosh oralig'ida farzandli bo'lishlari maqsadga muvofiqligini ko'rsatib o'tgan. Uning fikricha, hukumat tomonidan nikohlar sonining nazoratga olinishi erkaklar sonining doimiy miqdorini belgilab turadi. Bu esa urushlar, kasallik va boshqa sharoitlarda davlat tomonidan aholi sonining kamayib yoki ko'payib ketmasligi uchun asos bo'lib xizmat qiladi.

Aristotel fikricha ideal davlatni tashkil etish uchun ozod aholi kam sonli bo'lishi lozim. O'sha davrda huquqqa ega bo'lgan kam sonli aholi (qullar Afinada hech qanday huquqqa ega bo'lmagan), ular uchun sarf qilinuvchi xarajatlarni kamaytirish, sotsial bir maromga ega tizim yaratish uchun qulay

hisoblanadi. Kam sonli aholi shuningdek, aholi xarajatlari, keyinchalik aholining o'sishi natijasida vujudga keluvchi yer tanqisligi, qashshoqlik darajasining ortishi kabi salbiy oqibatlarning ortishi oldini olib turadi.

Ikkinchi davr XVI-XVIII asrlarni o'z ichiga olib, bu davr demografik bilimlarning rivojlanishida katta ahamiyatga egadir. Shu davrdan boshlab aholi hamda u haqdagi ma'lumotlarga ehtiyoj kuchayib borib, shuningdek, aholi hayotida yuz bergan ijtimoiy-iqtisodiy o'zgarishlar, feodalizmning o'rnini kapitalizm egallashi, shu davrdagi buyuk geografik kashfiyotlar, xalqaro savdoning rivojlanishi, kapitalistik turmush tarzining kengayishi sababli boshqa mamlakatlar aholisi, ularning an'ana va urf-odatlariga qiziqish kuchaya bordi. Ular orasida, ayniqsa, Yevropa mamlakatlarida aholi soni, uning migratsiyasiga oid tadqiqotlar o'tkazilib, ularni o'tkazishda siyosatshunos va tarixchi N.Makiavelli, fransiyalik J.Boden, italiyalik D.Botero, nemis olim G.Konring, Z.Bilfeldi, I.Zonenfels, angliyalik D.Graunt, V.Petti, rossiyalik V.Lomonosovlar katta ulush qo'shdi. Bu davrda avvalgisiga nisbatan ancha ko'proq hamda geografik jihatdan kengroq ma'lumotlar jamlash imkoniyati mavjud bo'lgan.

Uchinchi davrda esa XIX-XX asrlarni qamrab olib, bunda dunyodagi deyarli barcha davlatlar, ularning hududlari bo'ylab muntazam demografik ma'lumotlar to'plab borilgan.

XVIII asrning ikkinchi yarmida Angliyada boshlangan sanoat to'ntarishi XIX asrda AQSh, Fransiya, Germaniya, Rossiya, Italiya, Yaponiya kabi davlatlarda ham belgilarini namoyon eta boshladi. Demografik jarayonlar ham faol tus olib, demografik tadqiqotlar o'tkazilishi har bir davlat uchun zarur ilmiy yo'nalishga aylandi. Ushbu davrning yirik demograf olimlariga misol qilib, E.Rosset, R.Pressa, U.Laplas, A.Ketle, A.Giyyar, D.Mendeleyev, S.Novoselskiy, V.Bunyakovskiy, G.Syundberg, V.R.Smulevich, D.I.Valentey, Ya.N.Guzevatey, A.E.Boyarskiy, A.Ya.Kvasha, O'zbekistonda esa Ye.S.Timm, A.A.Shoroxova, M.K.Qoraxonov, I.R.Mullajonov va boshqalarni ko'rsatish mumkin. Shuningdek, bu davrda dunyo miqyosida hamda barcha davlatlarda

demografik tadqiqotlar olib boriluvchi, mutaxassislar tayyorlovchi yirik ilmiy-tadqiqot institutlari tashkil topdi va rivojlana boshladi.

“Demografiya” atamasi birincha marta 1855-yil fransuz olimi Giyyar A. tomonidan qo‘llanilib, u “Inson statistikasi tarkibi yoki Qiyosiy demografiya” deb nomlanuvchi asarida demografiyani keng ma’noda inson taraqqiyoti tabiiy va sotsial tarixi yoki aholi, uning harakati, fizik, grajdanlik, intellektual va ruhiy holatiga matematik yondashuv sifatida ko‘rib chiqadi.¹⁶ Agar bu davlat tomonidan qonunga kiritilmasa, jamiyat har bir oila uchun bolalar sonini belgilab berishi zarurligini ko‘rsatib o‘tgan.¹⁷

XVII-XIX asrlar boshiga kelib, demografik bilimlar shakllana boshladi va XVII asrning ikkinchi yarmidan kapitalizm rivojlanishi demografik qonuniyatlarning namoyon bo‘lishi, uning yo‘nalishlariga to‘g‘ri keluvchi atributlari, ma’lumotlar bazasini shakllantirish uchun vositalar, tadqiqot hamda ma’lumotlarni tahlil qilish uslublari, ularni hisobga olish va demografik jarayonlarni modellashtirish, ularni matematik ifodalash orqali aholini barqaror tarzda o‘rganilishini talab etar edi. Bundan kelib chiqqan tarzda demografik bilimlar katta miqyosda olib borilib, natijada uni miqyos jihatidan kompleks tarzda o‘rganish mumkin bo‘lmay qoldi va jarayonlar alohida tarzda tadqiq etila boshlandi.

“Demografiya” atamasining rasmiy qo‘llanilishi esa 1882-yil Jenevada bo‘lib o‘tgan Xalqaro gigiyena va demografiya kongressidan keyingi davrga to‘g‘ri keladi.¹⁸

1920-30-yillarda aholini o‘rganish borasida xalqaro hamkorlik ishlari olib borila boshlandi. Demografik tadqiqotlarni boshqa jamiyatlarda paydo bo‘layotgan o‘zgarishlar bilan bir-biriga bog‘lagan tarzda olib borish, ularni taqqoslashga katta ahamiyat berildi. Demografiya umumiy fanlar ro‘yxatidan joy oldi.

¹⁶ Медков В. М. Демография.— Ростов-на-Дону: «Феникс», 2002. — стр 37.

¹⁷ <http://www.regnum.com/news>

¹⁸ Abdurahmonov Q.X., Demografiya. –Toshkent: “Noshir”, 2011. 14 b.

Zamonaviy demografik rivojlanish oxirgi yarim asrga to'g'ri kelib, bunda fanga iqtisodiy va sotsial umumiy rivojlanish omili sifatida qarashlar vujudga kela boshladi.

XX asrda demografik rivojlanish D.I.Mendeleyev, F.German, P.P.Semyonova-Tyanshanskogo, A.I.Chuprova, Y.E.Yansonlar tomonidan o'rganilib chiqilib, natijalar e'lon qilindi.


“Demografik o'tish” aholi takror barpo bo'lishining bir turidan ikkinchiga o'tish bosqichlari hisoblanib, ularda bir bosqichdan ikkinchisiga o'tganda aholi kengaygan takror barpo bo'lishdan oddiy yoki toraygan takror barpo bo'lishga o'tishi aks etadi.¹⁹

Demografik o'tishning birinchi konsepsiyasi 1909-1934-yillarda fransuz demografi L.Landri tomonidan yaratilgan bo'lib, uni ishlab chiqishda shveysariyalik kriminolog Leon Rabinovich, amerikalik olim Uorren Tompson va Kingli Devis katta ulush qo'shgan. “Demografik o'tish” atamasi birinchi marta 1945-yilda amerikalik demograf F.Nounstayn tomonidan fanga kiritilgan.

Kishilik jamiyatida asta-sekin taraqqiyot, aholiga ta'sir ko'rsatuvchi omillar, ijtimoiy-iqtisodiy o'zgarishlar tufayli aholi demografik mayli o'zgarib borib, aholining farzandga bo'lgan munosabati ham ko'p bolalikdan o'rtacha bolalikka, o'rtacha bolalikdan kam bolalikka o'ta boshladi. Shuningdek, urbanizatsiya jarayoni, sanoat tarmoqlarining rivojlanishi, aholi savodxonligi va tibbiy savodxonlikning ortib borishi, aholi orasida ayollar bandligi ortishi kabi omillar farzandlar kam bo'lishiga talabni kuchaytirdi. Tahlillar shuni ko'rsatadiki, tibbiy xizmat sifati ortishi, zamonaviy texnologiyalarning joriy etilishi, tibbiy xizmat ko'rsatishda zamonaviy uskunalarning qo'llanilishi, yuqori malakali xodimlar soni ortishi, ayollarda jamiyatda faolroq ishtirok etishga talab va imkoniyatning ortishi kabi omillar oilalarning kichiklashishiga olib keldi.

Demografik o'tishning to'rt bosqichi mavjud bo'lib, ular o'z davrida quyidagi xususiyatlarni namoyon etadi:

¹⁹ Хорев Б.С. Проблемы городов . -М.: Мысль. 1971, с. 72



1.1.1-rasm. Demografik o'tish bosqichlari hamda ularning o'ziga xos xususiyatlari²⁰

Ba'zi mamlakatlarda turli sabablarga ko'ra o'limning keskin kamayishi, o'rtacha va kutilayotgan umr uzoqligi ortishi, tug'ilish ko'rsatkichlarining yuqori darajada saqlanib turishi aholi sonining juda tez sur'atlarda oshishiga olib keldi va bu jarayon fanda "**demografik portlash**" deb ataladi. "Demografik portlash" aholi takror barpo bo'lishining me'yoridan ortib ketishini ifodalab, unda kengaytirilgan aholi takror barpo bo'lishi kuzatiladi. Shuningdek, u o'zi bilan birga bir qator ijtimoiy-iqtisodiy – oziq-ovqat, ish bilan ta'minlanish, kichik hududga ega mamlakatlarda aholi zichligi ortib ketishi kabi muammolarni keltirib chiqaradi.²¹


Demografiyada aholi mutlaq sonining kamayishi "**depopulyatsiya**" deb nomlanadi. Bu jarayonda aholi tug'ilish ko'rsatkichlari pasayib ketadi va o'lim

²⁰ Abdurahmonov Q.X., Demografiya. –Toshkent: "Noshir" ma'lumotlariga asoslangan holda muallif tomonidan ishlangan.

²¹ Перцик Е. Н. Города мира. География мировой урбанизации. - М.: Международные отношения, 1999 стр. 74.

ko'rsatkichlari (bolalar, onalar, mehnatga layoqatli aholi, qariyalar) ortishi kuzatiladi. Bu jarayon ishchi kuchi hamda mehnat salohiyati pasayishiga, uning natijasida ishlab chiqarish va iqtisodiy faollik tushishiga, aholining keksayishiga, iqtisodiy o'sishda muammolar kelib chiqishiga olib keladi.

Shu tarzda demografik o'tish konsepsiyasiga muvofiq ravishda, mamlakatlar o'z iqtisodiy rivojlanish va demografik holatidan kelib chiqqan tarzda demografik o'tishning bir turidan ikkinchisiga o'tadi.



1.1.2-rasm. Demografik o'tish bosqichlari davriyligi ²²

Hozirgi vaqtga kelib, turli rivojlanish darajasidagi mamlakatlar turli demografik o'tish bosqichlarini bosib o'tayotgan bo'lib, jumladan, birinchi bosqich mamlakatlari qatoriga misol qilib, Afrikada joylashgan ba'zi mamlakatlar – Chad, Somali kabilarni keltirishimiz mumkin. Bu mamlakatlarda

²² Abdurahmonov Q.X., Demografiya. Toshkent. "Noshir" – 2011, 45 b.

tug'ilish bilan birga, o'lim darajasi ham ancha yuqori. Ikkinchi bosqich mamlakatlariga esa Lotin Amerikasi mamlakatlari, qisman, Hindiston, ba'zi janubi-sharqiy Osiyo mamlakatlarini keltirishimiz mumkin. Bu mamlakatlarda hozirda aholi soni tezlik bilan ko'payish tendensiyalarini aks ettirmoqda. Uchinchi bosqich xususiyatlariga ega mamlakatlar sifatida Markaziy Osiyo mamlakatlari, Sharqiy Yevropa mamlakatlarining ba'zilarini ko'rsatishimiz mumkin. Bu mamlakatlarda hozirda tug'ilish hamda tabiiy o'sish ko'rsatkichlari asta-sekin pasayib bormoqda. To'rtinchi bosqichdagi xususiyatlarni esa, G'arbiy Yevropa mamlakatlari, Yaponiya, Rossiya kabi mamlakatlar misolida ko'rishimiz mumkin. Bu mamlakatlarda allaqachon o'lim miqdori tug'ilishdan ortib ketgan yoki tug'ilish kamligidan o'lim yuqoriligi ancha sezilarli ko'rinish olgan.

XVIII asrlardan boshlab ilk marta mamlakatlarda o'lim va tug'ilish sonining o'zgarishiga e'tibor berilgan bo'lsa, aholi tarkibi qayta ko'rib chiqilishi orqali demografiya fanining rivojlantirilishi XIX asrlarga to'g'ri keladi.

Quyida ba'zi demografik ko'rsatkichlarni davlatlar misoli bilan birgalikda ko'rib o'tamiz. **Tug'ilishning umumiy koefitsienti** har 1000 aholiga nisbatan tug'ilgan bolalar sonini ifodalaydi va quyidagi formula yordamida hisoblanadi.

$$K_t = \frac{N}{TP} \cdot 1000$$

Bunda:

t- tug'ilish umumiy koefitsiyenti

N-o'rganilayotgan davrda tug'ilgan bolalar soni

T-o'rganilayotgan davr (yil)

P-mazkur davrdagi aholining o'rtacha soni

K- koefitsiyent

1000 - promilleda ifodalanishni hisoblash uchun

Tug'ilishning umumiy koefitsienti promilleda hisoblanadi. Bu koefitsientdan tug'ilish darajasini ifodalashda foydalaniladi. Koefitsiyent ma'lum hudud yoki aholi tug'ilish tarkibida ro'y berayotgan o'zgarishlarni

umumiy tarzda ifodalashda qo'llaniladi. Tug'ilish koeffitsiyentining yuqoriligi aholi soni oshishini bildirsa, nisbatan past raqamlar (ayniqsa, o'lim koeffitsiyentiga nisbatan) aholi sonining kelgusida kamayishini yoki depopulyatsiya jarayoni yuz berayotganini bildiradi. Hozirda tug'ilish jarayoni eng yuqori bo'lgan mamlakatlar qatoriga, asosan, Afrika mamlakatlari – Chad (51%), Mali (46%), Burundi (45%), Somali (45%), Uganda (45%), Mozambik (44%) kabilarni kiritsak, eng past davlatlar qatoriga esa, ko'proq Yevropa mamlakatlari – Avstriya (9%), Germaniya (8%), Monako (6%) hamda sharq mamlakatlari orasida yagona shunday depopulyatsiya jarayoni kuzatilayotgan Yaponiya (8 %) ²³ kabi mamlakatlarni misol sifatida ko'rsatishimiz mumkin. Bunday salbiy holat kelgusida mazkur millatlarning millat sifatida kamayib yoki yo'qolib ketishiga olib ketishi mumkin.

Tarixan demografiyaning ilmiy obyekti bo'lib o'lim jarayonlari hisoblangan. Avlodlar almashinuvi tartibini bilib borish umr uzoqligini aniqlash imkonini berganligi tufayli rasman o'lim, hududlarda o'lim miqdori, uning kelib chiqish sabablarini aniqlashtirish muhim hisoblangan.

Demografik statistik olim J.Graunt o'lim byulletenlarini qonunlarga e'tibor bergan holatda tahlil qilib chiqib, birinchi marta oddiy o'lim jadvali modelini ishlab chiqqan. 1693-yilda Galley Breslavl (Vrotslav) shahri uchun to'liq o'lim jadvalini ishlab chiqib, unda nafaqat katta yoshlilar, balki, go'daklar va bolalar o'limini ham aks ettiradi.

O'lim turli xil– endogen,ekzogen omillar ta'sirida sodir bo'lib, bu jarayon ma'lum guruhlar, davlatlarning ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyoti, turli davrlarda yuz beradi. O'lim jarayonini ifodalashda quyidagi koeffisientlardan foydalaniladi. O'limning umumiy koeffisienti:

$$Ko' = \frac{M}{TP} \cdot 1000$$

Bunda:

²³ "Population Statistics", annual edition, compiled by the Cabinet Bureau of Statistics

o‘-o‘limning umumiy koeffisienti.

M-o‘rganilayotgan davrdagi o‘lganlar soni

T-davr.

P-mazkur davrdagi aholining o‘rtacha soni

K- koeffitsiyent

1000 - promilleda ifodalanishni hisoblash uchun

O‘limning umumiy koeffisientiga aholining yosh va jinsiy tarkibi ta’sir ko‘rsatadi. Aholi tarkibida qariyalar salmog‘ining ko‘pligi bu koeffisientning oshishiga olib kelishini biz Yaponiya misolida yaqqol ko‘rishimiz mumkin. Dunyo bo‘yicha bu ko‘rsatkich 8 % ni tashkil etgani holda, mazkur mamlakatda hozirgi vaqtda o‘lim darajasi 10% ni tashkil etadi. O‘lim darajasining yuqori bo‘lishi tibbiyot past darajada rivojlangan Afrika mamlakatlari bilan bir qatorda, aholi tarkibida qariyalar soni yuqori ko‘rsatkichlarni ko‘rsatayotgan Yevropa mamlakatlarida ham kuzatiladi. Bu rivojlanishning ikki darajasidagi mamlakatlar guruhi uchun o‘limning ham ikki turi xos bo‘lib hisoblanadi. Afrika mamlakatlari orasida Kot D’Ivuar (15%), Mozambik (15%), Mali (15%), Kongo (16%), Syerra-Leone (18%) ajralib tursa, Yevropa mamlakatlari orasida Buyuk Britaniya hamda Rossiya 13%, Latviya va Litva 14%, Bolgariya 15 % ko‘rsatkich bilan o‘lim darajasi eng yuqori mamlakatlar qatoriga kiradi.²⁴

Aholi tabiiy o‘sishi aholining tug‘ilishi o‘lim darajasiga nisbatan qanday holatda ekanligini ko‘rsatib beradi va u aholining tug‘ilish hisobiga o‘sayotganligi yoki tug‘ilish pastligi sababli kamayayotganini ifodalashda qo‘llaniladi. Hozirda dunyo bo‘yicha mazkur ko‘rsatkich 1.2 % ga teng bo‘lib, mamlakatlar yoki mintaqalar bo‘yicha ham bir-biridan farq qiladi. Bu ko‘rsatkichning eng yuqori natijalarini Gambiya – 3.3%, Chad – 3.6%, Niger – 3.8%, eng past natijalarini esa Yaponiya (-0.2), Latviya (-0.5), Bolgariya (-0.6) ko‘rishimiz mumkin. Aholi tabiiy o‘sish darajasi bir yilda tirik tug‘ilgan bolalar sonidan o‘lim darajasini ayirish yo‘li bilan aniqlanadi:

²⁴ "Population Statistics", annual edition, compiled by the Cabinet Bureau of Statistics

$$K_{to'} = M - N (\cdot 1000)$$

Bunda:

to'-tabiiy o'sish

K- koeffitsiyent

1000 - promilleda ifodalanishni hisoblash uchun

M-o'rganilayotgan davrdagi o'lganlar soni

N-o'rganilayotgan davrda tug'ilgan bolalar soni

Agar, XVIII – XIX asr boshlarida turli mamlakatlarda yangi, zamonaviy aholini ro'yxatdan o'tkazish ishlari, ilk demografik muammolarga e'tibor qaratilgan bo'lsa, XIX asr oxiri va XX asr boshlarida demografiyaning asosiy predmeti sifatida turli mamlakatlarda qabul qilinuvchi aholiga tegishli bo'lgan aholining takror barpo bo'lishi muammolariga urg'u berilgan. Shu jumladan, XIX asr ikkinchi yarmida aholining takror barpo bo'lishi davriy jihatdan bir-biriga bog'liq bo'lgan jarayonlardan tashkil topib, u yagona jarayon sifatida ko'rib chiqila boshlangan.

Yangi davrdan boshlab esa sanoatning rivojlanishi yangi demografik tendensiyalarni yuzaga keltirdi. Natijada, demografik jarayonlar, tendensiyalar yangicha tus oldi va shu vaqtgacha kuzatilmagan holatlar o'rganila boshlandi. Xususan, aholining bir hududda katta miqdorda to'planishi, xususiyatlarning qishloq hamda shahar aholisiga nisbatan turlicha ko'rinishlarga ega bo'lishi kabilar yuzaga kela boshladi. Bu jarayonlarning davomi sifatida XXI asrda shunday yangi tendensiyalar yuzaga keldiki, unda inson resurslari hamda uni rivojlantirishga katta e'tibor berila boshlandi. Inson resurslari ishlab chiqarish kuchlari orasida eng yuqori natija beruvchi omilga aylanib, uni qayta ishlash, yo'naltirish, unga boshqa omillardan ko'ra ko'proq investitsiya ajratish dunyoning yetakchi kompaniyalari asosiy vazifasiga aylanib qoldi. Shu bilan birga, demografik o'tish bosqichlarida eng oldinda bo'lgan mamlakatlarda aholi qarib borishi kabi tendensiyalar kuzatila boshladiki, bu holat hozirda mazkur mamlakatlar iqtisodiy-ijtimoiy holatiga katta ta'sir ko'rsatmoqda.

Demografik jarayonlarinng o'zgarib borishida urbanizatsiya, ya'ni shaharlashish alohida o'rin tutadi. Bunda, shahar va qishloq joylardagi demografik jarayonlar o'ziga xos tarzda rivojlanib borishi kuzatiladi. Hozirgi kunda dunyo aholisining deyarli yarmi shaharlarda yashamoqda va demografik jarayonlar, ularni belgilab beruvchi ko'rsatkichlarning o'ziga xos ko'rinishlari namoyon bo'lmoqda. Demografik jarayonlar shahar va qishloq joylarda ham o'ziga xos, bir-biridan ajralib turuvchi xususiyatlar bilan rivojlanmoqda. Shahar hududlari doimo aholi harakati yuqoriligi, migratsiya jarayonlarining tez rivojlanishi, mobillik katta ekanligi bilan qishloq hududlardan ajralib turadi.

1.2 Urbanizatsiya jarayoni va uning demografik taraqqiyot bilan bog'liqligi

Demografik jarayonlar, sanoat ishlab chiqarishining rivojlanishi bilan keskin o'zgara boshladi, aholining ish qidirib shaharlarga ommaviy tarzda ko'chish hollari kuzatildi va bu jarayon ko'pgina mamlakatlarda hozirgacha davom etmoqda. Urbanizatsiya – shahar aholisining soni ortishi, yirik shaharlar sonining ko'payishi, shahar hayot tarzining yoyilishi, murakkab shahar tizimlarining shakllanishi bilan bog'liq bo'lgan ijtimoiy-iqtisodiy jarayon hisoblanadi. Hozirgi kunda u Osiyo va Shimoliy Afrika mamlakatlarida jadal rivojlanmoqda. Aholi qishloq joylardan ko'plab yirik, poytaxt shaharlarga ko'chib bormoqda.

Ammo, mamlakatlarning rivojlanish darajasiga ko'ra urbanizatsiya darajasi ham o'zaro turlicha tendensiyalarni ko'rsatadi. Masalan, tabiiyki, iqtisodiy rivojlangan mamlakatlarda urbanizatsiya darajasi rivojlanayotgan mamlakatlardan ikki barobar yuqoriroq. Shuningdek, uning sifati, sabablari ham rivojlangan mamlakatlar bilan rivojlanayotgan mamlakatlar, mazkur mamlakatlar va kam rivojlangan mamlakatlarni taqqoslaganda turlicha natijalarni ko'rsatadi.

Urbanizatsiya darajasi 50 foizdan yuqori bo'lgan mamlakatlar yuqori darajada urbanizatsiyalashgan hisoblansa, aholisining 20-50 foizi shaharlarda

istiqomat qiluvchi mamlakatlar o'rtasida, Chad, Somali, Zambiya kabi aholisining 20 foizdan kamrogi shahar aholisi hisoblangan mamlakatlar past darajada urbanizatsiyalashgan mamlakatlar hisoblanadi.

Ammo, ba'zi holatlarda shaharlarning urbanizatsiya darajasi uning rivojlanish darajasiga nisbatan biror qaror qabul qilishga imkon bermaydi. Ya'ni, mamlakatning urbanizatsiya darajasini aniqlashtirishda uning shaharlarda yashovchi aholisi soni (shaharlarda yashovchi aholi sonining mamlakat aholisiga nisbatan ulushi) gina hisobga olinishi ma'lum bir chalkashliklarni keltirib chiqaradi. Agar, odatda, rivojlangan mamlakatlarda urbanizatsiya darajasi yuqori bo'lgan bo'lsa, ba'zi hududlar – Livan, Liviya kabi mamlakatlarda tabiiy resurslar hamda xo'jalik holati, shuningdek, Arabiston yarimorolida joylashgan mamlakatlarda ijtimoiy-tabiiy sharoitlar aholini faqat shaharlarda istiqomat qilishiga olib keladi.

Shaharlarni biz rivojlanish markazi, uni qurshab turgan hududlar taraqqiyot darajasini ko'rsatib turuvchi jamiyat modeli sifatida misol qilib keltirishimiz mumkin. Ammo, ularning barchasi turli davlatlarda turlicha ichki va tashqi belgilariga ko'ra turlarga ajratiladi, bir-biridan farq qiladi. Shaharlarni biz shuningdek, jamoaviy faoliyat kuchli bo'lgan, aholi, ishlab chiqarish yuqori darajada mujassamlashgan hududlar sifatida ham aytishimiz mumkin. Ular jamiyat rivojlanishining muammolarini birinchi bo'lib o'zida namoyon etadi va shu bilan birga vaqt o'tishi bilan ularning yechimlarini ham taqdim etadi. Bu hududlarni geografik joylashuv jihatidan mamlakatdagi fokus nuqtada joylashishi uning faoliyatini hamda unga nisbatan bosimni kuchaytiruvchi omillardan biri sifatida aytib o'tishimiz lozim. Yuqorida aytib o'tilganidek, aynan shaharlarda mamlakat muammolari birinchi bo'lib aks etganligi tufayli u turli sohada tadqiqot obyekti bo'lib hisoblanib, xalq xo'jaligi loyihalashtirilishi, dasturlashtirilishi hamda shahar qurilishini loyihalashtirish, ayniqsa, yuqori malakali kadrlar, aholining nisbatan yosh qatlami, umuman olganda, aholining katta qismi aynan shaharlarga to'planishini ko'rishimiz mumkin.

Shahar – yirik aholi punkti bo‘lib, uning aholisi odatda, qishloq xo‘jaligiga tegishli bo‘lmagan ishlar bilan band bo‘ladi. Ularning shahar maqomini olishi turlicha mamlakatlarda turlicha me‘yorlarga ko‘ra kiritiladi: agar Daniya shaharlari uchun aholi soni me‘yori 250 kishini tashkil etsa, Yaponiyada bu ko‘rsatkich 50 000 kishigacha yetadi.²⁵ Ba‘zi shaharlarning shahar sifatida tan olinishi uchun hudud aholisining 60 foizi sanoatda band bo‘lishi yetarli bo‘lsa, boshqalarida 75 foizga yetishi maqsadga muvofiq hisoblanadi.²⁶ Shuningdek, unga turli mamlakatlarda qo‘shimcha mezonlar ham kiritilishi mumkin. Masalan, Yaponiyada shaharlarga qatnab ishlovchi aholi o‘lchamlari ham mezon sifatida kiritilgan. Ya’ni, bir kunlik vaqt davomida tungi aholi sonidan kunduzgi aholi soni nisbatan ancha ko‘p bo‘lishi zarur. Yo‘ldosh shaharlar, shaharchalar, qishloqlardan shaharga kirib keluvchi aholi soni eng kamida 500 kishi bo‘lishi, ulardagi ish bilan band aholining 5 foizdan ortig‘i shaharga qatnab ishlashi kabi me‘yoriy ko‘rsatkichlar ham mavjud.²⁷

Sanoat davri boshlangach, shaharlar aholisi keskin ko‘paya boshladi, bunda qishloqlardagi aholining yirik shaharlarga ish topish, qulay yashash sharoiti, yuqori daromad katta rol o‘ynadi.

XIX asrda sanoatlashgan shaharlar katta ulushni tashkil etgan bo‘lsa, XX asr urbanizatsiya asri hisoblanadi. Zamonaviy hayot xususiyatlarining eng muhimlaridan biri bu – shaharlar hamda shahar aholisi sonining keskin o‘sishi hisoblanadi. Urbanizatsiyada esa shaharlar o‘sishi, aholining shaharlarda yashovchi qismi ortishi, jamiyat hayotining barcha jabhalarida shaharlar rolining ortishi, shuningdek, shahar yashash tarzi, muhitining qishloq hududlarga kirib borishini tushunishimiz mumkin.

²⁵ <http://www.justlawlinks.com/global>

²⁶ Japan’s urban system – an overview. Yamaguchi T., 1977-1979. Papers and proceedings of the Third Far East Conference of Regional Science Association, Vol., 3 p. 6

²⁷ Japan’s urban system – an overview. Yamaguchi T., 1977-1979. Papers and proceedings of the Third Far East Conference of Regional Science Association, Vol., 3 p. 6

XX asr oʻrtalaridan jahon boʻyicha urbanizatsiya darajasi oshib borib, uning tezligi ham oldingi surʼatlaridan tezlashganini koʻrishimiz mumkin: XIX asrda jahon shahar aholisi 190 mln. kishiga oshgan boʻlsa, XX asr birinchi yarmida bu raqamlar 510 mln. kishini, XX asrning ikkinchi yarmida esa 2 mlrd. 200 mln. kishiga yetdi. Tendensiyalar tezlashuvi tufayli bu jarayon **“shaharlar portlashi”** nomini olgan.

Bu haqda quyidagi maʼlumotlar darak beradi: 1900 yilda shaharlar 13 foiz aholini qamrab olgan boʻlsa, asr oxiriga borib, 47 foizga yetdi. 2008-yilga kelib, bu raqamlar 50 foizni tashkil etdi.²⁸ Shaharshunos olimlarning bashoratlariga koʻra, 2050-yilga borib, shaharlarda istiqomat qiluvchi aholi soni butun Yer yuzi aholisining 70 foizini tashkil etadi. Ammo, shaharlar maydoni Yer yuzasining 1 foizdan kam qismini egallaydi.²⁹

Amerikalik mashhur geograf-shaharshunos Berri tomonidan kontrurbanizatsiya konsepsiyasi³⁰ keng tarqalib, yangi mintaqaviy tadqiqotlar yoʻnalishiga ham taʼsir etgan. Shuningdek, ushbu yoʻnalish uchun tadqiqot obyekti vazifasini oʻtayotgan, maʼlum maʼnoda, tadqiqot yoʻnalishining paydo boʻlishiga sabab sifatida XXI asrda rivojlanayotgan mamlakatlarda soni tobora oshib borayotgan, aholining millioner (1mln., ayniqsa, 10 mln.ga yetgan oʻta yirik) shaharlarga toʻplanishi kuchayib borayotganligini koʻrsatishimiz mumkin. Bu tendensiya BMT demograflari prognoziga koʻra XXI asr birinchi oʻn yilliklarigacha saqlanib qoladi.

Shaharlarning sanoatlashuvi bilan birgalikda, ularning rivojlanishi, taʼsir etuvchi omillari, bosqichlari borasida turli mamlakatlar olimlari turlicha fikr bildiradilar. Masalan, eng birinchi sanoatlashgan mamlakat – Angliyaning klassik sanoatlashgan shaharlari oʻz vaqtida aholi manzilgohlari uchun misol

²⁸ Competitive Cities, Prosperous People: A Core Cities Prospectus for Growth. World Health Organisation. Statistical Bureau.

²⁹ Audirac I. 2007 “Some thoughts about Urban Shrinkage in a sea of Growth”, International Conference “The Future of Shrinking Cities: problems, Patterns and Strategies of Urban Transformation an a Global Context” February 7-9, University of California at Berkeley

³⁰ Кудрявцев О. К. Расселение и планировочная структура крупных городов и агломераций. - М.: Стройиздат, 1985. – стр. 135.

bo'la oladigan darajada rivojlangan. XVIII asr yuz yilligida yer egaligining o'zgarishi fermerlar hamda mayda yer egalarining birdan ko'payishiga olib keldi. Bu esa, Angliyada oziq-ovqat mahsulotlari sifati va turlari oshishi, o'lim darajasi pasayishi, shahar ichi hamda aholi punktlari orasidagi transport tizimining taraqqiy topishi, qishloq xo'jaligida ishlashga qiziqish pasayishiga olib kelgan. O'z navbatida bu sanoat hamda qishloq xo'jaligidagi o'zgarishlar aholi soni ortishi, uy-joylar markaz hamda markazga yaqin hududlarga qurilishi oqibatida jahonning eng yirik shaharlaridan biri bo'lib hisoblanuvchi London vujudga kelgan. Bu shahar o'z vaqtida 900 000 aholi istiqomat qiluvchi eng yirik aholi manzilgohi bo'lib hisoblangan.

Shuningdek, birinchi millioner shaharlar safiga Rim (V-VI asrlarda aholisi kamaya boshlagan), Edo – hozirgi Tokioni ko'rsatishimiz mumkin. Shaharlar hamda aglomeratsiyalarning o'sish sur'atlari XX asrga kelib tezlashdi va bu jarayon XXI asrda tez sur'atlar bilan davom etmoqda. Hozirda Yer yuzida ularning soni 500 ga yaqinlashdi.

XXI asrga kelib esa Janubi-Sharqiy Osiyo vektorining jahon urbanizatsiyasida kuchayotganini, o'z o'rniga ega bo'layotganini ko'rishimiz mumkin. Jahon urbanizatsiyasida Osiyo vektori 1970-1990-yillarda 5 mln.dan ortiq bo'lgan aholiga ega bo'lgan o'ta yirik shahar aglomeratsiyalarining tez sur'atlarda o'sishi bilan aks etadi. Ayniqsa, bunda 2000-yilga kelib, 10 mln. aholi istiqomat qiluvchi aglomeratsiyalar ro'yxati tuzib chiqilganligi, unga Jakarta, Karachi, Dakka, Manila, Bangkok, Tyanszin, Dehli hamda Osiyo joylashgan boshqa aglomeratsiyalarning kiritilgani alohida ahamiyatga ega.

1980-yillarda dunyoda 220 ga yaqin millioner shaharlar hisobga olingan bo'lib, ularning ko'pchiligida yo'ldosh shaharlar mavjud edi. Ko'p hollarda shaharlar va ularning yo'ldoshi qo'shib ketib, aglomeratsiyalarni hosil qiladi va ular o'z navbatida megalopolislar shakllanishiga olib kelishi mumkin.

BMT aholisi 8 mln. va undan ortiq bo'lgan shaharlarni alohida tur sifatida ajratib, ularga mega-shaharlar nomini berishni taklif etgan. Bu guruh safi rivojlanayotgan mamlakatlardagi eng yirik shahar aglomeratsiyalari

hisobiga tobora kengayib bormoqda. 1950-yilda aholi soni jihatidan faqatgina Nyu-York va London ushbu guruhga kirgan bo'lsa, 1960-yilda ularga Tokio hamda Shanxay qo'shildi. 1970-yilda megashaharlar soni 11 taga yetib, ularning beshtasi rivojlanayotgan mamlakatlarga to'g'ri keldi – Pekin, San-Paulu, Buenos-Ayres, Rio-de-Janeyro. 1994-yillar o'rtalariga kelib, guruhdagi 22 megashaharlardan 16 tasi rivojlanayotgan mamlakatlar yetakchi shaharlari hisoblanib, prognozlarga ko'ra, 2015-yilda 8 mln. aholi istiqomat qiluvchi 33 megapolisdan 27 tasi – 81.8 foizi rivojlanayotgan mamlakatlarda joylashgan edi, shu bilan birga mos holda ularning 21 tasi Osiyoning eng yirik shaharlaridan bo'lib hisoblanardi.³¹

Birgina Buyuk Britaniyada shaharlar butun mamlakat hududining 9 foizini egallagan holda ish bilan band aholining 58 foizini, iqtisodiyotning 60 foizini, oliy ma'lumotga ega ishchilarning 72 foizini o'zida jamlaydi.³² Birlashgan Qirollikning sakkizta eng yirik shaharlari mamlakat byudjetiga har yili 1.3 mlrd funt sterling foyda keltiradi.³³

Jahon bo'yicha aholi soniga qarab shaharlarni tasniflashda aynan bir standart qabul qilinmagan. Agar, Daniya, Islandiya, Finlyandiya va Shvetsiyada aholi punktlarida 200-250 kishi mavjud bo'lishi yetarli deb hisoblansa, Gretsiya, Italiya, Shveysariyada aholi punkti nomini olish uchun 10 000 aholi yetarli deb hisoblanadi. O'rganilayotgan mintqa mamlakati – Yaponiyada esa 50 000 dan kam bo'lmagan aholiga ega bo'lgan punktlar aholi punktlari hisobiga kiradi. Rossiyada esa bu ko'rsatkich 12 000, Ukraina va Moldovada 10 000, Gruziyada 5000, O'zbekistonda 7000 kishidan kam bo'lmasligi lozim.³⁴ Umuman olganda hudud yoki mamlakat urbanizatsiya darajasini ko'p olimlar tomonidan qo'llaniluvchi uch asosiy ko'rsatkich yordamida aniqlash mumkin:

³¹ <http://www.countries.inapro.ru>

³² Competitive Cities, Prosperous People: A Core Cities Prospectus for Growth. Centre for Cities. Statistical Bureau.

³³ Competitive Cities, Prosperous People: A Core Cities Prospectus for Growth. PWC for Core Cities. Statistical Bureau.

³⁴ Доманьский Р. Экономическая география: путь динамики.- М: Новый хронограф, 2010. – стр. 376 .

1. Aholi umumiy sonidagi shahar aholisi ulushi;
2. Yirik shaharlarda istiqomat qiluvchi aholining mamlakat aholisi sonidagi ulushi;
3. Shahar aglomeratsiyalarida yashovchi aholi soni.

Shuningdek, urbanizatsiya darajasini ko'rsatuvchi yana bir ko'rsatkich – shaharda ishlovchi, ta'lim oluvchi qishloq aholisi. Turli mamlakatlarda aholi joylashuvi, uning miqdori, shahar kriteriyasini olish uchun yetarli bo'lgan me'yorlar ham turlicha va ular bir vaqtining o'zida ikki yoki uch nazariya asosida ham rivojlanish tendensiyasiga ega bo'lgan bo'lishi mumkin.

Shaharlar uchun umumiy aniq me'yorlar qabul qilinmagan. Uni har bir mamlakat o'z aholi soni, uning zichligi, ma'lum ijtimoiy ta'minlanganlik darajasidan kelib chiqqan holda belgilaydi.

Tasniflanishni quyidagi misol yordamida tushuntirishimiz mumkin: kichik aholi punktlari va aholisi 20 000 gacha bo'lgan shaharlarda aholi piyoda yoki velosipedlarda harakatlanishi mumkin. Aholisi 20 000 dan oshgan vaqtdan boshlab, avtobuslarga, 100 000 dan oshgan holatdan boshlab, avtobus bilan birgalikda tramvaylarga, 500 000 dan oshib ketsa, avtobus, tramvaylar bilan birgalikda odatda, trolleybuslar yoki rivojlanish darajasiga bog'liq ravishda tezyurar transport va tezyurar magistrallar barpo etiladi. Millioner shaharlarda esa, yuqoridagi transportlarning barcha turlarini o'z ichiga olgan holda metropoliten xizmatidan ham foydalanilmasa, shahar ichi transport qatnovida qiyinchiliklar kelib chiqishi mumkin.

Aholisi 50 000 gacha bo'lgan shaharlarda umumiy shahar markazi bo'lishi maqsadga muvofiq bo'lib, undan oshgan holda tabiiy ravishda bu kabi markazlar soni orta boradi. Administrativ loyihalashtirishda esa barcha yirik shaharlar hududi bir necha alohida rayonlarga bo'linsa, o'rta va kichik shaharlarda bu kabi qayta bo'linishlar ularni boshqarish yirik shaharlarni boshqarishchalik muammo tug'dirmaganligi sababli olib borilmaydi.

Shaharlar, ayniqsa, yirik shaharlar o'ziga xos bir butun ekologik, iqtisodiy, investitsion, geografik kriminogen hudud sifatida aks etadi.

1946-yildan soʻng shaharlar aholisi soni tabiiy oʻsishi keskin kamayishi bilan birgalikda mamlakatlarning umumiy aholisiga nisbati tobora oshganligi kuzatilgan. Shu bilan birgalikda, urbanizatsiya geografiyasi ham kengayib, u oʻz hududini shimol va sharq tomonlarga qarata kengaytira boshladi. Bu jarayonda esa quyidagi sifat koʻrsatkichlari oʻzgarishi sodir boʻldi:

- aholining yirik va oʻta yirik shaharlarda toʻplanishi kuchayishi
- shahar aglomeratsiyalari tez rivojlanishi
- aholini qayta joylashtirish tizimi shakllanishi
- yirik va ayniqsa, oʻta yirik shaharlarda jamiyatning sotsial-iqtisodiy hayoti deyarli barcha sohalarda ularning roli ortishi;

- shahar turmush darajasining qishloq joylarga ham tarqalishi

Shaharlar funksiyalari ulardagi aholi soni oʻsishi bilan tarixiy jihatdan qay darajada bogʻliq boʻlsa, shahar atrofi hududlari tomon kengayib borishiga ham bogʻliq. Natijada shahar aholisining maʼlum hududda joylashgan va bir-biri bilan doimiy mehnat, madaniy-maishiy, ishlab chiqarish, tashkiliy-xoʻjalik, maʼmuriy va boshqaruvga aloqador hamda boshqa aloqalarni oʻz ichiga oluvchi, aglomeratsiya deb nomlangan aholi manzilgohlari tizimining zamonaviy rivojlangan guruhlari yuzaga keladi. Bu aholi guruhlari joylashgan hududda iqtisodiyotning zoʻr berib rivojlanishi aholi koʻpayishi bilan zanjir reaksiyasini hosil qiladi va hududda aholining katta qismi toʻplanib, shahar maydoni yonidagi boshqa hududlarni ham qoʻshib ola boshlaydi. Natijada, juda koʻp sonli aholiga ega boʻlgan aglomeratsiyalar, keyinchalik bir necha aglomeratsiyalarning qoʻshilib ketishidan hosil boʻlgan polosasimon urbanizatsiyalashgan zonaga **megalopolislar** deb ataluvchi hududlar yuzaga kelib, ularning eng yiriklari hozirda AQSh, Yevropa, Yaponiyada joylashgan.³⁵

Iqtisodiyoti yuqori darajada rivojlangan, aholisi boshqa hududlarga nisbatan ancha koʻp (baʼzida mamlakat aholisining yarmi) megalopolislar **oʻta aglomeratsiyalashuv** yoki **superaglomeratsiya** deb atalib, u aholi

³⁵ 2014 World Population Data Sheet. Population Reference Bureau

joylashuvining yirik shakllaridan biri hisoblanadi va bir-biriga qo'shni shahar aglomeratsiyalarining katta miqdor va tezlikda o'sib borishini o'zida ifodalaydi. Megalopolislar o'z navbatida qurilish uslubining bir chiziqliligi, asosiy transport vositasi hisoblangan umumiy yo'l, uni vujudga keltiruvchi shahar aglomeratsiyalarining bir-biri bilan yaqin aloqasi, salbiy jihatdan olib qaralganda, inson va tabiat o'rtasidagi ekologik muvozanatning buzilishi bilan ajralib turadi. Chunki bu omillar aholi uchun yashashga eng qulay bo'lgan, ular soni tez ortib ketishiga sabab bo'luvchi hamda ikki va undan ortiq aglomeratsiyalarning qo'shilib ketishiga sabab bo'luvchi omillardan bo'lib hisoblanadi.

Tabiiyki, ular bir yoki bir necha markazlar atrofida shakllanadi. Dunyodagi eng yirik aglomeratsiyalar Tokio, Mexiko, Bombey, San-Paulu, Nyu-York kabilar hisoblanadi. XXI asr boshlarida dunyoda har birida 10 mln. dan ortiq bo'lgan 19 ta yirik shaharlar aglomeratsiyalari aniqlangan. Faqatgina AQShning o'zida 1500 dan ortiq, mamlakat aholisining 70 foizini qamrab oluvchi aglomeratsiyalar shakllangan bo'lsa, Buyuk Britaniyada har birida 8 mln. aholi istiqomat qiluvchi sakkizga yaqin shahar aglomeratsiyalari mavjud. Shu bilan birga, Xitoyning Shanxay, Braziliyaning Rio-de-Janeyro, Argentinaning Buenos-Ayres, Hindistonning Kalkutta, Dehli, Pokistonning Karachi kabi urbanizatsiyalashgan hududlari yuqori sur'atlarda rivojlanmoqda.

Ular birinchi marta J.Gottman tomonidan 50-yillarda AQShning Atlantika okeani shimoliy qismida kuzatilgan. Bu vaqtda 200 km. kenglikda 1000 km. uzunlikda bir-biriga o'tuvchi Boston, Nyu-York, Filadelfiya, Baltimor, Vashington aglomeratsiyalarini o'z ichiga oluvchi **BosVash megalopolisi** hammasi bo'lib, 40 aglomeratsiyani o'z ichiga oluvchi umumiy maydoni 170 000 km² ni tashkil etgan hududga aylangan edi. BoshVash hammasi bo'lib 500 ga yaqin shaharlardan tashkil topib, AQSh ning 3 foiz hududini qamrab olgan holda, mamlakatning 27 foiz sanoat mahsulotlari ishlab chiqaradi.³⁶

³⁶ Мерфи Р. Американский город. Пер. с англ. М.: Прогресс, 1972. – стр. 317 .

Boshqa megalopolis – **CHIPITS** esa, Amerikadagi Buyuk Ko‘llarning janubiy qismida shakllanib, o‘z ichiga Chikago, Pittsburg, Klivlend, Detroyt va boshqalar (35 aglomeratsiya) ni olgan holda, umumiy hududi 160 000 km² ga yetadi. Aholisi esa, umumiy holda 35 mln. dan oshgan. Bu megalopolis aholisining asosiy qismini eng katta aglomeratsiyalar – Toronto hamda Kanada tashkil etadi.

Mamlakatdagi eng “yosh” megalopolis – **SanSan** esa, Kaliforniyada joylashgan bo‘lib, u Katta Kaliforniya vodiysida joylashgan San-Fransiskodan zanjir shaklida boshlanib, Los-Anjelesga, bu yerdan to San-Diegogacha yetadi va o‘z ichiga 20 mln.³⁷ aholini qamrab olgan katta sanoatlashgan hududga aylangan. Bu uch katta megalopolis aholisi AQSh aholisining ½ qismini tashkil etadi.³⁸

Megalopolislar G‘arbiy Yevropada ham shakllanib, ular tabiiyki, aholisi soni kamligi, uning markazlashuvi jihatidan boshqa AQSh hamda Yaponiyadagi megalopolislardan ajralib tursada, bu mintaqada ham Angliya hamda Reyn megalopolislari tarkib topgan. Agar, Angliya megalopolisi London, Birmingem, Liverpul, Manchester va boshqa aglomeratsiyalardan tarkib topgan bo‘lsa, Reyn megalopolisida asosiy rolni Niderlandiyadagi Ranstad “halqa”si, Germaniyadagi Reyn-Rur, Reyn-Mayn kabi aglomeratsiyalar o‘ynaydi. Har ikki megalopolis o‘ttiztadan aglomeratsiyani o‘z ichiga olib, 50 000 km.² maydondagi 30-35 mln. kishini qamrab oladi.

O‘z alohida xususiyatlariga ega bo‘lgan urbanizatsiyalashgan megalopolis tipidagi mintaqa 1980-1990-yillarda Xitoy janubida ham shakllanib, uning markazini erkin iqtisodiy mintaq – Shenchjen 3.3 mln. kishilik aholisi bilan tashkil etadi. Bu megalopolis tipidagi mintaq 1995-yilda o‘rganib chiqilib, unga nafaqat, markaz hisoblanuvchi 3.3 mln. kishilik Shenchjen, balki 5.6 mln. kishilik Gonkong, 1 mln. aholini o‘z ichiga oluvchi

³⁷ Whitepaper on Local Public Finance 2012, Ministry of Internal Affairs and Communications

³⁸ ARUP and Volterra 2011, “Understanding the transport infrastructure requirements to deliver growth in England’s Core Cities, Core Cities Network”

Chxujay (Makao yonida joylashgan) va Janubiy Xitoyning eng yirik aglomeratsiyasi hisoblangan Guanjou 4 mln. dan ortiq aholisi bilan kirishi aniq qayd etildi. XXI asrda bu yerda 30 mln. aholini qamrab olgan yirik megalopolis shakllanishi kuzatilmoqda.

Shanxay asosida joylashgan Yanszi Oltin Uchburchagi Xitoyning sharqiy qismida joylashgan bo'lib, u mamlakatning eng rivojlangan qismidan biri hisoblanadi. Ushbu hududi 99600 km² ga yetuvchi ushbu aglomeratsiyalashgan mintqa umuman 80 mln., shahar aholisi bo'yicha 50 mln. kishini qamrab olgan.

Shuningdek, hozirgi kunda nafaqat, rivojlangan mamlakatlarda, balki, rivojlanayotgan mamlakatlarda ham tashkil topib, megalopolislar yadrosi sifatida nisbatan tez sur'atlarda o'sayotgan aglomeratsiyalar safiga Braziliyadagi San-Paulu-Rio-de-Janeyro-Belu-Orizonte, Misrdagi Qohira-Aleksandriya, Hindiston Damodar vodiysidagi Kalkutta-Asansol aglomeratsiyalarini ham kiritishimiz mumkin.³⁹

Aholisi soni bo'yicha esa, dunyodagi eng yirik megalopolis – Tokaydo Yaponiyaning Tinch okean qirg'og'ida joylashgan. Bu Tinch okean bo'yida joylashgan sanoat hududi mamlakatda ishlab chiqarilgan sanoat mahsulotlarining deyarli 2/3 qismini ishlab chiqaradi.

1-bob bo'yicha xulosalar

Xulosa qilib shuni aytishimiz mumkinki, davrlar mobaynida turli mamlakatlarda aholi, uning demografik rivojlanishi turlicha taraqqiy etib borgan va ularning demografik rivojlanish ko'rsatkichlari ham shunga mos ravishda o'zgarganligini ko'rishimiz mumkin. Shuningdek, aholining migratsiyasiga doir sifatlarni tahlil qiladigan bo'lsak, aholi migratsiyasi oqimi davrlar mobaynida texnik ta'minoti va yashash uchun qulayligi yuqori bo'lgan, hududiy jihatdan taqqoslaganda, daromad manbayi nisbatan ko'p bo'lgan hududlarga intilishi kabi sifatlar XXI asrning boshlariga kelib, rivojlangan mamlakatlarda aholining

³⁹ 2012 World Population Data Sheet. Population Reference Bureau

shaharlarga emas, balki, yashash uchun qulayligi mavjud, ekologik qulay hududlarga ko'chib o'tishiga o'zgarganligi kuzatilgan. Bu holning hozirda rivojlanayotgan mamlakatlarda ishlash uchun shaharlar, yashash bir qator iqtisodiy-ijtimoiy, ekologik sabablarga ko'ra shaharlar atrofi tanlanayotgani, natijada, shaharlardan ko'ra ko'proq shahar atrofi hududlarda aholining mujassamlashib borayotganligini ko'rishimiz mumkin. Bu esa o'z navbatida, aholining turmush sifatiga o'zgacha baho berayotganligi, nafaqat, iqtisodiy, balki, boshqa turmush darajasi ko'rsatkichlariga ham alohida ahamiyat berayotganligini ko'rsatadi.

Shu tarzda aholining mamlakatning alohida hududlarda iqtisodiy-ijtimoiy, ekologik, ilmiy-texnik sabablarga ko'ra to'planishi keyinchalik, teskari omil sifatida mazkur xususiyatlarning yanada rivojlanishiga, oqibatda, bu jarayonlar aholini yanada ayni shu hududlarga jalb etilishiga olib keladi. Natijada, kichik hududlarda mamlakatning o'sish qutblari sifatida paydo bo'lgan markazlarning rivojlanib borib, katta shaharlarga aylanishi kuzatiladi. Ba'zi mamlakatlarda majburiy, ba'zi mamlakatlarda iqtisodiy loyihalarning amalga oshirilishi tufayli ularning soni mamlakat miqyosida ko'payishi, rivojlanish tendensiyalari tezlashishi natijasida ularning o'z hududlari chegaralaridan chiqib, bir-biriga qo'shilib ketishi, buning oqibatida mamlakatda yirik iqtisodiy-demografik rivojlangan hududlar – megalopolislarning vujudga kelishi dunyo tajribalaridan ham ma'lum. Dunyo miqyosida bu kabi urbanizatsiyalashgan hududlardagi o'zgarishlar oqibatida mamlakatdagi ishlab chiqarish kuchlarining bir hududda to'planishi, mintaqaviy nomutanosibliklar kelib chiqishi kuzatiladi. Aholining yashash sharoitiga bo'lgan talablarining ortib, o'zgarib borishi aynan mazkur hududlarda o'zgaruvchan aholi talablari hamda ehtiyojlariga javob bera oluvchi sharoitlar yaratilishiga, oqibatda, aholining mamlakat bo'yicha tekis taqsimlanish omillari o'zgarishi, ichki hududiy mutanosiblikning buzilishi, keyinchalik bu holat boshqa hududlardan aholi ichki migratsiya oqimining kuchayishiga sabab bo'lmoqda. Aholining o'ziga mos hududda yashash talablari qanchalik o'zgarib bormasin, shaharlardagi mavjud ilmiy-texnik imkoniyatlar,

taraqqiyot darajasi shunga mos yechimlarni taqdim etadi. Bu esa zanjir reaksiyasini keltirib chiqarib, har qanday holda ham aholining shaharlarga tortilishini keltirib chiqarishda davom etadi.

II BOB YAPONIYA YIRIK VA O‘RTA SHAHARLARI DEMOGRAFIK RIVOJLANISH XUSUSIYATLARI

2.1 Yaponiya aholisining o‘sishi va urbanizatsiya jarayonlarining rivojlanishi

Sharq mamlakatlari orasida Yaponiya rivojlangan mamlakatlardan biri bo‘lgani holda, ularga xos bo‘lmagan demografik holat – tabiiy o‘shning pasayishi, aholi sonining turg‘unligi, aholi yosh tarkibida qariyalar sonining ortishini ko‘rishimiz mumkin. Tahlillar shuni ko‘rsatadiki, aholi soni 2004-yilgacha o‘sh holatlarini ko‘rsatgan bo‘lsa, 2005-yildan boshlab raqamlarda uning tushib borayotganligini, migratsiya hisobiga ham ko‘paymayotganini ko‘rish mumkin. 2006-yildan boshlab Yaponiya aholisi sonida o‘sh ko‘rsatkichlari deyarli yo‘qligi qayd etilgan.

2.1.1-jadval.


2000-2014-yillarda Yaponiya aholisi soni dinamikasi⁴⁰

Yillar	Yaponiya umumiy aholi soni (ming kishi)		Yapon millatiga oid aholi soni (ming kishi)	
	Mazkur yilda	Oldingi yilga nisbatan saldosi	Mazkur yilda	Oldingi yilga nisbatan saldosi
2000	126 926	-	125 613	-

⁴⁰Statistical Survey Department, Statistics Bureau, Ministry of Internal Affairs and Communications ma’lumoti bo’yicha muallif tomonidan hisoblangan.

2001	127 316	+ 0.3	125 930	+ 0.3
2002	127 486	+ 0.1	126 053	0.0
2003	127 694	+ 0.3	126 206	+ 0.1
2004	127 787	+ 0.1	126 266	+0.04
2005	127 768	-0.01	126 205	-0.01
2006	127 901	+ 0.1	126 286	0.0
2007	128 033	+ 0.1	126 347	0.0
2008	128 084	0.0	126 340	-0.01
2009	128 032	-0.01	126 343	0.0
2010	128 057	0.0	126 382	0.0
2011	127 770	-0.2	126 117	-0.2
2012	127 512	-0.2	125 933	-0.15
2013	127 340	-0.2	125 687	-0.19
2014	127 122	-0.2	125 527	-0.12

Aholining bunday tezlik bilan kamayishiga ta'sir etuvchi omillar sifatida eng yiriklari iqtisodiy turmush sharoitining og'irlashuvi, farzandlarga sarflanuvchi xarajatlarning tobora ko'payib borishi, shuningdek, ularga sarflanuvchi vaqtning ham doimiy ravishda ish yoki dam olish vaqtidan ajratilishi, aholi orasida erkin yashashni ma'qul ko'ruvchi aholi soni ortib borishi kabilarni ko'rsatishimiz mumkin.




2.1.1-rasm. 1950-2050-yillarda Yaponiya aholi yosh-jins tarkibining o'zgarishi⁴¹

⁴¹ Manba: Statistics Information Department, Minister's Secretariat, Ministry of Health, Labour and Welfare.

Aholining tabiiy takror barpo bo'lishi esa 1990-yillardayoq minimal darajasidan ham pastroq ko'rsatkichlarni ko'rsatgan edi. Prognozlarga ko'ra, bu tendensiya saqlanib qoladigan bo'lsa, 2025-yilga borib, Yaponiya aholisi 119.8 mln. kishini tashkil etadi. 2050-yilga kelib esa, 95.5 mln. kishiga tushib qoladi. Bu 2012-yilga nisbatan 0.7 barobar kam ekanligini bildiradi.⁴² Dunyoda 70 dan ortiq tug'ilish umumiy koeffitsiyenti 2.1 dan past bo'lgan mamlakatlar orasida Yaponiya ham mavjud bo'lib, mamlakatda bu ko'rsatkich 1.21 ga teng, ya'ni tug'ish yoshidagi har bir ayolga minimal ko'rsatkich 2.1 bo'lishiga qaramay, Yaponiyada 1.21 ni tashkil etmoqda.⁴³ Bu holat depopulyatsiya jarayoni yuz berayotganini yaqqol ko'rsatib turadi.

Yaponiyada 1880-yildan to 1917-yilgacha (1-jahon urushi davrigacha) aholining yiliga o'rtacha 700 000 kishidan ko'payib borgani qayd etilgan bo'lsa, bo'lsa, 1920-yilga kelib, urush oqibatlari, iqtisodiy tanglik tufayli aholi o'sishi sekinlashganini ko'rishimiz mumkin. Bu tendensiya 1920-22-yillardan keyin yana tezlashib, o'zining avvalgi sur'atiga qaytdi va 1960-yillar boshi 70-yillarning oxirlariga borib tabiiy o'sishda eng yuqori daraja qayd etildi.




⁴² 2012 World Population Data Sheet. Population Reference Bureau, <http://www.prb.org>

⁴³ Manba: Statistics Information Department, Minister's Secretariat, Ministry of Health, Labour and Welfare.

2.1.2-rasm. 1995-2012-yillarda Yaponiyada umumiy aholi soni o'sishi (ming kishi hisobida)⁴⁴

Yaponiyada 2012-yilda o'lim darajasi 10‰ ni tashkil etib, o'rtacha va kutilayotgan umr uzoqligi bo'yicha dunyoda yetakchi o'rinlarni egallaydi. Yaponiyada shaharlar urbanizatsiya darajasi, hududiy tarixiy, iqtisodiy rivojlanish kabi ma'lum qonunlarga ko'ra tartibga solinib, Yaponiya hududiy qonunchiligining tarixi XIX asr oxirlariga borib taqaladi.

1920-yillardan boshlab aholining qishloq joylardan shahar hududlariga tinimsiz oqimi kuzatila boshlandi. Yaponiya hududlari orasida ayniqsa, Tokio va Osaka Metropolitan Hududiga yarim asr davomida ichki immigratsiyaning kuchliligi kuzatilgan.



2.1.3-rasm. Yaponiya aholi soni dinamikasi bashorati (ming kishi)⁴⁵


Yaponiyada shahar aholisi soni qishloq aholisi soniga nisbatan yuqoriroq ulushga ega bo'lishi esa 1950-yillarga to'g'ri keladi. Mazkur mamlakatda urbanizatsiya darajasining yuqori bo'lishiga bir tomondan aholining yaxshi

⁴⁴ Manba: Statistics Bureau, Ministry of Internal Affairs and Communications, "Population Census"

⁴⁵ National Institute of Population and Social Security Research.

turmush sharoitlari barpo etilgan hududlarda yashashga intilishi, ikkinchi tomondan hukumatning ham urbanizatsiya darajasini oshirishga ko'rsatgan bilvosita ta'siri katta ahamiyatga ega bo'lib hisoblanadi.

Ya'ni, bir necha yillar davomida hukumat tomonidan megapolislardan qochish emas, ularga peshvoz chiqish zarur degan shior ostida olib borilgan ishlar o'z natijasini berib, ko'p sonli aholining kichik hududda to'planishiga, urbanizatsiya darajasi keskin oshib ketishiga sabab bo'lgan. Xususan, 1878-yildan Gun, Ku, Cho, Son – “Okrug, Tuman, Shaharcha va Qishloqlarni Tashkil Etish haqidagi Qonun” amalga oshirilib, aholisi boshqa hududlarga nisbatan ko'p bo'lgan mintaqalar Sanfu-Goko – uch prefektura va besh port iborat mintaqalar sifatida tashkil etilgan. 1889-yilda esa “Uch shahar Istisno” loyihasi, 1888-yili qabul qilingan “Munisipal tashkillashtirish Akti” orqali hozirda amalda bo'lgan shahar, shaharchalar va qishloqlar tashkillashtirish mexanizmlari hamda ularning mavqei belgilab qo'yilgan. Jumladan, ushbu Aktda ko'rsatib o'tilgan buyruqqa mos ravishda tumanlar shaharga aylantirilib, aholisi soni 25 000 kishidan ortiq bo'lgan urbanistik hududlar okruglardan ajratilib, ularning barchasiga shahar maqomi berildi.




2.1.4-rasm. 1920-2013-yillarda Yaponiyada urbanizatsiya darajasi dinamikasi (foizlarda) ⁴⁶

⁴⁶ Manba: Statistical Survey Department, Statistics Bureau, Ministry of Internal Affairs and Communications

Jumladan, “Uch Shahar Istisno” loyihasi amalga tatbiq etilgunga qadar Tokio shahrining biznes yuritish, sanitariya-gigiyena, o‘t o‘chirish va transport tizimini shakllantirish kabi ba’zi masalalari butunlay markaziy hokimiyat qo‘lida bo‘lgan bo‘lsa, loyiha ishga tushgandan so‘ng boshqa yirik shaharlar ham markaziy hukumat tomonidan nazorat qilina boshlagan. Bu hududlarda istiqomat qilayotgan aholi soni nihoyatda ko‘p bo‘lganligi shunday qarorlar qabul qilishga majbur etgan.

1919-yili “Mamlakat shahar qismlarini tadqiq etish Qonuni” va “Shahar infrastrukturasini rivojlantirish Qonuni” kabi hujjatlar qabul qilinganligi poytaxtga, shu bilan birga urbanizatsiyalashgan hududlarga aholining to‘planishini kuchaytirib yuborgan. Bu tendensiya II jahon urushi tufayli salbiy ko‘rinishga ega bo‘lgan bo‘lsada, urushdan keyingi yillarda avvalgidanda tezlashganini quyida ko‘rishimiz mumkin.



2.1.5-rasm. 1898-2005-yillarda Yaponiya aholisi, qishloq hamda shahar aholisi soni dinamikasi⁴⁷

2004-2005-yillargacha yirik shaharlarga aholi oqimi kuchli ekanligi kuzatilgan bo‘lsa, shu davrdan boshlab Tokio, Osaka, Nagoya kabi yirik markazlarga intilish asta-sekin kamayib borgan. Bu shaharlarga aholi oqimining kuchli bo‘lishishiga 1922-yilda qabul qilingan loyihaga ko‘ra mazkur hududlarni

⁴⁷ Manba: Statistical Survey Department, Statistics Bureau, Ministry of Internal Affairs and Communications

o‘z ichiga qamrab oluvchi 6 ta katta shahar alohida ajratib olinib, ularning boshqaruvida yangi usullarning sinab ko‘rilishi ham sabab bo‘lgan. Mazkur olti yirik shaharning alohida ajratib olinishiga sabab aholi soni, iqtisodiy rivojlanish darajasi, ma‘muriy hajmi va boshqalarga ko‘ra shaharlarga nisbatan prefekturalarga ko‘proq o‘xshar edi. Ulardagi demografik o‘zgarishlar esa maxsus Tokio Munisipal Tadqiqotlar Instituti kabi nodavlat tashkilotlar tomonidan kuzatib borilgan.

Ikkinchi jahon urushidan keyin okkupatsiya qilingan Yaponiya boshqaruvni markazdan joylarga taqsimlash nuqtai nazaridan qayta ko‘rib chiqila boshlandi. Birinchi bosqichda shahar hamda uning tarkibida alohida shahar-tumanlarni tashkillashtirish ishlari ko‘rib chiqilgan bo‘lsa, ikkinchi bosqichda yangi “Yaponiya mahalliy o‘z-o‘zini boshqarish Qonuni” ishlab chiqildi. Bu qonunning o‘ziga xos tomoni shunda ediki, unda aholisi 50 000 kishidan ortiq bo‘lgan shaharlar maxsus shaharlar sifatida e‘tirof etilgan edi.

2.1.2-jadval.

1920-2012-yillarda Yaponiyada yirik va o‘rta shaharlar soni hamda aholisi dinamikasi⁴⁸


Yillar	50,000-99,999		200,000-299,999		300,000-499,999		500,000-999,999		1,000,000 va undan ortiq	
	Shahar soni	Aholisi	Shahar soni	Aholisi	Shahar soni	Aholisi	Shahar soni	Aholisi	Shahar soni	Aholisi
1920	25	1 765	-	-	2	853	2	1 200	2	3 426
1930	46	3 098	3	703	-	-	4	3 080	2	4 524
1940	54	3 739	8	1 804	3	952	2	1 935	4	12 449
1950	86	6 020	14	3 343	4	1 367	2	1 717	4	9 474
1960	156	10 489	22	5 357	12	4 262	3	1 804	6	16 688
1970	176	12 012	42	10 078	21	7 890	7	4 562	8	20 856
1980	207	14 115	42	10 345	36	13 709	9	5 743	10	23 298
1990	219	15 244	38	9 260	44	16 849	10	6 383	11	25 296
2000	217	15 108	41	10 131	43	16 728	11	6 810	12	26 852
2012	266	18 567	39	9 775	43	16 691	17	11 641	12	28 827

⁴⁸ Statistical Survey Department, Statistics Bureau, Ministry of Internal Affairs and Communications ma‘lumotlari asosida muallif tomonidan tuzilgan.

Mamlakat taraqqiyoti yoʻlida eng avvalo, poytaxtlar alohida ahamiyatga ega ekanligini nazarda tutgan holda, ilk bora Yaponiya tajribasida poytaxtni rivojlantirish ishlari koʻzda tutilgan – “Poytaxt taraqqiyoti” nomli shaharlarni rejalashtirish loyihasi ishlab chiqilgan.

1968-yilda birinchi marta shaharlar va sanoatlashgan hududlarni qamrab oluvchi, ularda tartibga solishning yangi usullari orqali boshqaruvni yangicha olib borishni taqozo etuvchi “Mintaqalashtirish tizimi” nomli yangi shaharlarni rejalashtirish qonuni amalga tatbiq etildi. Mazkur qonunning shu davrgacha boʻlgan amaliyotlardan farqli oʻziga xos jihatlari shulardan iborat ediki, yerdan foydalanish yangicha, masʼuliyatli koʻrinishda olib borilgan.

Yuqoridagi “Poytaxt taraqqiyoti” nomli shaharlarni rejalashtirish loyihasi va “Shahar infrastrukturasini rivojlantirish Qonuni” kabi amaliyotga tatbiq etilgan qonunchilikning natijasini Tokio shahri misolida yaqqol koʻrishimiz mumkin.



2.1.6-rasm. 1898-2005-yillarda Yaponiyaning eng yirik shaharlari aholisi dinamikasi⁴⁹

⁴⁹ Yaponiya Ichki Ishlar va Aloqa Vazirligi yillik statistik toʻplami maʼlumotlari asosida muallif tomonidan ishlangan.


Bu vaqtda Yaponiyada amalda bo'lgan "Urbanistik rejalashtirilgan hududlar" loyihasi tarkibiga faqatgina urbanistik hududlar yoki uning atrofigina tegishli bo'lgan. Bu tarkibga boshqa hech qaysi hudud kiritilmagan.

2.1.3-jadval.

Urbanistik rejalashtirilgan hududlarning Yaponiya iqtisodiyotiga ta'siri⁵⁰

	Maydoni (ming km ²)	Aholi (mln. kishi)	Shahar yoki shaharchalar soni
Jami (A)	377	123	3236
Urbanistik rejalashtirilgan hududlar (B)	95	113	1960
Urbanistik rejalashtirilgan hududlarning Yaponiyada tutgan o'ri (B/A)	25.2%	92.2%	60.6%

Urbanistik rejalashtirish loyihasini yaratishda asosan, quyidagilarga e'tibor qaratilgan: mintaqalashtirish tizimini yaratish va uni yo'lga qo'yish, Yerlarni Rivojlantirishga Ruxsat Berish Tizimini ishlab chiqish hamda uni ishga tushirish, urbanistik rejalashtirish loyihalarini amaliyotda qo'llash.




2.1.7-rasm. Yaponiya shaharcha va qishloqlari, shaharlari aholisi soni dinamikasi (foizlarda) ⁵¹

⁵⁰ Kenichi W., Japanese Experiences in Urbanization & Urban Planning System in Japan, Indonesia, Jakarta, 2001

⁵¹ Statistical Survey Department, Statistics Bureau, Ministry of Internal Affairs and Communications

Hozirda mamlakat aholisining deyarli 9/10 qismi shaharlarda istiqomat qilib, bu esa hozirda Yaponiya iqtisodiyoti, demografik hamda ijtimoiy hayoti qay darajada shaharlarga bog'liq bo'lib qolganini, shaharlar mamlakat iqtisodiyotining ajralmas bir bo'lagiga aylanganligining yaqqol dalilidir.




2.1.8-rasm. 1920-2012-yillarda Yaponiyada yirik va o'rta shaharlar rivojlanishi va aholisi soni dinamikasi⁵²

Shuni ham ta'kidlab o'tish kerakki, Yaponiyada shaharlarni tasniflashning o'ziga xos usulidan foydalaniladi. Bunda nafaqat, shaharlarning mamlakat iqtisodiyotida tutgan o'rni, balki tarixiy iqtisodiy, demografik, strategik ahamiyatiga ham alohida e'tibor beriladi.

Shuningdek, Yaponiya urbanizatsiyalashgan hududlari orasida eng katta rolni Tinch okean sanoat mintaqasida joylashgan aglomeratsiyalar o'ynab, mamlakatning urbanizatsiya darajasi eng yuqori bo'lgan, sanoatlashgan hududlarini o'z ichiga olgan, aholi soni jihatidan, nafaqat, Yaponiyada, balki dunyoda birinchi o'rinni egallagan Tokaydo megalopolisini tashkil etadi.

⁵² Statistical Survey Department, Statistics Bureau, Ministry of Internal Affairs and Communications of Japan ma'lumotlari asosida muallif tomonidan ishlangan



2.1.9-rasm. 1920-2012-yillarda Yaponiyada yirik shaharlar rivojlanishi va aholisi soni dinamikasi⁵³

Mazkur megalopolis taxminan 70 mln. kishini o‘z ichiga qamrab oladi. Bu katta hajmli urbanizatsiyalashgan mintaqa bir necha yuz kilometrda o‘z ichiga mamlakatning eng yirik aglomeratsiyalari – Tokio, Yokogama, Kavasaki kabilardan iborat bo‘lib, Osakadan Kobe orqali Kiotogacha cho‘ziladi. Mintaqa shu bilan birgalikda unga tegishli poytaxt metropolitenli hududi – Keyxin aholisi bilan 30 mln. aholini qamrab olgan holda, Nagoya, Kioto, Osaka, Kobe va boshqalarni qo‘shib hisoblaganda, 25 nisbatan kichikroq aglomeratsiyalar asosida shakllangan. Tokaydo megalopolisida mamlakat aholisining deyarli 60 foizi to‘plangan bo‘lib, bu yerda mamlakat umumiy sanoat mahsulotining 2/3qismi ishlab chiqariladi.⁵⁴

Mazkur Tokaydo megalopolisining yadrosini Katta Tokio deb nomlanuvchi Yaponiyaning Tokio poytaxt atrofida aglomeratsiya bo‘lib shakllangan hududi tashkil etadi. Katta Tokio Yaponiyaning Tokio poytaxt okrugi va Chiba prefekturasining katta qismini birlashtirib, o‘z ichiga oluvchi, Kanto mintaqasida joylashgan yirik urbanizatsiyalashgan hudud bo‘lib hisoblanadi.

⁵³ Statistical Survey Department, Statistics Bureau, Ministry of Internal Affairs and Communications of Japan

⁵⁴ [http:// www.idcj.or.jp](http://www.idcj.or.jp)

Ikkinchi jahon urushi davomida yangi “Tokio Metropolitan Hududini tashkil etish Akti” amaliyotga tatbiq etila boshlandi: Tokio o‘rnida prefektura va shahar qo‘shib yuborilib, bir butun hudud tashkil etildi. Tokio shahri o‘z vaqtida hukumat tomonidan maxsus shahar sifatida tan olinishi rejalashtirilgan edi. Shu bilan birga ular o‘z yer maydoni, nomini saqlab qoldi.

1937-yil Tokio shahri hududi yana bo‘linib, yangi 20 ta tuman oldingi maxsus 15 ta tumanga qo‘shildi (fanda Katta Tokio shaharlari deb ham yuritiladi); 1947-yilda ular soni 22 tagacha qisqartirildi va hozirda ulardan biri mustaqil tuman-shahar sifatida ajralib chiqib, maxsus tumanlar jami 23 tani tashkil etadi.

Tokio turli yillarda turlicha kattalik, aholi soniga ega bo‘lib, vaqt o‘tishi bilan aholisi ham, maydoni ham kattalashib, atrofidagi hududlarni qamrab olishda davom etgan.

Xususan, mintaqa **Tokio shahrining** o‘zini qamrab olgani holda aholisi 8 949 447 kishini, maydoni esa 621.9 km² ni tashkil etadi. Aholi zichligi esa bir km² ga 14 390 kishiga yetadi. Yaponiya ma’muriy-hududiy bo‘linishida ham eng asosiy muammo – Tokio konglomerati hamda bu konglomerat atrofida joylashgan “yotoq tumanlar” hisoblanadi. U Tokio poytaxt hududini o‘z ichiga qamrab olsa, **poytaxt okrugi** deb nomlanadi va aholisi 13 047 446 kishini tashkil etadi. Aholi zichligi esa yanada kattaroq ko‘rsatkichlarni ko‘rsatadi – bir km² ga taxminan 7217 kishi to‘g‘ri keladi. **Katta Tokio** ishchilari istiqomat qiluvchi hududdan esa Tokio atrofidagi 23 maxsus tuman hamda barcha munisipalitetlardan kamida 10 foizli aholi ishga qatnovi yo‘lga qo‘yilgan bo‘lib, Tokio Universiteti olimlari tomonidan hisoblab chiqilgan taxminiy raqamlarga ko‘ra, uning aholisi 31.7 mln. kishini tashkil etadi. **Okrug va uch prefektura** kabi bo‘linish tez-tez qo‘llanilib, bu hududga markazdan biroz uzoqda, prefektura chegarasida joylashgan, asosan, Gunma va Ibarakiga yaqin bo‘lgan alohida tumanlar, aholisi kam sonli kichik uyezdlar, shuningdek, alohida orollar ham kiritiladi. Bu hudud orollarni ham o‘z ichiga qamrab olganligi tufayli aholisi sonida katta o‘zgarishlar kuzatilmaydi – 35 623 327 kishi. **Kanto okrugi**

Tokio hududi kabi bo‘linish Yaponiyada, odatda, eng ko‘p ishlatiluvchi rayonlashtirishlardan biri bo‘lib hisoblanib, barcha munisipalitetlarni o‘z ichiga oladi. Hudud aholisi oldingisi bilan unchalik katta farq qilmaydi. **Kengaytirilgan poytaxt okrugi** kabi nomlanish esa Shinjukudagi Tokio poytaxt hukumat binosidan 50-70 km uzoqlikda joylashgan chegarada yotuvchi barcha munisipalitetlarni o‘z ichiga olib, chegara shahar atrofiga qatnovchi transport hisobiga kengayib bormoqda. 50 km uzoqlikda aholi soni taxminan 31 505 000 kishini tashkil etsa, 70 km uzoqlikda bu raqamlar 35 097 000 ga yetadi. **Kanto rayoni** yirik mintaqa bo‘lib hisoblanib, ko‘p hollarda geografik bo‘linish sifatida ishlatiladi. U o‘z ichiga ko‘plab qishloq tumanlarini ham oladi. Aholi soni taxminan 42 607 000 kishini tashkil etib, hudud maydoni 32 423 km² ga yetadi. **Poytaxt mintaqasi hududi** esa 1956-yilgi “Poytaxt mintaqasini planlashtirish Akti” bilan aniqlashtirilgan. U Kanto va Yamanashi prefekturasining katta qismini egallaydi. Aholi soni 43 470 000 kishini tashkil etib, hududi 36 889 km² ga yetadi.

Tokio hududida aholi soni ko‘pligi, doimiy aholining shaharga sig‘maganligi, shaharga qatnab ishlovchi aholi orasida poytaxt mintaqada turarjoy, qatnov, iqtisodiy xarajatlar yuqoriligi sababli Tokio atrofida “yotoq shaharlar” deb nomlanuvchi tumanlar tashkil etilgan. Bu tumanlarning yuzaga kelishida, asosan, shaharga migratsiya darajasi yuqoriligi katta rol o‘ynagan. Keyinchalik aholining tobora ko‘payib borishi bu tuman-shaharlar boshqaruvida katta muammolarni keltirib chiqargan.

2.1.4-jadval.


Tokio Metropolitan Hududi aholisi (2012-yil)⁵⁵

Hududlar	Aholisi	Maydoni (km ²)	Aholi zichligi (1 km ²)
Tokio poytaxt hududi	13 053 011	2 187, 65	5 967
Maxsus tumanlar	8 849 389	621, 98	14 228
Shahar hududi	4 117 571	783,93	5 252
Qishloq hududi	58 555	375,96	156

⁵⁵ Tokio Metropolitan Hukumati rasmiy web-sayti ma’lumotlari asosida muallif tomonidan ishlangan

Orol hududi	27 496	405,78	68
--------------------	--------	--------	----

“Yaponiya mahalliy o‘z-o‘zini boshqarish Qonuni” Tokioning maxsus tumanlarini boshqaruv darajasiga ko‘ra shahar mavqeiga ko‘tarib qo‘ydi. Amaliy ahamiyatiga ko‘ra, maxsus tumanlar o‘z-o‘zini boshqaruvchi hokimiyatga ehtiyoj sezar edi, ammo, maxsus tumanlar Tokio tomondan boshqarilar edi.



2.1.10-rasm. Tokio hududiy taqsimoti⁵⁶

Natijada, Tokio poytaxt shahri va maxsus tumanlar hokimiyatlari o‘rtasida boshqaruv imtiyozlari, moliya ishlari, kadrlar borasida muammolar kelib chiqq boshladi. Bu esa o‘z navbatida Tokio hamda maxsus tumanlar o‘rtasidagi boshqaruvni osonlashtirish, shu bilan birga samaraliroq olib borishni talab etar edi.

Shuningdek, shaharning 23 maxsus tuman tizimining faoliyati bilan boshqa oddiy prefekturalar, shaharlar, shaharchalar hamda qishloqlar aloqalari tizimi o‘rtasida farqlar mavjud. Masalan, Tama deb nomlanuvchi hududning o‘t o‘chirish tizimi Tokio shahri o‘t o‘chirish bo‘limiga tegishli bo‘lib, u boshqa oddiy shaharlarda munisipalitet majburiyati bo‘lib hisoblanadi; xuddi shunday

⁵⁶ Tokio Metropolitan Hukumati rasmiy web-sayti ma’lumotlariga asoslangan holda muallif tomonidan hisoblangan

ichimlik suvi bilan ta'minlash ham Tokio Metropolitan Hududi Ichimlik Suvi bilan ta'minlash bo'limi tomonidan amalga oshiriladi.

Hozirgi vaqtda poytaxt-shaharga metropoliten hudud sifatida quyidagi imtiyozlar taqdim etilgan:

- Urbanistik rejalashtirish qarorlarini qabul qilish ("Shaharchalarni rejalashtirish qonuni")
- Ichimlik suvi bilan ta'minlash, boshqarish va o'rnatish oid ishlarni amalga oshirish ("Ichimlik suvi bilan ta'minlash Qonuni")
- Oqova suvlarni boshqarish va o'rnatishga oid imtiyoz ("Oqova suvlar haqidagi Qonun")
- Infeksion kasalliklardan himoya qilish va oldini olishga oid imtiyoz ("Fuqarolarni infeksiyon kasalliklardan tibbiy ehtiyot qilish va infeksiyon kasalliklarning oldini Akti")
- O't o'chirish ishlarini boshqarish imkoni ("O't o'chirishni tashkillashtirish qonuni")

Tokio shahri hamda maxsus tumanlar o'rtasidagi, shuningdek, maxsus tumanlararo moliyaviy resurslarni boshqarish bo'yicha ma'lum muvozanatga erishish uchun Shahar Quyi Palatasi tomonidan maxsus tumanlarga mo'ljallangan, ularning avtonomligi, funksiyalarini to'liq ishlashini ta'minlashga yo'naltirilgan buyruq asosida maxsus tumanlarga grant ajratadi ("Yaponiya mahalliy o'z-o'zini boshqarish Qonuni 282-modda). Bu uch turdagi soliqdan shakllantirilgan mablag' maxsus tumanlarga shahar bilan bir qatorda tengma-teng ish yuritish kafolati bo'lib xizmat qiladi. ("Yaponiya o'z-o'zini mahalliy boshqarish Qonuni" 282-modda 2-qism). Bu holat keyinchalik yomon oqibatlarga olib kelmasligi uchun har bir maxsus tumanning talab qilinishi mumkin eng yuqori darajadagi va eng kam darajadagi mablag' miqdori hisoblab chiqilgan.

2.1.5-jadval.

Tokio 23 maxsus tumanining yer maydoni va aholisi⁵⁷

Chiyoda	Taito	Itabashi	Suginami	Shibuya	Bunkyo
Chuo	Sumida	Nerima	Nakano	Arakawa	Meguro
Minato	Koto	Adachi	Toshima	Ota	Edogawa
Shinjuku	Shinagawa	Katsushika	Kita	Setagaya	
<i>Barcha yer maydoni</i>	621.98	<i>Aholisi</i>	8 637 000 (6.7%)		

Maxsus tumanlarga maxsus mahalliy ijtimoiy hududiy birliklar vazifasini bajarishi bilan bir qatorda katta shaharlar tizimining bir qismini tashkil etish mas'uliyati ham yuklatilgan. Chunki, bu maxsus tumanlar Tokio atrofida shakllanib, Tokioning “yotoq shaharlari” vazifasini o‘tab kelgan. Keyinchalik Tokiodan alohida tarzda rivojlanishni davom ettirib, hozirda Tokio “yotoq shaharlari” deb emas, balki, alohida rivojlangan maxsus hududlar sifatida qabul qilinadi. Tokio maxsus tumanlari boshqa hududlardan rivojlanish darajasi, aholi soni ko‘pligi, hozirgacha bu hududlardan Tokioga qatnovchi aholi sonining boshqa hududlarga nisbatan ancha yuqoriligi bilan ajralib turadi.


Asosiy urbanizatsiyalashgan mintaqa markazida (masalan, Tokio bekatidan 10 km uzoqlikda) 23 maxsus tuman joylashgan bo‘lib, ular avval shaharning bir butun tarkibida joylashgan deb hisoblangan bo‘lsa, keyinchalik alohida munisipalitet tarzida boshqarila boshlangan. Bu 23 tuman atrofida ko‘p sonli yo‘ldosh shaharlar mavjud bo‘lib, ular **Kokudou 16** deb nomlanuvchi magistral atrofida Tokioning markazidan 40 km uzoqlikda alohida ilmoqsimon ko‘rinishga ega bo‘lgan yagona urbanizatsiyalashgan hududni tashkil etadi. Bu ilmoqsimon hudud ichida Tokio qo‘ltiqbo‘yi sanoatlashgan hududi yoki Tinch okean sanoatlashgan mintaqasi mavjud.

Bu yuqori darajada urbanizatsiyalashgan hududlarda aholi soni ko‘pligi bilan birga, uning atrofidan ham ko‘p sonli aholi o‘qish yoki ishlash maqsadida kundalik qatnovni amalga oshiradi. Tabiiyki, bunday sharoitda turli muammolar – birinchi navbatda, transport muammolari kelib chiqadi. Ammo, hudud qancha


⁵⁷<http://www.titech.ac.jp>

aholini qamrab olgan bo'lsa ham, mazkur muammolar hudud kattaligiga, aholi soniga nisbatan xos bo'lmagan tarzda osonlik bilan, shuningdek, vaqtinchalik bilan hal etilgan.


Jumladan, Katta Tokio chegarasida ikki yirik aeroport – Xaneda va Narita joylashgan bo'lib, ularning birinchisi ichki reyslar uchun, ikkinchisi xalqaro aeroport hisoblanadi. Shuningdek, Chyofu, Xonda, Ibaraki aeroportlari hamda Tokio vertodromi faoliyat yuritadi.




2.1.11-rasm. Tokio shahri joylashuvi




2.1.12-rasm. Poytaxt okrugi




2.1.13-rasm. Okrug va uch prefektura



2.1.14-rasm. Kengaytirilgan poytaxt okrugi



2.1.15-rasm. Kanto hududi



2.1.16-rasm. Poytaxt okrugi⁵⁸

Katta Tokioda ichki va shahar atrofi qatnovida relsli transport – metropoliten, monorels, xususiy temir yo'l, tramvay – hammasi bo'lib, 136 alohida liniyali 1000-2000 bekatdan iborat nihoyatda katta hududni o'z ichiga qamrab oluvchi, intensiv foydalanishga mo'ljallangan transport vositalari mavjud. Yirik bekatlarda, ko'p sonli yerosti yo'llarida bir daqiqa ichida minglab passajirlarga xizmat ko'rsatiladi. Tokio bekatidan Shinjuku bekatigacha bo'lgan

⁵⁸<http://www.mhlw.go.jp>

masofaning o'zida bir necha kilometrli yerosti yo'llari mavjud bo'lib, 200 ga chiqish joylari qurilgan. Ba'zi bekatlarda bir vaqtning o'zida 8-12 tomonga chiqish yo'laklari, bir necha yerosti boshqa bekatlariga o'tish yo'llari tashkillashtirilgan. Bunday holatda nafaqat, chetdan kirib kelgan aholi, balki, Tokioning tubjoy aholisi ham yerosti transportlaridan foydalangan vaqtda xaritalar ishlatadi.

Oddiy avtoyo'l qurilganiga qaramay, tonggi tig'iz vaqt, bekatlarda kam to'xtaydigan transport vositalari uchun ham alohida avtomobil yo'li barpo etilgan bo'lib, qo'shimcha to'lov hisobiga ushbu yo'ldan foydalanish mumkin. Jumladan, Tokioda shyuto deb nomlanuvchi tezyurar avtoyo'lda harakatlanayotgan transportlar uchun ruxsat etilgan tezlik soatiga 100-180 km. ni tashkil etsa, oddiy avtomobil yo'llarida soatiga 40-60 km. dan oshishi ta'qiqlangan. Shyuto shahar atrofi hamda boshqa shaharlardan keluvchi barcha yo'llarni poytaxt mintaqasi bilan bog'laydi. Shuningdek, Tokio va Yokohama eng yirik dengiz portlari sifatida tanilgan.

Maxsus yotoq tumanlardan aholi mayatnikli migratsiyasi bilan birga hisoblaganda shaharlarga qatnovchi aholi soni ikki barobarga oshib ketadi va bu qatnov kunda ikki marta amalga oshirilgani sababli boshqa hududlardan shaharlarga ichki migratsiyaning yuqori ekanligi kuzatiladi. Yaponiyada keyingi yillarda shahar aholisining soni avvalgi tezlikda ko'paymayotgan bo'lsada, baribir mamlakat aholisi soni o'sishiga nisbatan ancha tez ekanligini ko'rishimiz mumkin.

Shuni ham ta'kidlab o'tish kerakki, bu ko'payish tabiiy o'sish yoki tug'ilish yuqoriligi evaziga emas, balki, mamlakat ichida harakatlanuvchi aholining harakat yo'nalishida qishloqlardan shaharlarga bo'lgan tendensiya hanuzgacha kam bo'lsada saqlanib qolganligi uchun shaharlarda aholi soni oshib bormoqda.

2.2 Yaponiya shaharlarining aholi soniga ko'ra guruhlanishi va ularning demografik ko'rsatkichlarga ta'siri

Yaponiya mahalliy hokimiyati hududiy, ma'muriy-siyosiy, demografik jihatdan aralash tarzda tashkil etilgan. Tasniflanish murakkabligi mamlakat iqtisodiyotida hududiy birliklardan imkon qadar samarali foydalanishga qulay sharoit yaratadi.

Hozirda esa hukumat mahalliy tizimida hududlarning quyidagicha tasniflanishi vujudga kelgan:


1.	Yaponiya mintaqalari	7.	Muhim shaharlar
2.	Yaponiya prefekturalari	8.	Shaharlar
3.	Yaponiya okruglari	9.	Tokio maxsus tumanlari
4.	Hukumat ahamiyatiga ega shaharlar	10.	Tuman shaharlar
5.	Uyezdlar	11.	Posyolkalar
6.	Markaziy shaharlar	12.	Qishloqlar

Mintaqalar, odatda, hududlarga, hududlar esa prefekturalarga bo'lib o'rganiladi. Hududlar rasmiy hujjatlashtirishda ishlatilmasada, prefekturalardan rasmiy masalalarda foydalanilganligi uchun rasman 47 administrativ birlikka bo'linishi tan olingan. Ular hukumat tomonidan **todoufukun** deb nomlanuvchi tizimga kiritilib, tizim poytaxt shahar – Tokio, Hokkaydo gubernatorligi, prefektura darajasiga tenglashtiriluvchi ikki shahar – Kioto va Osaka, shuningdek, 43 prefekturadan iborat. 1888-yil 47 ta birlik darajasiga tushirilgan prefekturalarni hozirda 10 tagacha kamaytirish loyihasi ko'rib chiqilmoqda.

Quyidagi chizma hozirda amalda bo'lgan, hukumatning mahalliy ma'muriy-hududiy boshqaruv tizimini ifodalaydi.

Prefekturalar keyingi darajada Hokkaydo okrugi, hukumat ahamiyatiga ega muhim shaharlar va uyezdlarga bo'linadi. Hokkaydo prefekturasida 14 okrug mavjud bo'lib, qolgan prefekturalar uchun uyezdlar administrativ birlik hisoblanadi. Mazkur orol Yaponiya boshqaruv markazidan uzoqda joylashganligi sababli faqatgina shu prefektura uchun okruglar tashkil etilgan. Ulardan keyingi o'rinda turuvchi hukumat ahamiyatiga ega shaharlar hisobiga aholisi 500 000 dan ortiq bo'lgan shaharlar kiritilsada, Tokio aholisi ularga

nisbatan 2-3 barobar ko‘p bo‘lsa ham ular qatoriga qo‘shilmaydi. Chunki, u shahar emas, shahar konglomerati hisoblanadi.



2.2.1-rasm.Yaponiya mahalliy ma'muriy-hududiy tasniflanishi⁵⁹

Uyezdlar esa hozirgi vaqtga kelib, nisbatan rivojlanmagan, yashil zonalarga yaqin, urbanizatsiya darajasi past bo‘lgan hududlar hisobidan ajratilib, 2007-yil aprel holatiga ko‘ra Yaponiyada 398 uyezd hisobga olingan. Ba’zi uyezdlarda aholi soni ko‘payganligi, ularning aksariyatida esa, aksincha aholining sezilarli darajada kamayib ketib, shahar yoki urbanizatsiyalashgan boshqa hududlarga qo‘shib yuborilganligi sababli ularning soni 2010-yilda esa ularning soni 377 taga o‘zgargan.

Bundan tashqari, mamlakatda munisipal darajadagi administrativ birliklar ham mavjud bo‘lib, ular avtonom tarzda keng qo‘llaniladi. Ular prefekturalarning markaziy shaharlari (markaziy shaharlar), muhim shaharlar,

⁵⁹ 総務省統計局統計調査部国勢統計課労働力人口統計室「労働力調査年報」

Tokioning 23 maxsus rayoni, shuningdek, posyolka va qishloqlar bo'lib hisoblanadi.⁶⁰

Hukumat ahamiyatiga ega shaharlar – Yaponiyaning muhim ma'muriy-huquqiy statusga ega bo'lgan, Yaponiya Vazirlar Mahkamasi tomonidan ishlab chiqilgan “Yaponiya mahalliy o'z-o'zini boshqarish Qonuni” ga binoan tartibga solib turiluvchi birligi bo'lib hisoblanadi. Bu kabi shaharlarning o'z-o'zini boshqarish organlari masalalari prefektura darajasida hal etiladi. O'z navbatida bu darajadagi shaharlar shahar tumanlariga bo'linib, bu darajadagi hududiy birliklarda ma'muriy darajadagi masalalar – ro'yxatga olish, tibbiy sug'urta kabilar ularning nazorati ostida amalga oshadi. 2010-yilning oxirlarida Yaponiyada 19 ta hukumat ahamiyatiga ega shahar mavjud bo'lib, mamlakatning deyarli 20 fozi aholisi ushbu turdagi shaharlarning doimiy ro'yxatda turuvchi aholisi hisoblanadi. Ular boshqa shaharlar va hududlardan 4-5 xil yo'nalishda boshqaruvning o'ziga xos alohida xususiyatlari bilan ajralib turadi: ma'muriy imtiyozlar, o'zini himoya qilish imtiyozlari, tumanlarni tashkillashtirish borasidagi ma'muriy imtiyozlar, moliyaviy hamda soliq imtiyozlari.

Mazkur shaharlar quyi palata vakillari tomonidan “Yaponiya mahalliy o'z-o'zini boshqarish Qonuni” ga ko'ra aniqlanadi: unga ko'ra shaharlar aholisi 500 000 kishidan ortiq bo'lishi lozim (“Yaponiya mahalliy o'z-o'zini boshqarish Qonuni” 252-modda 19-qism). Bu tizim Maxsus Shaharlar Tizimi o'rniga tashkil etilgan bo'lib, avvalgi besh shahar unga kiritilishi ko'zda tutilgan edi. Ammo, bir qancha mulohazalardan so'ng uning qaytadan yangi tashkil etilganligi asosida boshqa fikrlar ham kelib chiqa boshladi.

Jumladan, hukumat ahamiyatiga ega shaharlar tizimi tashkil etilgan vaqtda unga kiritilgan shaharlar faqatgina aholi soniga tayanib qabul qilinmagan.

⁶⁰<http://www.chuomitsui.jp>

2.2.1-jadval. Yaponiya shaharlariga berilgan imtiyozlar⁶¹

Hukumat ahamiyatiga ega shaharlar tomonidan boshqariluvchi “imtiyozlar” imtiyozlar	
Sog'liqni saqlash ishlarini boshqarish bo'yicha	bolalar uchun maslahatxonalar tashkil etish;
Shaharni rejalashtirish bo'yicha	prefektura yo'llarini nazorat qilish va tuzatish; sanoat chiqindilarini yo'qotish; savdo yoki yetkazib beruvchi korxonalarga oid qarorlar qabul qilish;
Shaharlarni rejalashtirishda	urbanistik taraqqiyot loyihalarini qarorlarini qabul qilish;
Jamoat boshqaruvi ishlari bo'yicha	rejalashtirilgan hududlarda shahar ichida yo'llar qurilishini boshqarish; shahar ichida joylashgan prefektura yo'llarini nazorat etish;
Ta'lim tizimi boshqaruvini yo'lga qo'yish bo'yicha	prefektura hukumati tomonidan haq to'lanuvchi o'qituvchilar sonini aniqlash, tarqatib yuborish va ko'paytirish;

Muhim shaharlar tomonidan boshqariluvchi “imtiyozlar”	
Sog'liqni saqlash ishlarini boshqarish bo'yicha	falaj odamlar qo'llanmalarini ishlab chiqish; onalar, bolalar va ajrashganlar uchun sog'liqni saqlash kreditlarini ajratish; qariyalar uylarini boquvchilar bilan ta'minlash va ularni nazorat qilish;
Shaharni rejalashtirish bo'yicha	reklamalarni qonunga ko'ra nazorat qilish ishlari;
Atrof-muhitni muhofaza qilish ishlarini boshqarish bo'yicha	dud, tutun hamda chang chiqaruvchi sanoat korxonalariga tozalovchi moslamalarni o'rnatish hamda ularni nazorat etish; maishiy hamda sanoat chiqindilarini yo'qotishga ruxsat berish;
Sog'liqni saqlash ishlarini yo'lga qo'yish bo'yicha	mahalliy aholi sog'lig'ini yaxshilash hamda saqlash ishlarni yo'lga qo'yish; oziq-ovqat ishlab chiqaruvchi korxonalarga ruxsatnomalar berish va boshqalar;

Markaziy shaharlar tomonidan boshqariluvchi “imtiyozlar”	
Shaharni rejalashtirish bo'yicha	urbanizatsiya hududi yoki urbanizatsiya nazorati ostidagi hududlarda rivojlantirish ishlarini olib borishga ruxsat berish; urbanistik rivojlantirish loyihalashtirilgan hududlarda qurilish ishlarini olib borishga ruxsat berish; shaharchalarni rivojlantirish ishlari amaliyotga tatbiq etilayotgan hududlarda qurilish olib borishga ruxsat berish; urbanistik qayta rivojlantirish ishlari amaliyotga qo'llanayotgan hududlarda qurilish ishlarini olib borishga ruxsat berish; yerlarni qayta yaroqli holatga keltirish fondida qatnashish ishlarini uyushtirish; yerlarni yaroqli holatga keltirish ishlari olib borilayotgan joylarda qurilish ishlarini olib borishga ruxsat berish; turarjoy hududlarini yaxshilash loyihasi amalga tatbiq etilayotgan hududlarda qurilishga ruxsat berish va boshqalar;
Atrof-muhitni muhofaza qilish ishlarini boshqarish bo'yicha	shovqin chegaralangan hududlarni barpo etish va uning me'yorlarini ishlab chiqish; havoni ifloslanatiruvchi moddalar bilan ifloslanganlik darajasi bo'yicha chegaralangan hududlarni ajratib olishni amalga tatbiq etish; tebranish chegaralariga ega hududlarni ajratib olish;

Oddiy shaharlar tomonidan boshqariluvchi “imtiyozlar”	
Sog'liqni saqlash ishlarini yo'lga qo'yish bo'yicha	sog'liqni saqlash tashkilotlarini barpo etish va ishlarini yuritish jamoat moliyaviy ko'maklashish ishlarini aniqlashtirish va amaliyotga tatbiq etish

⁶¹ CLAIR (Council of Local Authorities for International Relations (CLAIR)), Satoru Ohsugi, 2011 "Growth in Second Tier Cities - Urban Policy Lessons from Japan" briefing London on classes of Japanese cities

	ona va bola qo'llab-quvvatlash markazlarini ishga tushirish falaj bolalar sog'lig'ini saqlashga to'lovlar ajratish hamda zarur hujjatlarni yetkazib berish
--	--

Shaharcha va qishloqlar tomonidan boshqariluvchi "imtiyozlar"	
Sog'liqni saqlash ishlarini yo'lga qo'yish bo'yicha	milliy sog'liqni saqlashni sug'urtalash tizimi ishlarini olib borish;
Ta'lim tizimini boshqarish bo'yicha	boshlang'ich va o'rta maktablarni barpo etish va ularni boshqarish ishlari;
Jamoat ishlarini boshqarish bo'yicha	yo'llar qurish va ularni boshqarish;

Bu aniqlashtirishlar tarkibiga aholi soni, moliyaviy va ma'muriy sig'im ham kiritilgan edi. Agar bu tizim tashkil etilgan vaqtda mazkur tizimga kiritilgan shaharlar hukumat tomonidan tashkil etilishi ko'zda tutilgan bo'lsada, ular orasida eng kam aholiga ega bo'lgan doimiy shahar aholisi 980 000 kishini tashkil etar edi. Boshqa bu kabi shaharlarda esa aholi soni bir milliondan ortiq bo'lgan. Shuningdek, aholi soni asta-sekin ko'payish tendensiyalarini namoyon eta boshlagan.

Natijada ularni boshqarish, bu darajadagi shaharlarga kiritish yoki kiritmaslik muammolari yuzaga keldi. Shaharlar ba'zilar to'liq hukumat ahamiyatiga ega bo'lsa, ba'zilar bu shaharlarning yarmiga teng kelar edi. Shu sababli ham ularga alohida talablar ishlab chiqilib, shu talablarga to'liq mos keluvchi shaharlargina hukumat ahamiyatiga ega shaharlar tarkibiga kiritila boshlandi. Hozirgi vaqtda bu talablar 19 taga yetkazilib, ular quyidagilardir:

- Bolalar sog'lig'ini saqlash, sog'liqni saqlash ko'ngillilari guruhlar, ijtimoiy sog'liqni saqlash xizmatlarini ko'rsatuvchi, ona va bolali oilalar shuningdek, ajrashgan oilalarga sog'liqni saqlash chora-tadbirlarini qo'llay olish imkoniga ega, qariyalar, onalar va bolalar sog'liqni saqlash ishlarini amalga oshira oluvchi, sil kasalligi oldini olish imkoniga ega;

- Tana falajligi va aqliy falajlik bo'yicha imtiyozlar hamda kasalxonalar, falaj bemorlarda mustaqillikni qo'llab-quvvatlash imtiyozlari, aqliy ojizlik bo'yicha sog'liqni saqlash ishlarini olib bora oladigan, kasal va yo'lda vafot etgan shaxsi noma'lum shaxslarga yordam bera olish imkoniga ega bo'lgan;

- Oziq-ovqat sanitariya ishlarini boshqara oladigan
- Reklama ishlari, teatr, mehmonxona va jamoat hammomlari biznesi, qabristonlar, ko‘mish marosimini boshqarish imkoniga ega;
- Shaharni rejalashtirish, yerlarni baholay olish bo‘yicha imtiyozlarga ega bo‘lgan
- Ijtimoiy moliyaviy ko‘mak beruvchi imtiyozlarga ega

Ular soliq va moliyaviy ishlar bo‘yicha ham ma‘lum qo‘llab-quvvatlashlarga ega bo‘lishlari lozim.

2.2.2-jadval.

Hukumat ahamiyatiga ega bo‘lgan shaharlar⁶²

<u>Mintaqa</u>	<u>Prefektura</u>	Nomi	Tashkil etilgan yili	Aholisi	Maydoni, km²
<u>Hokkaydo</u>		<u>Sapporo</u>	1972-yil 1-aprel	1 896 207	1121,12
<u>Tohoku</u>	<u>Miyagi</u>	<u>Senday</u>	1989-yil 1-aprel	1 060 263	785,85
<u>Kanto</u>	<u>Saytama</u>	<u>Saytama</u>	2003-yil 1-aprel	1 220 710	217,49
	<u>Chiba</u>	<u>Chiba</u>	1992-yil 1-aprel	960 566	272,08
	<u>Kanagava</u>	<u>Yokohama</u>	1956-yil 1-sentabr	3 681 279	437,38
		<u>Kawasaki</u>	1972-yil 1-aprel	1 420 329	142,70
		<u>Sagamihara</u>	2010-yil 1-aprel	714 179	328,83
<u>Chyubu</u>	<u>Niigata</u>	<u>Niigata</u>	2007-yil 1-aprel	811 876	726,10
	<u>Shizuoka</u>	<u>Shizuoka</u>	2005-yil 1-aprel	715 827	1411,82
		<u>Xamamatsu</u>	2007-yil 1-aprel	807 828	1558,04
	<u>Aichi</u>	<u>Nagoya</u>	1956-yil 1-sentabr	2 259 762	326,43
<u>Kinki</u>	<u>Kioto</u>	<u>Kioto</u>	1956-yil 1-sentabr	1 463 444	827,90
	<u>Osaka</u>	<u>Osaka</u>	1956-yil 1-sentabr	2 668 113	223,00
		<u>Sakai</u>	2006-yil 1-aprel	838 995	149,99
	<u>Xyogo</u>	<u>Kobe</u>	1956-yil 1-sentabr	1 538 840	552,26
<u>Chyugoku</u>	<u>Okayama</u>	<u>Okayama</u>	2009-yil 1-aprel	705 420	789,92
	<u>Xirosima</u>	<u>Xirosima</u>	1980-yil 1-aprel	1 181 057	905,41
<u>Kyushyu</u>	<u>Fukuoka</u>	<u>Kitakyusyu</u>	1963-yil 1-aprel	981 129	488,78
		<u>Fukuoka</u>	1972-yil 1-aprel	1 461 631	341,70
Barchasi				26 387	11606.80


⁶² www.itofound.or.jp

Hukumat ahamiyatiga ega shaharlarda soliq istisnolari ham qo'llanilib, ular jumlasiga quyidagilarni kiritishimiz mumkin:

1. Soliqlarni oshirish yoki kamaytirish oddiy shahar, qishloq yoki shaharcha uchun aholiga ko'ra olib borilsa, bu shaharlarda aholi soniga qarab soliq solinmaydi.

2. Agar ikki tuman yoki hududda ish yuritilsa, ish yurituvchi yuridik shaxs sifatida ikki hududdagi faoliyatga emas, balki, biznesni proporsional tarzda ikkiga bo'lgan tarzda ikki hududga alohida soliqlarni to'laydi. Ya'ni, ish yurituvchi o'zidan kelib chiqqan holda, ikki hududga ham barobar soliq to'lamaydi, balki, butun soliqni ikkiga ajratib, biznesning katta yoki kichik qismi qaysi hududda joylashganiga qarab, mos holda to'lov ishlarini olib boradi.

Shuningdek, ushbu shaharlarga loyihalar, turli qarzlar, rivojlantirish va boshqa turdagi mablag' ajratilayotgan vaqtda ular oddiy shaharlar, shaharchalar yoki qishloqlar bilan bir qatorda emas, balki, prefekturalar bilan bir yo'nalish va miqdorda ushbu mablag'larni tasarruf etadilar.



2.2.2-rasm. Hukumat ahamiyatiga ega shaharlarning Yaponiyada tutgan o'рни (foizlarda)⁶³

⁶³ Yaponiya Ichki Ishlar va Aloqa Vazirligi yillik statistikasi asosida muallif tomonidan hisoblangan

Ammo, shunday bo'lsada, Hukumat Ahamiyatiga Ega Shaharlar Merlari Assotsiatsiyasi ma'lumotiga ko'ra, ushbu shaharlarning moliyaviy ehtiyojlari noan'anaviy bo'lib hisoblanib, xarajatlari oddiy shaharlarnikidan ancha yuqori. Bu shaharlarning daromad tarkibi ham boshqa hududlarnikidan farq qilib, soliq tushumlari ancha past, va aksincha, veksel vositalaridan tushumlar ko'p. Shu bilan birga bu yirik shaharlarga soliq sohasida berilgan maxsus ma'muriy imtiyozlar yetarli emas.

Hukumat ahamiyatiga ega shaharlar tizimi tasdiqlangan vaqtdan beri deyarli o'zgarishsiz amaliyotga tatbiq etib kelinmoqda. Ularning soni beshtadan to hozirgacha 19 taga oshgan bo'lsada, ularning aholisi sonida ham ancha katta farqlar ko'zga tashlanadi: Yokohama aholisi 3.6 mln. kishini tashkil etgan bo'lsa, ularning orasida aholisi soniga ko'ra eng kichigi Okayama aholisi soni – 700 000 kishidan oshadi. Bu ham o'z navbatida hukumat ahamiyatiga ega shaharlar tizimi ham haligacha to'liq ishlab chiqilmaganini bildiradi.

2.2.3-jadval.

Prefekturalarga ahamiyat darajasi turlicha bo'lgan shaharlarning taqsimlanishi⁶⁴

Shahar turi	Prefekturalarda taqsimlanishi				
Hukumat ahamiyatiga ega shaharlar	Saytama, Chiba, Miyagi, Niigata, Aichi, Kioto, Xyogo, Okayama, Hirosima, Hokkaydo – 1	Shizuoka, Osaka, Fukuoka – 2	Kanagava – 3	-	
Markaziy shaharlar	Saytama, Kanagava, Hirosima, Fukuoka, Aomori, Iwate, Akita, Totigi, Gunma, Kanagava, Toyama, Ishikawa, Nagano, Gifu, Shiga, Nara, Wakayama, Okayama, Yamaguchi, Kagawa,	Chiba, Osaka, Hokkaydo, Fukushima – 2	Aichi, Xyogo – 3	-	

⁶⁴Yaponiya Ichki Ishlar va Aloqa Vazirligi yillik statistik to'plamiga asoslangan holda muallif tomonidan hisoblangan

	Exime, Kochi, Nagasaki, Kumamoto, Oita, Miyazaki – 1			
Muhim shaharlar	Hokkaydo, Yamagata, Fukui, Iwate, Chiba, Nagano, Mie, Hiroshima, Yamaguchi, Tokushima, Saga, Nagasaki – 1	Aomori, Ibaraki, Gunma, Tokio, Miigata, Shizuoka – 2	Osaka, Hyogo – 3	Saytama, Kanagava – 4

Markaziy shaharlar – Yaponiyaning aholisi 300 000-500 000 gacha istiqomat qiluvchi, maydoni 100 km² dan ortiq bo‘lgan shaharlari hisoblanib, ular hukumat tomonidan “Yaponiya mahalliy o‘z-o‘zini boshqarish Qonuni” 252-modda, 22-bo‘lim 1-paragrafiga va shahar nomzodlar maslahat kengashining birgalikdagi qarori hamda prefekturalar kengashiga binoan aniqlanadi.

Markaziy shaharlar prefektura miqyosida maktabgacha ta’lim, sog‘liqni saqlash, moliya, shaharlarni rivojlantirish va rejalashtirish bo‘yicha mustaqil bo‘lsalarda, ularning bu ishlar bo‘yicha hajmi Yaponiya hukumat ahamiyatiga ega shaharlarnikidan ancha past bo‘ladi.

2010-yil 1-aprel holatiga ko‘ra Yaponiyada 40 ta markaziy shaharlar aniqlangan bo‘lib, ular quyidagi jadvalda berilgan.

2.2.4-jadval.

Yaponiya markaziy shaharlari ro‘yxati⁶⁵

Mintaqa	Joylashgan prefektura si	Nomi	Mintaqa	Joylashgan prefektura si	Nomi
<u>Hokkaydo</u>	<u>Hokkaydo</u>	<u>Asahikava</u> <u>Hakodate</u>	<u>Kansay</u>	<u>Shiga</u>	<u>Otsu</u>
<u>Tohoku</u>	<u>Aomori</u>	<u>Aomori</u>		<u>Osaka</u>	<u>Takasuki</u> <u>Xigashiosaka</u>
	<u>Iwate</u>	<u>Morioka</u>		<u>Hyogo</u>	<u>Ximeji</u>
	<u>Akita</u>	<u>Akita</u>			<u>Nisinomiya</u>
	<u>Fukushima</u>	<u>Koriyama</u>			<u>Amagasaki</u>

⁶⁵ Designated Cities, “Population and the number of households by the basic residential registers, as well as the number of foreign residents, as of the 1st of every month,” April 1, 2010

		Ivaki		Nara	Nara
Kanto	Tochigi	Utsunomiya	Chyugoku	Vakayama	Vakayama
	Gunma	Maebasi		Okayama	Kurasiki
	Saytama	Kavagoe		Xirosima	Fukuyama
	Chiba	Funabashi		Yamaguti	Simonoseki
	Kanagava	Kashiva	Shikoku	Kagava	Takamasu
Chyubu		Yokosuka		Exime	Masuyama
	Toyama	Toyama	Kyushyu	Kochi	Kochi
	Ishikava	Kanadzava		Fukuoka	Kurume
	Nagano	Nagano		Nagasaki	Nagasaki
	Gifu	Gifu		Kumamoto	Kumamoto
	Aichi	Toyota		Oita	Oita
		Toyoxashi		Miyadzaki	Miyadzaki
		Okadzaki			

Shuningdek, Yaponiya mahalliy hukumat tizimi tashkillashtirilgan vaqtda hukumat tomonidan ilk marta 6 ta shahar maxsus ravishda ushbu darajaga kiritilgan: Shizuoka (1996), Sakai (1996), Xamamatsu (2007), Niigata (2007), Okayama (2009), Sagamihara (2010).

Muhim shaharlar – Yaponiyaning aholisi 200 000 kishidan yuqori bo‘lgan shaharlari hisoblanib, ular ham xuddi hukumat ahamiyatiga ega shaharlar kabi aniqlanadi. Muhim shaharlar sog‘liqni saqlash, atrof-muhit, shaharlar rivojlanishini rejalashtirish kabi yo‘nalishlarda faoliyat olib borish uchun vakolatga ega bo‘lsada, Yaponiya markaziy shaharlaridek erkin ish yurita olmaydi.

2010-yil 1-aprelda Yaponiyada 41 ta muhim shahar darajasiga loyiq bo‘lgan shaharlar belgilangan.

2.2.5-jadval.

Yaponiyaning “muhim shaharlar”i ro‘yxati⁶⁶

Hatinohe	Odavara	Soka	Jyoesu
Yamagata	Yamato	Kasukabe	Nagaoka
Mito	Hirasuka	Kumagaya	Fukui
Tsukuba	Asugi	Kakogava	Kofu
Takasaki	Chigasaki	Neyagava	Masumoto

⁶⁶ Designated Cities, “Population and the number of households by the basic residential registers, as well as the number of foreign residents, as of the 1st of every month,” April 1, 2010

Isesaki	Toyonaka	Kishivada	Numadzu
Ota	Suita	Akashi	Fudzi
Kavaguchi	Hirakata	Takaradzuka	Kasugai
Tokorodzava	Ibaraki	Tottori	Ichinomiya
Koshigaya	Yao	Sasebo	Yokkaichi
			Kure

Yaponiya shaharlari – Yaponiyaning munisipal darajadagi ma'muriy birligi bo'lib hisoblanib, ular to'g'ridan-to'g'ri prefekturalargagina bo'ysunadi. Bu borada ularning huquqlari “Yaponiya mahalliy o'z-o'zini boshqarish Qonuni” ga binoan aniqlanadi.

Aholi punktlari aholisi soni 50 000 kishidan oshsa, shahar maqomini olishi, undan biroz pasaysa ham bu mavqeini yo'qotishi mumkin. Ammo, 2013-yilda aholisi biroz kamroq bo'lgan aholi punktlari ham mazkur guruhga kiritilgan. Natijada, hozirda Yaponiya urbanizatsiya darajasi 90.4 foizni tashkil etadi.

2.2.6-jadval.


Prefekturalarga shaharlarning taqsimlanishi⁶⁷

Soni	Prefekturalar
1-6	Aomori, Iwate, Miyagi, Akita, Yamagata, Fukui, Tochigi, Kanagava, Toyama, Ishikawa, Fukushima, Yamanashi, Shizuoka, Mie, Shiga, Nara, Wakayama, Tottori, Shimane, Okayama, Hiroshima, Yamaguchi, Tokushima, Kagawa, Ehime, Saga, Nagasaki, Oita, Miyazaki, Kagoshima, Okinawa
7-12	Hokkaido, Gunma, Tokio, Niigata, Nagano, Gifu, Kumamoto
13 va undan yuqori	Ibaraki, Saitama, Chiba, Aichi, Kyoto, Osaka, Hyogo, Fukuoka

Yirik shaharlar aholisi 200 000 dan oshgan holatda **muhim**, 300 000 dan oshsa **markaziy**, 500 000 dan oshganda **hukumat ahamiyatiga ega** shaharlar turiga kiritilishi hisobga olinsa, 2010-yil 1-aprel holatiga ko'ra Yaponiyada 786 shahar hisobga olingan.

⁶⁷Yaponiya Ichki Ishlar va Aloqa Vazirligi yillik statistik to'plamiga asoslangan holda muallif tomonidan hisoblangan

Shaharlar ustida olib borilayotgan tadqiqotlar shu kungacha to'xtatilmagan hamda ular hozirgacha hukumat diqqat-e'tiborida bo'lib, rivojlantirish loyihalari tugatilmagan.



2.2.3-rasm. Shaharlarning mamlakat aholisi sonidagi o'rnini (foizlarda) ⁶⁸

*Hukumat ahamiyatiga ega shaharlar mavqeiga erishish uchun aholisi soni 500 000 kishidan ortiq bo'lishi yetarliligi, mamlakat miqyosida millioner shaharlar soni ko'pligi, hukumat ahamiyatiga ega shaharlar ularni aks ettirib bera olmasligi hisobga olingan.


Tokioning maxsus tumanlari tarkibiga 23 munisipalitet kiritilib, ular o'zida nafaqat Tokioning, balki, Yaponiyaning aholi eng zich yashovchi hududlarini hamda ularning yadrosini aks ettiradi. Butun mamlakat bo'yicha bu kabi bo'linish faqat Tokiodagina mavjud. Shuningdek, shahar ichida shahar-tuman tashkil etish tajribasi dunyo bo'yicha faqatgina Yaponiya tajribasida qo'llanilgan.

Ularning maxsus tumanlar sifatida ajratilishi bu tumanlarni boshqa yirik, aholisi ko'p asosiy shaharlardan ajratib turadi. 1943-yil 15-martdan Tokio shahri hukumati prefektura hukumatiga qo'shildi va shunda tumanlar boshqaruvi ham prefektura hukumati nazorati ostiga o'tdi. 1947-yil 15-martgacha sobiq shaharning 35 tumani 22 tagacha kamaytirilib, 3-mayda "Yaponiya mahalliy o'z-o'zini boshqarish Qonuni" ga amalga kiritilgandan so'ng ularga maxsus tumanlar maqomi berildi. 1947-yil 1-avgustda Nerima ular qatoriga 23-maxsus

⁶⁸Yaponiya Ichki Ishlar va Aloqa Vazirligi yillik statistik to'plamiga asoslangan holda muallif tomonidan hisoblangan

2000-yilda Yaponiya Parlamenti tomonidan ham tumanlarga mustaqil munisipal maqom berildi va shundan beri bu tumanlar ba'zi Tokio okruglari kabi mustaqil faoliyat yuritib, chiqindi muammolari hamda oqova suv masalalarini o'zi hal etadi.

Mazkur 23 maxsus tumanning aholisi 2010-yilda 8 467 000 kishini tashkil etgan bo'lsa, 2011-yilga kelib, 8 637 000 kishiga yetdi. Bu tumanlarda aholi o'sishi doimiy migratsiya hisobiga bo'lib, 2010-yilda 0.45 hamda 2011-yil 0.38 foiz ijobiy saldo bilan yil yakunlangan. Ularga Tokioning 2/3 va Katta Tokioning qismi to'g'ri keladi. Tumanlarning zichligi har km² ga 13 800 kishidan to'g'ri keladi.



2.2.4-rasm. Tokio maxsus tumanlari chegaradosh prefekturalari hamda ularning joylashuvi⁶⁹

Yaponiya tumanlari bosh shaharlar darajasidagi eng oxirgi ma'muriy birlik hisoblanib, ular o'z hududlaridagi "koseki" ro'yxatini o'tkazish, tibbiy sug'urta, soliq yig'ish kabi vazifalarni mustaqil bajara oladilar. **Posyolkalar** esa qishloqlardan oldingi o'rinda turuvchi ma'muriy birlik hisoblanib, ular "Yaponiyada mahalliy boshqaruv Qonuni" ga ko'ra huquqlarga ega bo'ladilar. Posyolkalar ham o'z meriga ega bo'lsada, o'zlari uchun alohida kengash mavjud emas. Agar posyolkalarning aholisi 50 000 kishidan ortsa, ularga shahar maqomi beriladi. Hozirga kelib, posyolkalar soni 754 tani tashkil etadi.

Qishloqlar Yaponiyada eng kichik ma'muriy birlik hisoblanib, 2007-yilda 195 ta qishloqlar hisobga olingan bo'lsada, urbanizatsiya hisobiga ular soni tobora kamayib bormoqda. 2010-yil 1-aprel holatiga ko'ra esa Yaponiyada qishloqlar 184 tagacha kamaygan.

2.3 Yaponiya shaharlarining demografik rivojlanishida tabiiy va mexanik harakat


Shaharlarning vujudga kelishi, rivojlanishi mazkur hududlarda yuz berayotgan demografik jarayonlar bilan chambarchas bog'liq bo'lib, ularning mamlakat hududida alohida markaz sifatida ajralib turishiga mazkur hududlarga aholining kuchli tortilishi, migratsiya oqimining kattaligi, ba'zi mamlakatlarda esa ayrim ekologik, iqtisodiy-siyosiy omillar sababli mazkur hududlarning atrofida xuddiy shunday jarayonlar yuz berishi sabab sifatida ko'rsatiladi. Quyida esa Yaponiya yirik va o'rta shaharlarining vujudga kelishida katta rol o'ynayotgan tabiiy hamda mexanik harakatni ko'rib chiqamiz.

Hozirda yirik va o'rta shaharlarni tahlil qilgan holda shunday holatning guvohi bo'lishimiz mumkinki, aholi soni kamayib borishiga qaramasdan, har bir markaz – shaharga intilish kamaygan emas, ya'ni, shahar atrofidan markazga

⁶⁹<http://www.tku.ac.jp>

qarab intilish avvalgidek ko‘rinishga ega. Ayniqsa, Tokio, Osaka, Kioto shaharlarini o‘rganib chiqar ekanmiz, prefektura doirasida mazkur yirik shaharlarga atrofda migratsiya orqali kirib keluvchi aholining ko‘pligi, natijada tumanlarda aholi sonining kamayishi, yirik shaharlar va ularning atrofida esa migratsiya hamda qisman migratsiya orqali kirib kelgan aholi sababli tabiiy o‘shishning boshqa hududlarga nisbatan ijobiy darajalari qayd etilganini ko‘rishimiz mumkin.⁷⁰

Quyida esa yirik va o‘rta shaharlarda tug‘ilish darajasini ko‘rib chiqamiz.



2.3.1-rasm. 2013-yilda Yaponiya yirik va o‘rta shaharlarida tug‘ilish darajasi (% da) ⁷¹

Yuqoridagi jadvaldan ko‘rib turganimizdek, aksariyat yirik va o‘rta shaharlarda tug‘ilish darajasi nisbatan ancha yuqori. Agar, mamlakat bo‘yicha bu raqamlar 8.2 ni tashkil etgan bo‘lsa, keltirib o‘tilgan yirik va o‘rta shaharlarning ikkitasida bu raqamlar mamlakat darajasidan past bo‘lib hisoblanadi: Niigata – 7.5 hamda Yamaguchi – 7.6. Qolgan hududlarning deyarli barchasida bu raqamlar mamlakat bo‘yicha tug‘ilish darajasi bilan teng yoki undan yuqori. Bunga sabab sifatida migratsion oqim kuchli ekanligini ko‘rsatishimiz mumkin. Ammo, shuni ham aytib o‘tish lozimki, mamlakat

⁷⁰ Buxnik S., From Shrinking Cities to Toshino Shyukusho: identifying patterns of urban shrinkage in the Osaka MEA, 2009

⁷¹ Statistics and Information Department, Minister's Secretariat, Ministry of Health, Labour and Welfare of Japan

bo'yicha bu raqamlar bir-biridan katta farq qilmaydi: 2013-yilda eng past tug'ilish darajasi Aomori (yirik shahar) da kuzatilgan bo'lsa – 6.8, eng yuqori daraja Shigada joylashgan yirik shahar Otsuda qayd etilgan – 9.5.

Ammo, shunga mos ravishda bu hududlarda aholi tug'ilish darajasining bu ko'rinishi kuzatilayotgan o'lim darajasini qoplay olmayapti. Chunki, o'lim darajasi nafaqat, yirik va o'rta shaharlarda, balki, mamlakat bo'yicha ham tug'ilishga nisbatan yuqori bo'lib, mamlakat bo'yicha o'lim koeffitsiyenti 10.0 tashkil etadi. Shuningdek, bu raqamlar bolalar o'limini ham o'z ichiga olib, bolalar o'limi koeffitsiyenti 2.8 ni tashkil etadi.

2.3.1-jadval.

2013-yilda Yaponiyaning yirik va o'rta shaharlarida tug'ilish, o'lim va tabiiy o'sish darajasi⁷²


Yirik va o'rta shaharlar	Tug'ilish		O'lim		Tabiiy o'sish	
	Tug'ilish darajasi	Tug'ilish koeffitsiyenti	O'lim darajasi	O'lim koeffitsiyenti	Tabiiy o'sish darajasi	Tabiiy o'sish koeffitsiyenti
Yaponiya	1037231	8,2	1256359	10,0	-219128	-1,7
Chiba	48 881	8,0	53 206	8,7	-4 325	-0,7
Tokyo	107 401	8,3	109 194	8,5	-1 793	-0,1
Kanagava	75 477	8,4	71 996	8,0	3 481	0,4
Niigata	17 476	7,5	28 083	12,0	-10 607	-4,5
Osaka	73 012	8,4	80 472	9,3	-7 460	-0,9
Hyogo	46 436	8,4	53 657	9,8	-7 221	-1,3
Yamaguchi	10 797	7,6	18 231	12,8	-7 434	-5,2
Oita	9 650	8,2	14 050	11,9	-4 400	-3,7

Shuni ham aytib o'tish lozimki, Yaponiya bolalar o'limi ko'rsatkichlari pastligi bo'yicha yetakchi o'rinlarni egallaydi. Bu ko'rsatkichlar turli shaharlarda bir-biridan farqli raqamlarni ko'rsatib, yirik shaharlar bo'lib

⁷² Statistics and Information Department, Minister's Secretariat, Ministry of Health, Labour and Welfare of Japan
ma'lumotlari asosida muallif tomonidan hisoblangan

hisoblangan Niigata, Yamaguchi, Oitada eng yuqori bo‘lib hisoblanadi. Mos ravishda eng past raqamlar Kanagava hamda Tokioda kuzatilgan – 8.0 va 8.5.

Rivojlangan va rivojlanayotgan mamlakatlardagi o‘lim va tabiiy o‘lish darajasi bir-biriga juda o‘xshab ketsada, ularning sabablari ham, tarkibi ham bir-biriga mutlaqo to‘g‘ri kelmaydi. Rivojlanayotgan mamlakatlarning aksariyatida tug‘ilish darajasi yuqori bo‘lsada, bolalar o‘limi yuqori ekanligidan aholi tabiiy o‘lish ko‘rsatkichlari nisbatan past raqamlarni ko‘rsatadi. Rivojlangan mamlakatlarda esa, tug‘ilish ko‘rsatkichlari ancha past bo‘ladi va mos ravishda, o‘lim ko‘rsatkichlari ham yuqori bo‘lmaydi.




2.3.2-rasm.2013-yilda Yaponiya yirik va o‘rta shaharlarida o‘lim darajasi⁷³

O‘lim tarkibida rivojlanayotgan mamlakatlarda bolalar o‘limi yuqori bo‘lsa, rivojlangan mamlakatlarda katta yoshlilar va qisman ofatlar natijasida halok bo‘lganlar ancha yuqori darajalarni ko‘rsatadi.

Yaponiya yirik va o‘rta shaharlari orasida bundan ham pastroq ko‘rsatkichlarni ko‘rsatuvchilari ham mavjud bo‘lib, Akita (yirik shahar) hamda Shimane (o‘rta shahar) lar yetakchilik qiladi: 14 va 13.1.

⁷³ Statistics and Information Department, Minister's Secretariat, Ministry of Health, Labour and Welfare of Japan



2.3.3-rasm. Yaponiya yirik va oʻrta shaharlarida tabiiy oʻsish darajasi⁷⁴

Shuningdek, urbanizatsiya darajasi ancha past koʻrsatkichlar (77-78%) ni koʻrsatuvchi yirik hamda oʻrta shaharlar: Aomori, Vakayama, Tottori, Tokushima shaharlarida oʻlim darajasi ancha yuqoriligi bilan boshqa shaharlardan ajralib turadi. Shuningdek, urbanizatsiya darajasi nisbatan past boʻlgan (75-76%) hududlarda boshqa urbanizatsiya darajasi yuqoriroq hududlarga nisbatan koʻp miqdorda katta yoshli aholi istiqomat qilishini hisobga olgan holda shuni aytishimiz mumkinki, shaharlarda yosh aholi soni yuqori boʻlsa, urbanizatsiya darajasi har qancha yuqori boʻlgan holatda ham ichki mintaqaviy tafovut mavjud boʻlgan “urbanizatsiyalashgan qishloq” larda katta yoshli aholi soni ham koʻp boʻladi, oʻlim darajasi ham “urbanizatsiyalashgan shaharlar” ga nisbatan yuqori boʻladi.

Tabiiy oʻsish koʻrsatkichlarining juda past oʻsishi yoki salbiy natijalarni koʻrsatishi nafaqat, shaharlarda, balki, mamlakat boʻyicha ham kuzatiladi. Agar, mamlakat boʻyicha bu koeffitsiyent -1.7 ni koʻrsatsa, tanlab olingan yirik va oʻrta shaharlarning aksariyatida bu raqamlar yanada yuqoriroq koʻrsatkichlarni koʻrsatadi. Jumladan, tanlab olingan hududlar orasida Yamaguchida eng past tabiiy oʻsish kuzatilgan boʻlib, mamlakat boʻyicha shaharlar orasida eng past


⁷⁴ Statistics and Information Department, Minister's Secretariat, Ministry of Health, Labour and Welfare of Japan

raqamlar Kochida qayd etilgan. Tabiiy o'sish darajasining ijobiy ko'rsatkichlari esa tanlanma shaharlar orasida Kanagavada – 0.4, mamlakatdagi yirik va o'rta shaharlar orasida Aichi prefekturasida joylashgan Toyoxashida kuzatilgan – 0.9.

Migratsiya jarayonlarining shaharlar, ularning paydo bo'lishi, rivojlanishi, hududiy o'zgarishlariga ham katta ta'siri mavjud bo'lib, kam uchraydigan holatlardan biri hisoblansada, aholining ko'p miqdorda qishloqlardan shaharlarga ko'chib o'tishi yoki shaharlarga ko'chib o'tishi, tebranma (mayatnikli) migratsiya ta'sirida shaharlarda aholi sonining ko'payib, kechasi ancha kamayishi, shaharlarga tortilgan aholi sonining shahar atrofida tez to'planishi, ba'zi mamlakatlarda tabiiy omillar natijasida shaharlarning taraqqiy topishi yoki bo'shab qolishi, shuningdek, urbanizatsiya darajasining "sun'iy" ravishda ko'tarilishida (jumladan, Arab mamlakatlari) mazkur jarayonlarning "hissasi" katta.

Ichki migratsiya – aholining bir mamlakat doirasida, tashqi (xalqaro) migratsiya esa aholining davlat chegaralarini ma'lum sabablarga ko'ra kesib o'tishidir. Migratsiyaning sabablari turlicha bo'lishi mumkin: yangi yashash yoki ish joyi qidirish, o'qish yoki malaka oshirish, dam olish yoki davolanish, siyosiy, milliy, diniy yoki irqiy muammo yoki iqtisodiy qashshoqlikdan qochish maqsadida aholi o'z yashash joyini o'zgartirishi mumkin.

O'z navbatida, Yaponiyada ham yirik va o'rta shaharlarga migratsiya jarayonlarining ahamiyati katta bo'lib, quyida ushbu jarayonning vujudga kelish sabablari, yo'nalishlariga ko'ra bir necha misollar bilan ko'rib chiqishimiz mumkin. Migratsiyaning yuzaga keltiruvchi sabablariga ko'ra eng muhim turlaridan biri bo'lgan epizodik migratsiya – turistik, rekreatsion yoki ishning vaqtinchalik o'zgarishlari bilan bog'liq bo'lgan aholi harakatini bildirib, bu migratsiya turining o'ziga xos tomoni shundaki, u boshqalaridan farqli ravishda qisqa muddatliligi, doimiy tendensiyaga ega emasligi bilan ajralib turadi. Bu turdagi migratsiya mamlakat aholisining ish bilan ta'minlanganlik darajasi, turmush tarzi, turmush darajasi, o'rtacha daromadi hamda shu kabi aholining iqtisodiy-ijtimoiy sharoitiga bog'liq bo'lgan xususiyatlarni bildirib turadi.



2.3.4-rasm.Yaponiyada 1954-2013-yillarda ichki migratsiyasi dinamikasi⁷⁵


Epizodik migratsiyaning turistik yoʻnalishi ham ichki, ham tashqi turizm sifatida Yaponiyada keyingi yillarda ancha rivojlanganligini koʻrishimiz mumkin. Turistik migratsiyaning anʼanaviy turlari qatorida soʻnggi vaqtlarda Yaponiyada turizmning yarim yoki bir kunlik qisqa muddatli shunday shakli rivojlanmoqdaki, bunda Yaponiya hududida aholining katta oqimi mavsumiy turist sifatida harakat qiladi. Yaʼni, har mavsumda, qaysidir meva pishishi, gul ochilishi yoki butun mamlakat boʻylab barcha turistik xizmatlarga katta miqdorda chegirmalar eʼlon qilinishi munosabati bilan marshrutlar uyushtiriladi. Aytishimiz mumkinki, bunday turizm keyingi yillarda faqatgina turizm emas, balki, turli koʻngilochar tadbirlarni oʻzida jamlagan qisqa dam olish vaqtiga aylanib qolmoqda.

Tashqi migratsiyaning ish uchun Yaponiyadan boshqa mamlakatlarga chiqib ishlovchi aholisi juda ozchilikni tashkil etib, bunga bir qancha sabablar mavjud. Ulardan biri millat yakdilligi hisoblanib, yapon millatiga mansub mehnatga yaroqli aholining katta qismi oʻz Vatanida ishlab, unga foyda keltirishni afzal koʻradi. Boshqa tomondan, daromad miqdorining yetarli ekanligi, mamlakatda ish turi koʻpligi, daromad manbaini yaratish katta qiyinchilik tugʻdirmasligi aholini boshqa mamlakatlardan ish qidirishga majbur

⁷⁵ Yaponiya ichki Ishlar va Aloqa vazirligi, Aholishunoslik yillik statistik toʻplami

qilmaydi. Aksincha, o‘qish stajirovkasiga chiquvchi aholi soni ancha ko‘pchilikni tashkil etishi sababi ishga qabul qilinish jarayonida ishchining chet elda malaka oshirganligi katta ahamiyatga egaligidadir.

Shaharlarning rivojlanishida juda katta ahamiyatga ega bo‘lgan migratsiya turlaridan biri hisoblangan tebranma migratsiya esa mamlakat ichida aholining kunlik yoki haftalik harakati bo‘lib, u doimiy ravishda har kuni yoki har haftada aholining o‘qish yoki ish maqsadida katta shaharlarga yoki umuman, shaharga qatnovini anglatadi. Bu migratsiya turi shaharlar, ularning paydo bo‘lishi yoki “tortish kuchi” ni aniqlashtirishda katta ahamiyatga ega bo‘lganligi sababli u chuqur tahlil qilinishi lozim.



2.3.5-rasm.2010-2011-yillarda Yaponiyada yirik shaharlar bo'yicha migratsiya saldosi dinamikasi⁷⁶

Bu kabi qatnovning asosiy yo‘nalishi – qishloqlardan shaharlarga, kichik shaharlardan yirik shaharlarga hamda boshqa maqsadlarda haftalik yirik shaharlardan dam olish zonalariga bo‘lishi mumkin. Tebranma migratsiyani yirik shaharlar va ularning atrofida, o‘rta hamda kichik shaharlar joylashgan hududlarda, urbanizatsiyalashgan hududlar va qishloq hududlar o‘rtasida qatnovning sezilarli darajada yuqori ekanligida ko‘rishimiz mumkin.

⁷⁶ Yaponiya ichki Ishlar va Aloqa vazirligi, Aholishunoslik yillik statistik to‘plami asosida muallfi tomonidan hisoblangan.

Bu turdagi migratsiyani rivojlantiruvchi eng asosiy omil – transport hisoblanadi. Tebranma migratsiya mehnat resurslarining shaharlarda to‘planishiga (yirik shaharlarda mehnat resurslariga bo‘lgan 20 foiz talab tebranma migratsiya hisobidan qoplanadi), mehnat resurslaridan samarali foydalanishga, yirik shaharlar turmush tarzi, madaniyati keng yoyilishiga, sotsial mobillik oshishi, nisbatan turli xil ish turlari paydo bo‘lishiga va bandlik oshishiga olib keladi. Tebranma migratsiyaning salbiy tomoni shundaki, bo‘sh vaqtdan samarali foydalanishda yo‘lga sarflanuvchi vaqt borasida muammolar kelib chiqadi, ish yoki o‘qishga qatnovning takrorlanishi “transport charchog‘i” ni yuzaga keltiradi va bu o‘z navbatida mehnat samaradorligining pasayishiga olib keladi.



Shaharlar	Aholi soni
Tokyo	8 434 698
Osaka	2 752 014
Nagoya	2 093 464
Kyoto	1 443 919
Yokohama	2 849 995
Kobe	1 386 082
Kitakyushu	1 033 597
Sapporo	1 441 575
Kawasaki	1 097 270
Fukuoka	1 115 372
Hiroshima	930 318
Sendai	757 147
Chiba	711 271
Saytama	511 019
Shizuoka	494 530

2.3.6-rasm. Yaponiya yirik shaharlari tungi tebranma migratsiya ko‘rsatkichlari⁷⁷ (yillik)

Tebranma migratsiyaning yuqorida aytilganidek, eng katta ta’siri shahar hamda shahar atrofiga bo‘lishini hisobga olgan holda, Yaponiyada u boshqa

⁷⁷ Statistical Survey Department, Statistics Bureau, Ministry of Internal Affairs and Communications ma’lumotlari bo’yicha muallif tomonidan ishlangan.

mamlakatlarda kuzatilmagan sharoitda rivojlanganligi, oqibatda mamlakatning mahalliy ma'muriy-hududiy tasniflanishida murakkab tasnifga hamda bir qancha o'ziga xos xususiyatlarga ega bo'lgan butun bir hududiy birliklar – Tokioning sobiq “yotoq shaharlari”, hozirgi Tokio maxsus tumanlari vujudga kelgan. Shuningdek, hozirgacha Tokaydo megalopolisida tebranma migratsiyaning katta ta'sirini kuzatishimiz mumkinki, tezyurar poyezdlarda 1.5-2 soatlik yo'l uzoqlikda ish yoki o'qishga qatnov odatiy holatga aylangan. Jumladan, Tokiodan 70 km. uzoqlikdagi radiusda 36 mln.dan ortiq aholi istiqomat qilib, bu butun mamlakat aholisining 28.1 foizini tashkil etadi. Bu hududning 0-50 kilometrli hududida 32 mln. kishidan ortig'i istiqomat qilib, ularning eng ko'p qismi 20-40 kilometrli hudud aholisi bo'lib hisoblanadi: 15 mln. kishi.

2.3.2-jadval.

Yaponiya yirik shaharlari kunduzgi tebranma migratsiya ko'rsatkichlari⁷⁸ (yillik)

Shaharlar	Kunduzgi migrantlar bilan hisoblaganda shahar aholisi soni	Tungi migrantlar va doimiy ro'yxatdan o'tgan aholi soni	Tebranma migratsiyada qatnashuvchi aholi soni	Tebranma migratsiya saldosi
Tokio	11 284 699	8 434 698	2 850 001	33,8
Osaka	3 581 675	2 752 014	829 661	30,1
Nagoya	2 516 196	2 093 464	422 732	20,2
Kioto	1 582 980	1 443 919	139 061	9,6
Yokohama	3 205 144	2 849 995	355 149	12,5
Kobe	1 547 971	1 386 082	161 889	11,7
Kitakyushu	1 020 447	1 033 597	-13 150	-1,3
Sapporo	1 893 946	1 441 575	452 371	31,4
Kavasaki	1 154 436	1 097 270	57 166	5,2
Fukuoka	1 571 184	1 115 372	455 812	40,9
Hiroshima	1 174 401	930 318	244 083	26,2

⁷⁸ Statistical Survey Department, Statistics Bureau, Ministry of Internal Affairs and Communications ma'lumotlari bo'yicha muallif tomonidan ishlangan.


Sendai	1 098 981	757 147	341 834	45,1
Chiba	894 027	711 271	182 756	25,7
Saytama	1 077 638	511 019	566 619	110,9
Shizuoka	727 210	494 530	232 680	47,1

Yuqoridagi jadvaldan ham ko‘rishimiz mumkinki, Yaponiyaning yirik va o‘rta shaharlariga tebranma migratsiya darajasi kuchli bo‘lib, ular orasida Tokio hozirgacha alohida o‘rin tutadi. Mazkur jadvalda Tokioga ish yoki o‘qish maqsadida doimiy qatnovchilar ro‘yxatga olingan bo‘lib, bundan tashqari, shaharga erkin qatnovchi aholi bilan birga kunduzgi shahar aholisi 13 mln. kishiga yetadi. Aynan shu shahar atrofida yuqorida aytib o‘tilganidek, jahon tajribasida kuzatilmagan jarayonlar rivojlanishi oqibatida shaharning alohida joylashgan tumanlari vujudga kelib, qatnovchilarning ko‘p qismini mazkur tumanlar aholisi tashkil etadi. Shuningdek, o‘rta shaharlarning ba’zi birlaridan aholi oqimining tashqariga harakati kuchli bo‘lib, buni biz Kitakyushyu shahri misolida ham ko‘rishimiz mumkin. Bu shahardan kunduzi boshqa hududlar – qo‘shni shaharlar, prefekturalarga qatnovning yuqori.

Tebranma migratsiyani yumashatish uchun mamlakatning ko‘pgina shaharlarida turli chora-tadbirlar olib borilmoqda. Ular jumlasiga shaxsiy avtomobillarni jamoat transportlariga almashtirish, ekologik zarar keltiruvchi ishlab chiqarishni bog‘lar bilan o‘rash, yagona issiqlik, suv, elektr energiyasi bilan ta’minlashni turarjoylarga “yoyib yuborish”, shaxsiy turarjoydan ko‘ra ko‘proq ko‘p qavatli imoratlardan foydalanish, iqtisodiyot tarmoqlarini bo‘lak-bo‘lak emas, balki, kichik, aralash tarzda joylashtirish kabilarni kirita olamiz.

Migratsiyaning majburiy turi zamonaviy migratsiyaning o‘ziga xos ko‘rinishlaridan biri bo‘lib hisoblanib, bu migratsiya turi ko‘p sonli aholining yashash joyini ularning xohishlariga bog‘liq bo‘lmagan tarzda doimiy yoki vaqtinchalik tark etishlarini bildiradi. Majburiy migratsiyaga sabab sifatida bir necha omillarni keltirishimiz mumkin bo‘lib, ular – tabiiy ofatlar, iqtisodiy yoki texnogen halokatlar, fuqarolar yoki mintaqalar o‘rtasidagi urushlar, siyosiy tuzum o‘zgarishi, mamlakatda rahbarligi bir guruhdan ikkinchi guruhga o‘tishi

kabilardir. Shuningdek, turli xil harbiy mojarolar, inson huquqlari va erkinligi poymol etilishi, mamlakat hududiy birligi buzilishi, aholining siyosiy kuch sifatida birligini buzish maqsadida bir joydan ikkinchi joyga ko‘chirish kabi sabablar ham majburiy migratsiyani yuzaga keltiruvchi asosiy omillardan bo‘lib hisoblanadi. Bu kabi migratsiya ishtirokchilariga qochoqlar, boshpana izlayotganlar, majburiy ko‘chirilgan aholini ko‘rsatishimiz mumkin. Erkin migratsiyadan bu turdagi migratsiya siyosiy majburiyat va nisbatan doimiy yoki uzoq vaqtga cho‘zilishi bilan ajralib turadi.⁷⁹



**2.3.7-rasm. Yaponiyada prefekturalar bo‘yicha radiatsiya darajasi⁸⁰
(mkm.da)**

Barchamizga ma’lumki, Yaponiya yuqori seysmik mintaqada joylashganligi, dengizlar va okean bilan o‘ralganligi sababli bu hududda tez-tez turli ofatlar bo‘lib turadi. Bu esa Yaponiyada majburiy migratsiyani yuzaga keltiruvchi asosiy omil bo‘lib xizmat qiladi. Tarixdan Yaponiyada turli zilzilalar, tayfun hamda tsunamilar oqibatida aholi bir hududdan ikkinchi hududga ko‘chganligini, ba’zida bu ofatlar boshqa halokatlarga – zilzilalar yong’in, tsunamiga, tsunamilar esa suv toshqinlari, o‘pirilishlarga sabab

⁷⁹ Назаров А.Д. Миграция вынужденная / Политическая энциклопедия. Т.1. М: Мысль, 1999. стр. 705-707;

⁸⁰ <http://www.200stran.uz/maps/jp/rdt>

bo‘lganligini ko‘rishimiz mumkin. Natijada, ketma-ket ro‘y bergan ofatlar tufayli aholi o‘z muqim yashash joyini o‘zgartirishga majbur bo‘lgan.

Yaponiyada majburiy migratsiyaning shaharlarga ta’siri ham katta bo‘lib hisoblanib, bunga sabab, aholining ko‘p miqdorda shaharlarda to‘plaganligi va ularning tabiatan qulay muhit hisoblangan dengiz bo‘yida to‘planganligidir. Dengiz bo‘yida joylashgan shunday yirik va o‘rta shaharlar mavjudki, bu hududlarda ro‘y bergan tabiiy ofatlar tufayli aholi katta zarar ko‘rishi, shaharlar bo‘shab qolishi, buning oqibatida, yangi hududlarda yangi markazlar vujudga kelishi yoki boshqa hududlarda aholi soni majburiy migratsiya hisobiga ko‘payishini kuzatishimiz mumkin. Bu kabi yirik shaharlar sirasiga hozirda Yaponiyada dengiz bo‘yida joylashgan port-shahar – Yokohama, janubiy dengizning eng rivojlangan iqtisodiy markazlaridan biri – Kitakyushyu kabilarni ko‘rsatishimiz mumkin.

Jumladan, yaqin yillarda aholini yashash joylarini o‘zgartirishga majbur qilgan bir necha ofatlar sodir bo‘lib, ulardan eng yirigi – yuqori balli zilzila, uning oqibatida ro‘y bergan Fukushima’dagi atom elektrostansiyasi yong‘ini hamda zilzila oqibatida yuzaga kelgan tsunami hisoblanadi. Tsunami hamda nurlanish holati yuqori ekanligidan aholi evakuatsiya qilinib, bu hududlar hozirda qarovsiz hududlarga aylangan. 2011-yilgi ketma-ket yuz bergan tabiiy ofatlar va atom elektr stansiyasidagi halokatdan so‘ng aholini zudlik bilan ko‘chirish ishlari olib borildi va tabiiyki, shu yili Fukushima’da eng yuqori aholi kamayishi qayd etildi. Mos ravishda, mazkur yili Tokioda mehnat resurslari soni eng yuqori ekanligi ham ko‘rsatib o‘tilgan.

2.3.3-jadval.

Yaponiya shaharlarida migratsiya hisobiga aholi soni o‘zgarishi

(% larda)⁸¹

№	Hududlar	Aholi migratsiyasi darajasi	Hududlar	№
		2011-yil	2012-yil	

⁸¹ Yaponiya ichki Ishlar va Aloqa vazirligi yillik statistik to‘plami ma’lumotlariga asoslangan holda muallif tomonidan hisoblangan.

	<i>Yaponiya</i>	-0.22	-0.20	<i>Yaponiya</i>	
1	Okinava	0.56	0.59	Okinava	1
2	Tokio	0.25	0.28	Tokio	2
3	Aichi	0.15	0.19	Shiga	3
4	Fukuoka	0.12	0.14	Saytama	4
5	Kanagava	0.10	0.14	Fukuoka	5
	...	...			
43	Ivate	-0.83	-0.78	Kochi	43
44	Kochi	-0.90	-0.91	Miyagi	44
45	Aomori	-0.97	-1.03	Akita	45
46	Akita	-1.13	-1.21	Ivate	46
47	Fukushima	-1.41	-1.93	Fukushima	47

Agar 2011-yilda migratsiyaning salbiy saldosi 36 hududda kuzatilgan bo'lsa, ular orasida Fukushima eng yuqori o'rinni egallaydi: 31,381 kishi, Miyagi – 6,402 kishi, Ibaraki 4,751 kishi. Yuqorida keltirilgan jadvaldan ham ko'rishimiz mumkinki, aholi soni ko'p bo'lib, rivojlanish darajasi ancha yuqori bo'lgan o'rta shaharlardan biri hisoblangan Fukushima hamda Tohoku mintaqasida aholining birdan eng ko'p miqdorda kamayishi kuzatilgan. Xuddi shu yili esa Tokioda mehnat resurslarining katta miqdorda oshganligi fikrimizning yaqqol dalili bo'lib hisoblanadi.

Oxirgi yillarda mavsumiy migratsiyaning yangi ko'rinishlari rivojlanib borayotganligi kuzatilmoqda – festival yoki bayramlar mavsumiy migratsiyasi, ya'ni turizm nuqtai nazaridan emas, qo'shimcha daromad topish yoki umuman, daromad manbai sifatida festival, bayramlar yoki yarmarkalar uyushtirilishi mamlakat bo'yicha yil davomida davomiylik tendensiyasiga ega ekanligi tufayli har safar bunday sharoitda tayyor mahsulotlar yoki katta chegirmaga ega mahsulotlarni sotishdan daromad topuvchi oilalar mavjud.

Qaytmas migratsiya Yaponiyada Tokugava syogunligi davrida kuzatilgan: chet elda yashayotgan yapon millatiga mansub fuqarolar mamlakatga kirish hamda mamlakatdan chiqish ta'qiqlanganligi tufayli uzoq yillar shu mamlakatda qolishga va keyinchalik o'z fuqaroliklarini o'zgartirishga majbur bo'lganlar.⁸²

⁸² Рыбаковский Л.Л. Миграционные процессы: понятие, формы, виды и стадии. 7-8-стр.; Ионцев В.А. Миграция населения / Современная демография. стр 104.

Reimmigratsiya oqibatida ortga qaytayotgan yapon millatiga mansub fuqarolar hozirda Yaponiya aholisining 0.3 foizini tashkil etadi (taxminan 400 000 kishi). Bunga asosiy sabab sifatida shuni ko'rsatishimiz mumkinki, 1990-yildan reimmigratsiyani amalga oshirayotgan yapon fuqarolari qayta fuqarolik olishlari mumkin bo'lgan qonun kuchga kirib, mamlakatga bu turdagi migrantlar ko'proq Janubiy Amerika davlatlaridan, ayniqsa, Braziliya va Perudan qabul qilinadi.

Yaponiyada noqonuniy migratsiya saldosi nisbatan ancha past. Bunga eng birinchi sabab sifatida uning kontinent bilan suv yo'llari va havo transporti orqaligina bog'langanligini, shuningdek, qonunchilikning ancha kuchli ekanligini, noqonuniy migratsiya orqali mamlakatga kirib kelgan shaxslarga nisbatan nafaqat, hukumat tomonidan siyosiy choralar ko'rilishi, balki, deyarli hech qayerda ishga qabul qilinmasligini ko'rsatishimiz mumkin. Shunga qaramasdan, juda oz miqdorda xitoylik va koreys millatiga mansub noqonuniy migrantlar bor ekanligi qayd etilgan.

Yaponiya yirik va o'rta shaharlari rivojlanishida tashqi migratsiya roli nisbatan ancha past bo'lib, mazkur holatni o'rganishda eng avvalo, tarixga nazar solish maqsadga muvofiqdir. Chunki, uning tarixan rivojlanish davrida dunyoga Yaponiyani yopiq deb e'lon qilgan deyarli ikki yarim asrni tashkil etuvchi davri borligi uning tarixiy taraqqiyotini ham, undan keyingi davrida rivojlanishini ham o'zgartirib yuboradi. Tashqi migratsiyaning shaharlarga ta'sirini ularning paydo bo'lishi yoki yo'qolishida emas, balki, rivojlanishi hamda joylashgan o'rnining o'zgarishida kuzatish o'rinli bo'lib hisoblanadi. Chunki, Yaponiya misolida shaharlarning rivojlanishi tarixda ikki omil ta'sirida yuzaga kelgan: birinchisi, poytaxt omili bo'lsa, ikkinchisi, tashqi dunyodan Yaponiyaga kirib kelib, bozorlarning jonlashida eng katta rol o'ynagan chet el bilan savdo aloqalari bo'lib hisoblanadi. Ya'ni, tashqi migratsiya ta'sirida dengiz bo'yida joylashgan hududlarda savdo aloqalari jonlanadi, aholi soni ko'paya boshlaydi va yangi markazlar paydo bo'la boshlaydi.

XVI asr oxirlarida Yaponiyaga ilk marta yevropaliklar – portugal, ispan, golland va inglizlar oltin hamda kumush qazib olish maqsadida yangi texnika va

texnologiya bilan Tokio shahriga kirib kelishgan. Natijada kumush savdosi rivojlangan va bir muddat Yaponiya dunyo kumushining yarmini beruvchi mamlakatga aylangan. Savdo-sotiq ishlarini olib borishga qulay bo'lganligi sababli ular mamlakatning dengiz portlariga tutash bo'lgan qismlaridagi hozirgi yirik shaharlarga joylashishgan.

Ammo, yevropaliklarning din va savdo niqobi ostida Yaponiyani bosib olishga qaratilgan maqsadi oshkor bo'lgach, 1624-yilda Yaponiya mustaqilligi uchun eng xavfli sanalgan ispanlar mamlakatdan haydab chiqariladi. Keyinchalik, chegaradosh mamlakatlar bilan ham aholi migratsiyasi borasida aloqalari to'xtay boshlagan. 1636-yildan boshlab Yaponiya xorijliklar uchun butunlay yopildi. Barcha yaponlarning qaysi dinga mansub bo'lishidan qat'iy nazar, xorijga chiqishlari taqiqlanib, xorijdagi yaponlarning ham Yaponiyaga kirishi ta'qiqlangan. Mamlakatdagi bir necha gollandlar esa 1641-yili kichik Nagasaki orolining qirg'og'iga ko'chirilib, asir sifatida saqlangan.

Yaponiyada syogun tomonidan mazkur siyosat izchil olib borilgan davrida Kioto, Osaka, Edo (hozirgi Tokio) gullab-yashnagan. Shu sababli ham mazkur hududlarga aholi oqimi kattaligi va doimiy tendensiyaga ega ekanligi kuzatilgan. Poytaxtlarga aholining tortilishi juda kuchli ekanligiga mos ravishda Edo davrining birinchi yarmida syogun oilasi bilan istiqomat qiluvchi Kioto va Osaka shaharlari, ikkinchi yarmida poytaxt Edoga ko'chirilganligi sababli shahar tez sur'atlar bilan rivojlana boshlaydi.

Manbalarga ko'ra, bu Edo deb nomlanuvchi 250 yil davom etgan davrda mamlakat aholisi soni 25 mln. kishi atorofida bo'lgan va deyarli o'zgarmagan.⁸³ Yaponiya "ochilganidan" so'ng esa – Meyzi davri bilan boshlangan 100 yillikda aholi soni tezlik bilan to'rt barobarga oshib ketgan.⁸⁴ Bunga bir tomondan, aholining mobilligi oshganligi, ikkinchi tomondan qattiq siyosatdan keyin aholiga erkinlik berilganligi, ularning yashash joylari borasidagi qonunlarga

⁸³Япония Страна и люди, Kodansha International Ltd., 2005


⁸⁴История культуры Японии на японском и русском языках, Имаи Масахару, Узбекистан, кафедра японского языка Ташкентского Государственного института востоковедения Среднеазиатский Международный Центр Сотрудничества Университета Цукуба

o'zgartirishlar kiritilganligi sabab bo'lgan.

Oxirgi 2014-yil ma'lumotlariga qaraganda, hozirda Yaponiyada chet ellik aholi soni taxminan 3 mln. kishini tashkil etadi. Agar, 2007-yilgacha mamlakatdagi eng ko'p chet el aholisi ulushida millat kesimida koreyslar birinchi o'rinlarni egallagan bo'lsa, 2007-yildan boshlab hisobotlarga ko'ra, Yaponiyadagi migrantlarning eng ko'p ulushini xitoyliklar tashkil etgan. Hozirda Yaponiyada ularning umumiy soni 700,000 kishidan oshib ketgan. Xitoylik migrantlarning boshqa migrantlardan farqi shundaki, oliy o'quv yurtlarida tahsil olayotgan chet el talabalarining o'rtacha 2/3 qismi xitoylik talabalar hisoblanadi.

2.3.4-jadval.

2011-2012-yillarda Yaponiyada istiqomat qiluvchi chet ellik migrantlar vaqt bo'yicha taqsimoti⁸⁵



Vaqt bo'yicha taqsimoti	Ulushi
Qisqa muddatga ruxsat berilgan	21.0
Uzoq muddatga ruxsat berilgan	12.5
Yapon fuqarolari oila a'zolari	11.9
Talaba va malaka oshiruvchilar	14.2
Boshqalar	40.4

Chet ellik migrantlarning hududiy taqsimotida eng ko'p ulushni tabiiyki, Tokio oladi: 20-25 foiz chet ellik migrantlar yashash uchun Tokioni afzal deb biladi.⁸⁶ Shuningdek, chet ellik migrantlar uchun qulay shaharlar sifatida Osaka, Aichi, Kanagava, Hyogo, Saytama, Chiba, Shizuoka, Kioto, Ibaraki ham o'z o'rniga ega.

⁸⁵ MIC Annual Statistical Bureau

⁸⁶ Япония Страна и люди, Kodansha international Ltd., 2005

2-bob bo'yicha xulosalar

Xulosa o'rnida shuni aytishimiz mumkinki, shaharlarni rivojlantirishda katta ahamiyatga ega bo'lgan omillardan biri – tebranma migratsiya darajasi ancha yuqori bo'lib, bunda shahar atrofidagi hududlardan shaharlarga oqimning ancha kuchliligini ko'rishimiz mumkin. Natijada, uzoq hududlardan qatnovchi aholi shahar atrofida to'planib, shahar atrofi halqasini hosil qiladi. Shuningdek, ba'zida yuz beruvchi ofatlar ham aholini katta masshtabda shaharlardan boshqa hududlarga ko'chishga majbur qiladi. Tashqi migratsiya darajasi esa hozirda ancha pastligi sababli shaharlar, ularning paydo bo'lishi va rivojlanishida katta rol o'ynamasada, tarixan taraqqiy topishida uning ahamiyati juda yuqori bo'lgan.

Yuqorida keltirilgan urbanizatsiyalashgan hududlarga aholining rivojlangan mamlakatlarda ham tortilishi Yaponiya yirik va o'rta shaharlari rivojlanishida o'z isbotini topib, Sharq mamlakatlari orasida demografik jarayonlar o'zgacha kechayotgan yagona mamlakat sifatida Yaponiyaning aholisi kamayib borayotgan bo'lsada, poytaxt-mintaqaga intilish haligacha kamaymagan. Ammo, shuni ham nazarda tutishimiz kerakki, boshqa bir qator yirik shaharlarga ichki migratsiya oqimi avvalgidan ancha pasaygan. Bu esa aholini to'g'ri taqsimlash borasida hukumat hamda korporatsiyalar tomonidan olib borilayotgan bir qator chora-tadbirlar bilan bog'liq.

Yaponiyada shaharlar tasniflanishi avval aholi emas, balki, hududiy, iqtisodiy-ijtimoiy taraqqiyotga bog'liq tarzda olib borilib, keyinchalik aholi soni mazkur hududlarda oshib borganligi tufayli demografik rivojlanish shaharlar tasniflanishining asosiy hal qiluvchi omillaridan biriga aylanib qolgan. Hozirgi vaqtda aholi soni ma'lum darajaga yetgan shaharlarga o'z-o'zini boshqarish bo'yicha ma'lum imtiyozlar beriladi va shaharlar o'z-o'zini rivojlantirish bo'yicha ishlar olib borish imkoniyatiga ega bo'ladi. Natijada, shaharlar mavjud aholi, uning soni, migratsion hamda tabiiy o'sishni hisobga olgan holda rivojlantirish loyihalarini ishlab chiqadi va uni amalga oshirishda hukumat loyihalariga qaraganda ancha aniq, samarali natijalarni qo'lga kiritadi. Hukumat

nuqtai nazaridan ham aholisi ancha ko'p bo'lgan shaharlar boshqaruvini ma'lum yo'nalishlarda mahalliy hukumatga topshirilishi bir tomondan, boshqaruv nuqtai nazaridan, ikkinchi tomondan loyihalarga qo'shimcha mablag' mahalliy byudjetdan sarflanishi jihatidan ancha yengillik tug'diradi. Shaharlarni rivojlantirishda katta ahamiyatga ega bo'lgan omillardan biri – tebranma migratsiya darajasi esa ancha yuqori bo'lib, bunda shahar atrofidagi hududlardan shaharlarga oqimning ancha kuchliligini ko'rishimiz mumkin. Natijada, uzoq hududlardan qatnovchi aholi shahar atrofida to'planib, shahar atrofi halqasini hosil qiladi. Shuningdek, ba'zida yuz beruvchi ofatlar ham aholini katta masshtabda shaharlardan boshqa hududlarga ko'chishga majbur qiladi. Tashqi migratsiya darajasi esa hozirda ancha pastligi sababli shaharlar, ularning paydo bo'lishi va rivojlanishida katta rol o'ynamasada, tarixan taraqqiy topishida uning ahamiyati juda yuqori bo'lgan.

Aholi tabiiy harakati esa ko'pgina yirik va o'rta shaharlarda mamlakat darajasidan ancha past bo'lib, buning asosiy sababi – tug'ilish darajasining pastligi hisoblanadi. Mazkur shaharlarda o'rta yoshli aholi soni yuqori bo'lsada, farzandli bo'lishga ko'pgina yoshlarning iqtisodiy ahvoli, ish yoki karyeraga berilib ketgani xalal beradi. Shaharlardagi bu past tug'ilish darajasi boshqa hududlarga taqqoslaganda, migratsiya hisobiga biroz qoplanishi kuzatilsada, tabiiy o'sish migratsiya bilan birgalikda o'lim darajasidan nisbatan past natijalarni ko'rsatadi. Shahar atrofidagi hududlarda esa migratsiyaning nisbatan yuqori ko'rsatkichlari, tug'ilishning shaharlardagidek past ko'rsatkichlari, qariyalar sonining ko'pligi sababli o'lim darajasi ancha yuqori ko'rsatkichlarni qayd etadi.

III BOB. SHAHARLAR DEMOGRAFIK MUAMMOLARI, HAL ETISH YO'NALISHLARI HAMDA RIVOJLANISH ISTIQBOLLARI

3.1 Yaponiya yirik va o'rta shaharlarining demografik muammolari

Hozirda Yaponiyaning aholi soni hamda iqtisodiy, ijtimoiy, siyosiy va madaniy ahamiyatiga ko'ra eng yirik shaharlari Tokio, Yokohama, Osaka, Kobe, Kavasaki, Fukuoka, Hirosima, Sapporo, Kioto, Nagoya, Kitakyushyu kabilar hisoblanadi. Bilamizki, yirik shaharlarda mamlakatdagi eng birinchi hamda yechimini topishi zarur bo'lgan muammolar aks etadi. Yirik shaharlardagi deyarli barcha muammolar undagi aholi soni hamda unga bog'liq bo'lgan jarayonlarga borib taqaladi.

Zamonaviy Yaponiya shaharlarining asosiy, hozirgi kungacha yechimini topmagan demografik muammolariga quyidagilarni keltirsak bo'ladi:

Shaharlarda aholining sonining ortishi hamda uning mujassamlashuvi. XVII asrdan boshlab dunyo aholisi o'sishi sezilarli tezlashgan bo'lib, 1820-1830-yillarga kelib, u o'zining birinchi milliardiga yetdi. Nafaqat, Yaponiya shaharlari balki, butun dunyo shaharlarida 20-yuz yillik, ayniqsa, uning 2-yarmi shahar aholisi sonining tez o'sishi, yosh va oila tarkibidagi chuqur o'zgarishlar, aholi ichki hamda tashqi migratsiyasi va

urbanizatsiyasi bilan eng muhim davrlardan biri bo'lib hisoblaadi, XX asr oxiriga kelib esa, bu vaziyat keskin ko'rinish oldi va tarixdagi shaharlar aholisi o'sishining, yanada to'g'rirog'i, ichki migratsiya, ba'zi shaharlarda ham tabiiy o'sish, ham migratsiya hisobiga o'sishning eng katta ko'rsatkichlarini namoyon etdi. Bu esa aholining katta qismi turli sabablarga ko'ra shaharlarda to'planishi, uning migratsiya hisobiga tez ortib borishini tufayli yuzaga keladi. Yaponiya shaharlariga ham II jahon urushidan keyingi yillarda migratsiya ko'payganini, 2007-yillardan boshlab, aksincha, pasayish tendensiyalarini aks etganini ko'rishimiz mumkin. Xususan, 2009-2010-yillarda yirik shaharlarga migratsiya quyidagicha ko'rinish olgan: 2009-yilda iqtisodiy markazlardan biri hisoblangan Saytama, Hamamatsu, Nagoya hamda Fukuoka shaharlari aholisi migratsiya hisobiga kamaygan. 2010-yilda 21 yirik shaharlardan 5 tasida aholi migratsiyasi salbiy saldogaga ega bo'lib, bu safar ular qatoriga sobiq poytaxt shahar – Kioto ham qo'shilgan. Ular orasida eng yirik shaharlardan biri hisoblangan, Yaponiyaning sobiq poytaxti, zamonaviy iqtisodiy markazi hisoblangan Osaka shahri esa ketma-ket ikki yil davomida migratsiya salbiy natijalariga ega bo'lganligini ko'rishimiz mumkin. Aksincha, eng ko'p migratsiya doimiy ravishda Hokkaydoning ma'muriy-iqtisodiy markazi hisoblangan Sapporo, dengizbo'yi port shaharlardan eng yirigi – Yokohama, shuningdek, yangi markaziy shaharlar sifatida e'tirof etilgan Sakai, Kumamoto, Sagami-hara, Senday shaharlariga ortgan.

3.1.1-jadval.

2009-2010-yillarda Yaponiya yirik shaharlariga migratsiya dinamikasi⁸⁷

Shaharlar	Migrantlar soni		2010-yil 2009-yilga nisbatan migratsiya saldosi
	2009	2010	
Sapporo	1 254 314	1 225 506	28 808
Senday	65 206	61 907	3 299
Saytama	44 701	43 306	1 395
Chiba	53 976	51 157	2 819

⁸⁷ Yaponiya ichki Ishlar va Aloqa vazirligi yillik statistik to'plami asosida muallif tomonidan hisoblangan


Tokio maxsus tumanlari	39 563	37 513	2 050
Yokohama	345 888	334 899	10 989
Kawasaki	127 773	122 121	5 652
Sagamihara	79 173	74 295	4 878
Niigata	...	18 789	18 789
Shizuoka	18 490	18 120	370
Hamamatsu	17 317	16 561	756
Nagoya	18 014	16 541	1 473
Kioto	83 179	76 083	7 096
Osaka	41 558	40 280	1 278
Sakai	96 982	93 127	3 855
Kobe	25 755	24 212	1 543
Okayama	44 321	42 641	1 680
Hiroshima	15 154	21 466	-6 312
Kitakyushu	37 903	36 673	1 230
Fukuoka	27 546	26 081	1 465
Kumamoto	71 815	69 734	2 081

Aholining yirik shaharlarda konsentratsiyalashuvi oqibatida mamlakat iqtisodiy rivojlanishida **mintaqaviy nomutanosibliklar** yuzaga keladi. Ya'ni, migratsiya oqibatida yirik shaharlarda narxlar, ayniqsa, uy-joy hamda ijara ko'tariladi, aholi harakati bilan parallel ravishda daromadlar oqimi, bank faoliyati, investitsiya kiritiluvchi hududlar ham o'zgarib ketadi. Aholi migratsiyasi hisobiga salbiy saldoga ega bo'lgan shahar iqtisodida pasayish, aksincha, migrantlarni qabul qilib olgan shahar iqtisodida ko'tarilish holatlari yuzaga keladi. Aholining bir hududga to'planishi, uning migratsiya hamda tabiiy o'sish hisobiga tez kattalashishi iqtisodiy va ijtimoiy zo'riqishga olib keladi. Bir vaqtning o'zida juda ko'p aholini oziq-ovqat, ichimlik suvi, zarur birlamchi ehtiyoj mollari bilan ta'minlash hududga nisbatan bosimning ortishiga olib keladi. Boshqa tomondan mamlakatning barcha hududlari bir tekis rivojlanmasligi uchun sharoit "yaratib beradi". Oqibatda, rivojlanish tezlashgani sari iqtisodiy rivojlangan hududlardan rivojlangan hududlarga yana yangi aholi kelib qo'shilaveradi, nisbatan rivojlanmagan hududlar esa tobora tashlab ketilgan hududlarga aylanib qoladi.


Bu kabi jarayonlar hozirda Yaponiya, ayniqsa, uning Tinch okean bo'yi sanoat mintaqasida ham kuzatilib, Yaponiyaning mazkur sanoat mintaqasi

hozirda turli katta, oʻrtacha va kichik aholi konsentratsiyalashgan hududlardan tashkil topgan eng zich metropoliten mintaqaga aylanib bormoqda. Bu kabi aholi konsentratsiyalashgan hududlar mamlakatda Hokkaydo orolidan boshlab Kyusyu oroligacha choʻzilgan boʻlib, u qishloq hududlariga tegishli hududlarni ham tobora mamlakat urbanistik tizimining ajralmas qismiga tortib bormoqda.


Tinch okean sanoat mintaqasi u 70 mln. kishidan ortiq aholini oʻz ichiga qamrab oladi. Bu katta hajmli urbanizatsiyalashgan mintaqada bir necha yuz kilometrda oʻz ichiga mamlakatning eng yirik aglomeratsiyalari – Tokio, Yokogama, Kavasaki kabilarni olib, shu bilan birgalikda ularga tegishli poytaxt metropolitenli hududi – Keyxin aholisi bilan 30 mln.; Nagoya, Kioto metropoliten hududi, Osaka metropoliten hududi, Kobe va boshqalarni qoʻshib hisoblaganda, 25 nisbatan kichikroq aglomeratsiyalar asosida shakllangan. Bu




3.1.1-rasm. 2013-yilda Yaponiyada mahsulot yetkazib berish bo'yicha uy xo'jaliklarida shaharlar ulushi



3.1.2-rasm. 2013-yilda Yaponiyada uy xo'jaliklari soni bo'yicha shaharlar ulushi



3.1.3-rasm. 2013-yilda Yaponiyada har bir uy xo'jaligiga to'g'ri keluvchi aholi soni bo'yicha shaharlar ulushi



3.1.4-rasm. 2013-yilda Yaponiyada har bir uy xo'jaligida daromad keltiruvchi aholi soni bo'yicha shaharlar ulushi

sanoat mintaqasida mamlakat aholisining deyarli 60 foizdan ortig'i to'plangan bo'lib, hudud mamlakat umumiy sanoat mahsulotining 2/3qismi ishlab chiqariladi.⁸⁸

Bundan bir qancha hududiy muvozanatning buzilishi, aholining yirik shaharlarda to'planishi kabi muammolar kelib chiqqan. Birinchidan, Yaponiya aholisi kichik hududda, bundan tashqari bir necha yirik shaharlarda konsentratsiyalashgan. Ikkinchidan, shaharlar tizimi 1950-1970-yillarda – bir mintaqaning qancha yirik aholi manzilgohlarida, ayniqsa, Tokio va Osaka shaharlari hamda ularning atrofida juda keskin o'sish kuzatilgan vaqtda yuzaga kelgan bo'lib, tendensiya pasaygan bo'lsada, shu yillarda kelib o'rnashgan aholi tabiiy o'sishi, mavjud migratsiya holati shaharlarda katta demografik bosimni hosil qilmoqda. Uchinchidan, ko'pgina muhim rivojlangan markazlar sanoatga ixtisoslashtirilgan bo'lib, shaharlarda ekologik holatni yaxshilash borasida ko'rilayotgan chora-tadbirlar faollik bilan olib borilayotgan bo'lsada, yetarlicha samara bermayapti. Natijada, ishlab chiqarishni aholi nisbatan kam hududlarga ko'chirish yoki uni mos holda taqsimlash masalasi ko'ndalang turibdi. To'rtinchidan, metropoliten hududida 1950-yillarda aholining konsentratsiyalashuvi kuzatilgan bo'lsa, 1960-yillardan bu holatning ancha kamayishi kuzatilgan. Boshqacha aytadigan bo'lsa, markazga nisbatan markaz atrofi tezroq o'sgan. Bu esa o'z navbatida metropoliten hududini ish bilan, uning atrofini esa zarur turar-joy, ijtimoiy infratuzilma, transport bilan ta'minlash kabi hali-hanuzgacha hal etilmagan juda katta muammolarni javobsiz qoldirmoqda.

Transport muammolari. Shaharlarda aholi soni ko'paygani sari unda qatnab ishlovchi yoki o'quvchi aholi soni shuncha ko'payadi. Bu esa o'z navbatida tonggi va kechki tig'iz vaqtda, birdaniga ko'p sonli aholi bir vaqtda harakat qiluvchi vaqtlarda katta muammolarni yuzaga keltiradi.

3.1.2-jadval.

2013-yilda Yaponiya uy xo'jaliklariga to'g'ri keluvchi turmush darajasi ko'rsatkichlarining shahar hamda qishloqlaridagi ko'rinishi (oylik daromad

⁸⁸ <http://www.idcj.or.jp>

hisobida ikki kishi va undan ortiq oila a'zosiga ega bo'lgan uy xo'jaliklariga nisbatan)⁸⁹

Ko'rsatkichlar	Yirik shaharlar	O'rta shaharlar	Kichik shaharlar A	Kichik shaharlar B va qishloqlar
O'rta darajadagi avtomobil sug'urtasi (majburiy)	925	1 301	1 625	1 953
O'rta darajadagi avtomobil sug'urtasi (ixtiyoriy)	2 758	3 468	3 797	4 640
Suvga talab va drenaj xarajatlari	982	1 858	2 293	1 521
Bog', daraxt va o'simliklar parvarishi xarajatlari	240	250	494	726
Dars va maktabgacha olib borish xarajatlari	605	1 390	1 341	1 887
To'y va bazm xarajatlari	649	682	3 013	2 147
Dafn xarajatlari	3 147	2 576	6 424	5 127
Yashash uchun ijaraga xarajatlar	13 475	7 556	4 542	2 945
Yer uchun to'lovlar	754	272	267	102
Xususiy ta'lim uchun to'lovlar(maktabgacha ta'lim-oliy ta'lim)	9 241	7 724	5 244	4 612
Maxsus (repetitorlik) ta'lim	3 667	3 360	2 612	1 719
Internet to'lovlari	2 305	2 063	1 864	1 644
Internet orqali savdodan tushgan umumiy daromadlar	6 607	5 124	3 894	4 066
Samolyot to'lovlari	1 034	652	419	430
Chet mamlakatlarga turpaketlar to'lovlari	3 170	2 773	1 917	1 253
Sport anjomlari uchun ijara to'lovlari	1 408	971	756	566
Umumiy byudjetga daromad keltiruvchi uy xo'jaliklari soni	4 713	5 661	4 761	2 921

Katta yoshli aholining shaharlarga ko'chishi muammosi. Ma'lumki, sanoat rivoji, mamlakat taraqqiyoti yaxshi daromad, barqaror va doimiy ish topish imkoni, qulay sharoit mavjudligi mehnat resurslarini doimo shaharlarga jalb etib

⁸⁹ Statistical Bureau Ministry of Education, Culture, Sports, Science and Technology

turadi. Yaqin yillargacha Yaponiya tajribasida ham barcha rivojlangan mamlakatlarda kuzatilgan holat – yosh, mehnatga yaroqli aholining shaharlarga intilishi kuchliligi, katta yoshli aholining nisbatan qishloqlarda qolishi kabi holatlar kuzatilgan edi. Ammo, hozirga kelib, katta yoshli aholining ham shaharlarga tortilish jarayoni boshlanganini kuzatish mumkin bo‘lib qoldi. Agar yoshroq mehnat resurslarini ish joyi, daromad ko‘proq qiziqтира, katta yoshli aholini shaharlarga intilishini ularga qulay bo‘lgan barcha sharoitlar yaratilgani izohlab beradi.

3.1.3-jadval.

2013-yilda Yaponiya uy xo‘jaliklari axborot-kommunikatsiya bilan ta’minlanish ko‘rsatkichlarining hududlar taqsimotidagi ulushi (oylik daromad hisobida ikki kishi va undan ortiq oila a’zosiga ega bo‘lgan uy xo‘jaliklariga nisbatan)⁹⁰

Ko‘rsatkichlar	Yirik shaharlar	O‘rta shaharlar	Kichik shaharlar A	Kichik shaharlar B va qishloqlar
Uy telefon to‘lovlari (aloqa va internet uchun)	1 089	1 071	738	561
Uy telefon to‘lovlari (aloqa uchun)	451	538	425	385
Velosipedlar	408	126	167	233
Shaxsiy kompyuterlar	1 216	776	884	683
Raqamli aloqa tyunerlari va antennalar	46	51	50	3
Internet orqali savdoda qatnashuvchi uy xo‘jaliklari	1 291	1 323	889	511

Yolg‘iz qariyalarning sharoitga moslashuvi muammosi. Yaponiya shaharlaridagi katta muammolardan biri sifatida o‘z farzandlari yoki yaqinlari bilan yashayotgan katta yoshli aholining miqdori ham kamayib borayotganini ko‘rsatishimiz mumkin. Ularning tarkibida tashlab ketilgan yoki boquvchisini

⁹⁰ Statistical Bureau Ministry of Education, Culture, Sports, Science and Technology

yo‘qotgan qariyalar juda ozchilikni tashkil etadi. Bu kabi aholi qatlamining yuzaga kelishiga asosiy sabab ularning yolg‘iz hayotni afzal ko‘rishlari yoki umuman turmush qurmasliklari hisoblanadi. Darhaqiqat, ko‘pgina yapon yoshlari turmush qurib, farzandli bo‘lishni xohlamaydilar. Chunki bu holat karyerada o‘shini to‘xtashiga yoki sekinlashishiga, shuningdek, iqtisodiy jihatlariga borib taqaladi. Ba’zi mutaxassislarning fikricha, hozirda ko‘proq rivojlangan mamlakatlarga xos bo‘lgan oilaning jamiyat instituti sifatida yo‘q bo‘lib ketishi keyinchalik rivojlanayotgan mamlakatlarga ham tarqalishi mumkin.

Qishloqlarning bo‘shab qolishi va mamlakat YaIM tarkibida qishloq xo‘jaligi ulushi keskin tushib ketishi. Yaqin o‘n yillikda BMT tomonidan birinchidan, qishloq aholisi absolyut sonining o‘shishi to‘xtashi va bundan buyon kamaya borishi, ikkinchidan, qishloq aholisining shaharlarga ko‘chib o‘tishi kuzatila boshlaydi. XXI asrga kelib, dunyoda ilk marotaba shahar aholisi qishloq aholisi sonidan o‘zib ketdi. Shu jihatdan olib qaraganda, shahar aloqalari o‘zining barcha ijtimoiy xususiyatlari bilan miqdoriy jihatiga har tomonlama bog‘langan va rasmiy ravishda sifat jihatdan yetakchilik qiladi.

Yaponiya qishloqlarida aholi sonining kamayib borishi, keksa yoshli aholining ham shaharlarda yashashga intilishi oqibatida katta-katta hududlar, qishloqlar aholidan bo‘shab qolishi mumkin. Shuningdek, qishloq xo‘jaligida mashg‘ul aholi sonining tobora kamayib borishi mamlakat YaIM tarkibida o‘zgarishlarni yuzaga keltirib chiqaradi. Fermerlarga doimiy ravishda imtiyozlar berilganligi sababli hozirda mamlakatda qishloq xo‘jalik mahsulotlarini ishlab chiqarish normal holatda saqlanib qolmoqda. Yaponiya qishloq xo‘jalik mahsulotlarini import qilib olish imkoniga ega bo‘lsada, bu o‘z navbatida mamlakat oldiga oziq-ovqat xavfsizlik masalalarini ko‘ndalang qilib qo‘yadi.

3.1.4-jadval.

2013-yilda Yaponiya uy xo‘jaliklarida qishloqlarda yuqori ko‘rsatkichlarga ega bo‘lgan turmush darajasi ko‘rsatkichlarining hududlar taqsimotidagi

**ulushi (oylik daromad hisobida ikki kishi va undan ortiq oila a'zosiga ega
bo'lgan uy xo'jaliklariga nisbatan)⁹¹**

Ko'rsatkichlar	Yirik shaharlar	O'rta shaharlar	Kichik shaharlar A	Kichik shaharlar B va qishloqlar
O'qish yoki ishlash uchun stol va stullar	283	278	208	463
Uy garniturası	130	118	114	286
Keng mehmonxona yoki dam olish xonasi	75	146	130	298
Musıqa jihozlari	45	132	41	1 822
Avtomobil (yangi)	10 152	16 256	20 862	21 942
Avtomobil (ishlatilgan)	4 296	4 342	3 584	7 167
Mashina navigatsiya tizimi	34	262	295	201
Jo'natmalar (pul ko'rinishida)	3 809	4 687	4 618	5 910
Pul ko'rinishidagi sovg'alar	4 806	7 893	9 492	13 001

Yirik shaharlarda eng ko'p kuzatilayotgan muammolardan yana biri – **ruhiy hamda jismoniy o'zgarishlar** hisoblanadi. Ularga misol qilib, shovqin darajasi belgilangan me'yorlardan yuqoriligi, mehnat resurslarining bandlik darajasi oshishi, bolalar gipokineziyasi kabilarni ko'rsatishimiz mumkin.

Shaharlar uchun shovqinning o'rtacha me'yori kunduzgi vaqtda 55 detsibeldan oshmasligi zarur bo'lib, yirik shaharlarning deyarli hech birida bu me'yorga amal qilinmaydi. Oddiygina avtomobil magistrallarida shovqin 80 detsibeldan ortib ketadi. Yirik shaharlarda esa, bu raqamlarning yanada yuqori ko'rsatkichlarni ko'rsatishi guvohi bo'lishimiz mumkin. Ammo, shaharlarda shovqin darajasini tekshirib, uni cheklab borishning ilojisi yo'q, chunki, uni o'lchovchi asboblari kashf etilgani bilan, amalda shovqinni cheklash uchun aynan bir obyekt yoki shaxsni mas'ul qilish imkoniyati berilmagan. Bu holat eshitish qobiliyati pasayishiga, me'yoridan ortiq bo'lgan shovqinning doimiy davomiyligi

⁹¹ Statistical Bureau Ministry of Education, Culture, Sports, Science and Technology

asta-sekinlik bilan kar bo‘lib qolishga, odamda asab kasalliklarining rivojlanishi, qon bosimi ko‘tarilishi, turli ko‘rinishdagi nevroz paydo bo‘lishi, xulq-atvorning tajovuzkorligi ortishiga olib keladi. Shuningdek, aynan shu uzoq ta’sir etgan shovqin tufayli, shaharlarda shizofreniya kasalligi rivojlanishi o‘n barobar ko‘p ekanligi kuzatilgan.

Havo emas, balki, qurilish konstruksiyalari orqali uzatilgan shovqin vibratsiya deb ataladi. Bu titrashlarning asosiy manbalari – tramvay va metropolitan yo‘llari, temiryo‘llar va avtotransport magistrallari hisoblanadi. Ular nafaqat, asab buzilishlarini keltirib chiqaradi, balki, binolarning tez nurashiga ham sababchi bo‘ladi. Aynan shu shovqin bilan bog‘liq tajribalar ko‘rsatishicha, akvariumga solingan baliqlarning nafas olishidan tezroq ishlaydigan budilnik jonivorlarda o‘limga olib kelgan. Bu titrashlar zarar yetkazmasligi uchun aholi turarjoylari tramvay yo‘llaridan 25-30 metr, temiryo‘llardan 50 metrgacha uzoqlikda qurilishi lozim.

Oxirgi yillarda shaharlar aholisida texnik ta’minotning juda yuqori ko‘rsatkichlari **gipokineziyaga** olib kelmoqda. Ya’ni, bundan yuz yillar avval aholi epidemiyalar natijasida katta miqdorda kamaygan bo‘lsa, hozirda yuqori darajadagi texnik ta’minot oqibatida aholi o‘rtasida infarkt, insult, ateroskleroz kasalliklaridan o‘lim soni ko‘payayotgani guvohi bo‘lishimiz mumkin. Yirik shaharlarda o‘lim holatlarining deyarli yarmi qon aylanish va asab kasalliklaridan yuzaga kelmoqda. Shu bilan birga, 25-30 yoshli aholi qatlamida qarishning ilk belgilari kuzatilmoqda. Statistik ma’lumotlarga qaraganda, yuqori sinf o‘quvchilari jismoniy tayyorgarligi oliy ta’lim muassasalari bitiruvchilari tayyorgarligidan ancha yuqori ekanligi aniqlangan. Yirik shaharlarda bu eng avvalo, bolalarda namoyon bo‘ladi. Bola ertalabdan to tushgacha deyarli ortiqcha harakatsiz darsda o‘tiradi, uyda esa dars tayyorlash maqsadida stolda soatlab harakatsiz qolib ketadi, shuningdek, kompyuter yoki video o‘yinlar bilan “dam oladi”. Jismoniy o‘yinlar, yugurish, mashq qilish uchun esa, bolada hech qanday vaqt qolmaydi.

Yaponiyada, ayniqsa, o‘rta yoshli aholi qatlamidan ko‘ra ko‘proq yosh bolalarda gipokineziya kasalligini kuzatish mumkinligi xavotirli holat hisoblanadi.

Hozirda Yaponiyada turli video, kompyuter, qo'lda o'ynash mumkin bo'lgan texnik o'yinlar juda ommalashib ketib, uy bekalari, ota-onalar farzandlari qo'lidan ularni olib qo'yish, ko'chada jismoniy o'yinlar bilan chalg'itishga harakat qilsalarda, bolalarning darsdan tashqari barcha bo'sh vaqtlarida ortiqcha jismoniy harakat qilmasdan o'yin o'ynash bilan band bo'lmoqdalar. Bu kasallikning paydo bo'lishiga nafaqat, o'yinlar, bolalarning o'zlari, balki, ota-onalar ham sababchi bo'lishi mumkin. Ular farzandlarini musiqa, rasm chizish, chet tili bilan shug'ullanishga majbur qiladilar va bu kabi mashg'ulotlar boladan qabul qilish qobiliyatidan qat'iy nazar, tinimsiz shug'ullanishni, ko'p vaqtini kitoblar ustida, uyda o'tkazishini "ta'minlab beradi".

Yer litosferasi bilan bog'liq turli muammolar kelib chiqishi mumkin: aholi sonining muntazam oshib borishi yangi ish o'rinlari hamda ko'p miqdorda turar-joy binolarini talab qiladi. Oqibatda, to'xtovsiz qurilishlar jarayonida Yer relyefi o'zgarib ketishi, katta bo'lmagan miqdordagi suv manbalari va daryolar qurib qolishi, grunt suvlari sathining ko'tarilishi kuzatiladi. Insonning past ekologik madaniyati maishiy chiqindilar bilan muammolar kelib chiqishi, sanoatning ishlab chiqarish jarayoni chiqindilari bilan litosferani zaharlashi kabi muammolar ham mavjud. Chunki, ko'p mamlakatlarda maishiy chiqindilar yerga ko'miladi. Bu esa bir necha o'n yillar davomida yerdan foydalanishni cheklab qo'yadi. Yirik shaharlarda esa maishiy va sanoat chiqindilarining turi ko'pligi, uning deyarli qayta ishlanmasligi barcha chiqindini topshirishga majbur qiladi. Ular orasida shunday chiqindi turlari mavjudki, ularni qayta ishlab bo'lmaydi, uzoq vaqt chiqindi qutisida qolib ketgan holatlarda esa zaharli gazlar chiqarishi yoki uni chiqindi qutisida saqlashning o'zi atrof-muhitga zaharli moddalarning tarqalishiga olib keladi.

Yirik shaharlar, ularda aholi soni ko'payishining shu hudud **gidrosferasiga ta'sirini** qishloqlar bilan taqqoslaganda, suvga talabning 10 barobar yuqori ekani (sutkasiga 400 l. gacha) ning o'zidayoq ko'rsak bo'ladi.

Atmosfera tarkibi esa, uchuvchi gaz holatidagi chiqindilar, chang, shahar chetida joylashgan fabrikalar va zavodlar tutuni tufayli yirik

aglomeratsiyalarda yuzaga keluvchi holat tufayli salbiy tomonga o'zgarib boradi. Shuningdek, unda transport faoliyati ham katta ahamiyatga ega. Shahar qatnovi yuqoriligidan shovqin hamda tutun hisobiga havo tarkibida ifloslovchi moddalar ko'payadi.

Ertalabki va kechki tig'iz vaqtda yo'llardagi shaxsiy avtomobillar tiqinlarni yuzaga keltiradi, to'xtab turgan holatda yo'l yurmasdan, yoqiq qoldirilgan dvigatel orqali atmosferaga behuda zaharli tashlama gazlar chiqaradi. Shunisi ahamiyatliki, Yaponiyada katta shaharlardan ko'ra ko'proq, qishloqlarda shaxsiy avtomobillar soni ancha yuqori. Chunki, uzoq vaqt sarflab yo'lga chiqish, buning ustiga katta miqdordagi yo'l haqi umumiy summasi va vaqt samaradorligi nuqtai nazaridan shaxsiy avtomobilga ega bo'lgan holat ancha ko'proq foyda keltiradi. Shunday bo'lsada, shaxsiy avtomobillarning soni yirik va o'rta shaharlarda ancha ko'p.

Avtomobil gazlari – 200 xil tutun va zahar aralashmasi bo'lib hisoblanadi. Unda yonmagan va to'liq yonmagan uglevodorodlar mavjud bo'lib, bu gazlarni katta miqdorda iste'mol qilish o'linga olib keladi. Normal sharoitda o'rtacha benzin sarflab ishlagan mashina dvigateli o'rtacha 2.7 foiz uglerod oksidi, tezlik kamaytirilgan holatlarda 3.9 foizgacha, past tezlik bilan yurilgan holatda 6.9 foizgacha uglerod oksidi ishlab chiqaradi. Shuningdek, har bir litr benzin o'zida 1 grammgacha qo'rg'oshin tutadi. Qo'rg'oshin tashqi muhitni zaharlovchi eng faol moddalardan biri bo'lib, u zamonaviy dvigatellar qattiq siqilishidan yuzaga keladi. Katta shaharlarda yashovchi qushlar sog'lig'i holati tadqiq etilganida, shunday tendensiya kuzatilganki, shaharlarda yashovchi kaptarlar tanasida qishloqlardagiga qaraganda 10 barobar ko'proq qo'rg'oshin moddasi mavjud ekanligi aniqlangan. Tibbiy nuqtai nazardan, uglerod oksidi qondagi gemoglobin bilan birikadi va undagi kislorod miqdorini kamaytiradi.

Fotozaharli tumanlar yilning issiq paytida ko'proq sodir bo'lib, bu vaqtda havodagi kislorod miqdori ham ancha past bo'ladi. Bu oddiy tumanga o'xshab ketsa ham, o'zida eng zaharli moddalarni jamlaganligi, tezda tarqalib ketmasligi, kun issiq vaqtda shaharlar ustida doimiy gumbazdek qoplanib turishi, kuchsiz shamol ham ularni haydab keta olmasligi bilan ajralib turadi. Bundan, nafaqat,

insonlar, flora va fauna, shu bilan birga, binolar, tarixiy obyektlar ham zarar ko‘radi. Shuningdek, u agar shahar ustini qoplab olsa, o‘zidan quyosh nurlarini o‘tkazmaydi, natijada, ayni vegetatsiya davrida o‘simliklarning aksincha, kamayib ketishi yoki yetarlicha samarali havoni tozalay olmasligi yuzaga keladi. Uning ta’siri, ayniqsa, shaharlarda qattiq seziladi, chunki, havodagi kislorod miqdori yetarli bo‘lmagan hududlarda fotozaharli tumanlar ikki marta ko‘proq kislorod miqdorini kamaytirib yuboradi. Bu kabi tumanlar nafaqat, Yevropa mamlakatlari yirik shaharlari – Nyu-York, London, Birmingem va boshqalar uchun balki, rivojlangan Yaponiya shaharlari – Tokio, Osaka, Yokohama, Kawasaki uchun ham xos bo‘lib hisoblanadi. Yaponiya esa, iqlimi nuqtai nazaridan, ayniqsa, yoz faslida, ham issiq, ham dim ob-havo yuzaga kelishini hisobga olsak, Hokkaydo orolidan janubda joylashgan deyarli barcha yirik shaharlar havoning namligi yuqoriligi bilan ajralib turadi. Namlik yuqori bo‘lgan ob-havoda zaharli gazlarning bug‘lanib ketishi ancha qiyin bo‘lib, u faqatgina shahar ustida emas, balki, pastroq qatlamda ham kuzatilishi mumkin. Bu davrda zaharli gazlarning tarqalishi uchun havoning nisbatan sovishi yoki quyoshning qattiq qizitishi zarur bo‘ladi.

Shuningdek, nafaqat, avtomobillardan chiqayotgan gazlar, balki, ishlab chiqarish, sanoat tashlama gazlari ham atrof-muhitni ifloslovchi asosiy faktorlardan biri bo‘lib xizmat qiladi. Oxirgi yigirma yilda Tokioning o‘zida yashil mintaqa 18 foizga qisqarganligi hukumatga bu hududdan ishlab chiqarishni boshqa hududlarga tarqatishi lozim ekanligini ko‘rsatdi.

Sanoat, qayta ishlash sohasi korxonalari tashlama gazlaridan yuzaga kelgan **kislota yomg‘irlari** nafaqat, insoniyat, balki, o‘zimlik va hayvonot dunyosi uchun ham o‘ldiruvchi ta’sir ko‘rsatadi. Oqibatda, yirik shaharlarda, ayniqsa, zarur o‘simliklar va daraxtlar qurib oladi. Metall buyumlar esa odatdagidan, uch barobar kamroq vaqtga xizmat qiladi. Kislota yomg‘irlari boshqa zaharli muammolardan farqi shundaki, u siklli davomiy ta’sir ko‘rsatishi mumkin, ya’ni u inson terisiga tekkan holda o‘yuvchi ta’sir qilishi, o‘simliklar ustiga yoqqan holda ularni quritib yuborishi yoki ular tarkibidagi zaharli moddalar miqdorini oshirishi, ularni iste’mol qilgan odamlar va hayvonlarda esa, ushbu zaharli moddaning miqdori

oshrishi kuzatilgan. Shu bilan birga, ularning yerga singishi oqibatida yerlar ham zaharlanadi, yerosti suvlari sugʻorishga hamda qayta ishlab ichimlik suviga aylantirishga yaroqsiz holatga kelib qoladi.

Yirik shaharlarda toʻplangan koʻp sonli aholini **favqulodda holatlar yoki tabiiy ofatlar** yuz bergan holda aholini tezlik bilan evakuatsiya qilish, ularni qutqarib qolish imkoniyatlari ancha kamayadi. Bilamizki, Yaponiya kuchli seysmik mintaqada joylashgan boʻlib, yiliga yuzdan ortiq tayfun, shuningdek, bir qancha tsunamilar hisobga olinadi. Hududining kichikligi, yer resurslaridan oqilona foydalanishga majbur etishi, aholining dengiz boʻyiga yaqin shaharlarda konsentratsiyalashuvi koʻp qavatli imoratlarning koʻplab qurilishiga, ikki va undan ortiq qavatli avtomobil yoʻllari barpo etilishiga, mashina toʻxtash joylarini yerosti ikkinchi yoki uchinchi qavatlarga joylashtirish zaruriyatini keltirib chiqaradi. Natijada binolarni jahon standartlariga mos ravishda pishiq temir-beton konstruksiyasidan foydalangan holda qurishga toʻgʻri keladi. Halokat roʻy bergan vaqtda ularning buzilishi aholi orasida oʻlim holatlarini kuchaytirib, halokatdan soʻng qutqaruv ishlarini qiyinlashtiradi, shuningdek, omon qoluvchilar sonini ancha kamaytiradi, tozalash ishlarini kechiktirib yuboradi. Vaqt oʻtishi bilan tsunami yoki qattiq yer qimirlashidan soʻng yuzaga kelgan oʻchoqlar: yuvilib ketgan yoʻllar, chiqindilar toʻplangan joylar shahar ichida dogʻga oʻxshab qolib ketadi. Buning ustiga shaharni qayta tiklash va tozalash ishlari ham koʻp vaqtni oladi.

3.2 Yaponiya shaharlarida demografik muammolarni hal etish yoʻnalishlari va undan Oʻzbekiston tajribasida foydalanish imkoniyatlari

Aholi yuqori darajada mujassamlashgan hududlarda demografik siyosat olib borish, mazkur hududlarda yuzaga kelayotgan muammolarning yechimini topish, shaharlar, ularning aholisini muhofaza qilish, qishloq aholisi texnik taʼminoti, turmush darajasini shaharlar darajasiga yetkazish mamlakat ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyoti uchun katta ahamiyatga ega masalalardan biri boʻlib hisoblanadi. Jumladan, Yaponiya yirik va oʻrta shaharlarida ham shunday

muammolar mavjudki, ularni hukumat aralashuvisiz hal etish yoki ma'lum imtiyozlar, cheklovlar, imtiyozlarni bekor qilish orqali boshqarish alohida ahamiyatga ega bo'lib hisoblanadi.

Aholi siyosati tarkibiga nafaqat, shahar hududlarida aholini rivojlantirish maqsadida olib boriluvchi barcha chora-tadbirlar hamda dasturlar, balki, ijtimoiy-iqtisodiy siyosat, loyihalar, qonunchilikni rivojlantirib borish hamda aholining turli ko'rsatkichlarini yaxshilash, oqimini va ko'rsatkichlarini o'zgartirish maqsadidagi har qanday choralar ham kiritiladi. Aholi rivojlanishi uning sifat va miqdoriy jihatlarida namoyon bo'lib, miqdoriy jihatida ma'lum davrda ma'lum hudud aholisi yoki millatning miqdor-son jihatdan o'zgarib borishini ifodalasa, sifat jihatdan esa odatda, salomatlik, o'rtacha va kutilayotgan umr uzoqligi, savodxonlik darajasi, oliy ma'lumotli aholi miqdori va shu kabi ko'rsatkichlarda aks etadi.

Quyida Yaponiya shaharlarida ko'p uchraydigan muammolar hamda ularga oid yechimlarning ba'zilarini ko'rib o'tamiz.

Yuqorida **shaharlarda aholi sonining ortishi hamda uning mujassamlashuvi** aholi zichligi hamda turli xil demografik bosimning ortishi, ekologik va boshqa muammolarni keltirib chiqarishini ko'rib o'tgan edik.

Kuzatishlar natijasida shuni aytishimiz mumkinki, aholi uzoq yillik migratsiya harakatlari hukumatning shaharlarga bo'lgan e'tibori bilan chambarchas bog'liq. Chunki, hukumat yangi muhim, markaziy yoki hukumat ahamiyatiga ega shaharlarni shakllantirishni boshlagan vaqtda, aholi zudlik bilan ushbu ijtimoiy-iqtisodiy jihatdan juda qulay, aholi nisbatan kam, aholi zichligi past, ekologik sharoiti yashab turgan hududiga nisbatan talablarni qondiruvchi darajada bo'lgan yangi shaharga ko'chib o'tishni boshlaydi. Bu holat keyingi shunday shaharlarning yangidan paydo bo'lguniga qadar davom etadi va takrorlanadi.



Hozirgi holati

Keyingi holati



3.2.1-rasm.Yaponiyada “Yangi shahar” yaratish loyihasi⁹²

Yuqorida ko‘rib o‘tilganidek, har bir turdagi shahar boshqalaridan, ayniqsa, hukumat ahamiyatiga ega shaharlar imtiyozlar ko‘p berilganligi, iqtisodiy-ijtimoiy infrastrukturaning yuqori darajada barpo etilganligi bilan ajralib turadi. Shu sababli ham aholi iloji boricha shunday shaharlarga ko‘chib o‘tishga va yashashga intiladi. O‘z navbatida, aksincha holatni ham kuzatishimiz mumkinki, ba’zi yirik shaharlarda aholi emigratsiyasi immigratsiyaga nisbatan ijobiy saldogga ega. Bu holatni esa shunday aholi zich, shovqin, ishlab chiqarish rivojlangan hududdan boshqa hududlarga borib o‘rnashish – “shaharlardan qochish” sifatida baholash mumkin. Bu fikrlar isbotini uzoq yillar davomida muhim, markaziy hamda hukumat ahamiyatiga ega shaharlar rivojlantirilishi va ularning soni ko‘paytirilishi aholining galdagi migratsiya oqimi o‘zgarishiga proporsional ekanligida ham ko‘rishimiz mumkin. Bu o‘z navbatida, iqtisodiy ahvolning deyarli bir xil sharoitida demografik bosim nisbatan past va ekologik sharoit ancha yaxshi hududlarda yashash imkoniyatini, aholida bunday hududlarga talab yuqori ekanligini ko‘rsatadi. Bunda shunday fikrlar ham mavjudki, hukumatning aynan mamlakatning barcha hududlarini birdek rivojlantirish, aholi zichligini hududda kamaytirish, demografik bosimni pasaytirish yo‘lida olib borayotgan loyihalari sifatida ham qabul qilinishi mumkin. Ammo, bunda nafaqat, hukumat qaroriga ko‘ra yaxshilanishni, balki, tabiiy ofatlar ta’siri natijasida har qanday imtiyoz

⁹²<http://www.city.chiba.jp/sogoseisaku/sogoseisaku/tokei/jinkou.html>

berilgan holatda ham aholini tabiiy ofat yuz bergan hududlarga qaytib bormasligini, hattoki, shu shahar aholisi ham tabiiy ofatlardan so'ng tiklangan shaharga qaytib borish xohishi yo'q ekanligini 2011-yilgi kuchli yer qimirlashida katta talofot ko'rgan Tohoku mintaqasi shaharlari, jumladan, bu mintaqada joylashgan Fukushima shahri, tsunami oqibatida qirg'oqbo'yi hududlari deyarli yuvilib ketgan Miyagi prefekturasi aholisi o'rtasida o'tkazilgan anketa-so'rovlar natijalarida ham ko'rishimiz mumkin. Bu halokat yuz bergan vaqtda zudlik bilan xavfsiz hududlarga, Fukushima shahri aholisi esa ahvol yomonlashishi bilan hududlar bo'yicha bosqichma-bosqich tarzda evakuatsiya qilingan.



Hozirgi holati

Keyingi holati



3.2.2-rasm. "Shahar markazlarini qayta rivojlantirish" loyihasi⁹³

Mintaqaviy nomutanosibliklarni kamaytirish, Tinch okean bo'yi sanoat mintaqasidagi iqtisodiy, demografik bosimni kamaytirish, seysmik jihatdan faol mintaqada istiqomat qiluvchi ko'p sonli aholi xavfsizligini ta'minlash maqsadida Yaponiya hukumati shaharlarni sharqqa qarab kengaytirish loyihalarini ko'rib chiqmoqda.

⁹³<http://www.city.chiba.jp/sogoseisaku/sogoseisaku/tokei/jinkou.html>



Hozirgi holati

Keyingi holati



3.2.3-rasm. “Shaharni qayta qurish” loyihasi⁹⁴


Ammo, bu juda uzoq davrga mo‘ljallangan loyihalar bo‘lib hisoblanib, mamlakatning deyarli 70 foiz sanoat mahsulotlarini beruvchi, aholining deyarli 60 foizi to‘plangan mazkur mintaqaning ahamiyatini kamaytirish, unda to‘plangan sanoat va aholini o‘z xohishiga ko‘ra mos joylashtirish, sharqiy hududlarda shunga mos holda ijtimoiy-iqtisodiy infrastrukturani yaratish katta mablag‘larni talab qiladi. Chunki, ijtimoiy muammolar ortgani sari ijtimoiy soha talabgorlarining talabini qondirish uchun katta miqyosda qurilish yoki kengaytirish ishlarini yo‘lga qo‘yish zarur. Natijada, davlat yoki prefektura byudjeti iqtisodiy sohadan daromad ko‘rgani bilan bir qatorda, ijtimoiy sohaga xarajatlar ham ko‘paya boradi.

Ekspertlar tomonidan Senday shahri misolida shaharlarni joylashtirish, ularni rejalashtirish loyihalari ishlab chiqilgan bo‘lib, chap tomonda Yaponiya shaharlaridagi hozirgi holat aks etgan. Ya’ni, kengaytirish ekstensiv holda, tobora yangi yerlarni qamrab olgan holda, yoki yonga qarab ilgari qishloq xo‘jalik yerlari joylashgan hududga kirib bormoqda. Kelgusida esa, yerlarni yon tomonga qarab emas, balki, yuqoriga qarab “kengaytirish” takliflari ko‘rib chiqilmoqda. Bu loyihalarning ahamiyatga sazovor tomoni shundaki, Yaponiya uchun ancha qimmat va kamyob resurs hisoblangan yer maydonlari tejaladi.

Shuningdek, transport va binolar joylashuvida ham o‘ziga xos konsentratsiyalashgan, qisqa vaqt sarflanuvchi qulay bo‘lgan hududiy taqsimot

⁹⁴<http://www.city.chiba.jp/sogoseisaku/sogoseisaku/tokei/jinkou.html>

vujudga keladi. Shaharning ekologik holati ham ancha yaxshilanadi: tejab qoligan yerlar o‘rniga bog‘, sayr uchun xiyobonlar, dam olish mintaqalari barpo etilib, ularni shaharning ichkari qismiga ham kirib borgan tarzda joylashtirish takliflari berilgan. Ammo, bu takliflarda muammolar ham yo‘q emas. Takliflar bo‘yicha yerlarni yuqoriga va pastga tomon kengaytirish yuqorida ko‘rib chiqilgan qiyinchiliklarni yuzaga keltiradi, ya’ni seysmik faol mintaqada baland binolar halokatli nuqtalar sifatida tilga olinadi. Ulardan so‘ng shaharni tiklash ishlari ham anchaga cho‘ziladi. Shu bilan birga, shahar qanchalik yuqoriga bo‘y cho‘zib, aholini qabul qilib olavergani sari unga aholining kirib kelishi shunchalik ortadi. Natijada, o‘z aholi soniga moslab qurilgan binolar, yaratilgan ekologik qulay shahar boshqa shaharlar aholisini ham “chaqira” boshlaydi. Bu esa, o‘z navbatida shaharlarga aholi soni, uning sig‘imi, umuman demografik sig‘im kriteriyasi bo‘yicha ham qandaydir chegaralar zarur ekanligi, ularni shaharlar rivojlantirish va rejalashtirishda shartlardan biri sifatida qabul qilish lozimligini ko‘rsatadi.



3.2.4-rasm. Shaharlar joylashuvining samarali ishlab chiqilishi: Senday shahri misolida⁹⁵

⁹⁵TominagaM. Urban and spatial planning in Japan, A Master Course Student of Graduate School of Tohoku University, Department of Architecture and Building Science

Transport muammolari. Yirik shaharlarda ko‘p sonli aholibir vaqtda o‘qish yoki ishga borish uchun yo‘lga chiqqan vaqtda ko‘chalarda tiqinlarni hosil qiladi. Bu holat ayniqsa, ertalab yettidan to‘qqizgacha va kechki soat to‘rt-oltidan so‘ng kuzatiladi. Ko‘chalarda qatnovning tezligi oshishi, mashinalar sonining ko‘payishi turli to‘qnashuvlarga, kech qolishlar soni ortishi, qatnovning sekinlashishi, aholining bekatlarda to‘planib qolishiga sabab bo‘ladi. Xususan, Yaponiyada yaqin ellik yildan buyon ba’zi metro bekatlarida bu muammoni hal etish uchun kuchli, yosh ishchilar yo‘lovchilarni vagon ichiga itarib kirg‘izish bilan shug‘ullanadilar. Bunday bir qarashda kulgili ish turining asosiy maqsadi shundaki, ertalabki yoki kechki tig‘iz vaqtda metro vagonida juda ko‘p aholi to‘planib qoladi. Metro o‘z vaqtida qatnagan holatda ham vagonga kirishga harakat qilgan yo‘lovchilar vagon eshigiga tiqilib qoladi va bu metroning o‘z vaqtida qatnovni yo‘lga qo‘yishiga halal beradi. Yaponiyada kunlik qatnovni to‘g‘ri taqsimlash, aholi mobilligini oshirish, yo‘lda ‘tiqin’ lar paydo bo‘lishini oldini olish maqsadida har bir bekatda to‘xtovchi avtobus raqami, uning kelish vaqti, boshlang‘ich hamda oxirgi avtobus kelish vaqti, soat osib qo‘yilgan. Shuningdek, bolalar uchun maxsus maktab avtobuslari tashkil etilgan bo‘lib, bu bir tomondan ertalabki tiqilinchlar vaqtida ularning xavfsizligi darajasini oshirsa, ikkinchi tomondan ota-onalarning har bir bola uchun alohida transportdan foydalanishi darajasini kamaytiradi. Natijada birgina qulay sharoit ham yo‘lovchi sonini kamaytiradi, ham bexavotir, ham ijtimoiy yordam sifatida hisobga olinadi. Bundan maktab ma’muriyati iqtisodiy foyda ham oladi.

Katta yoshli aholining shaharlarga ko‘chishi bir qancha noqulayliklar tug‘diradi, hali ularni qabul qilishga tayyor bo‘lmagan shaharlar uchun yangi kasalxonalar yoki ularga qarovchi hamshira va mutaxassislarni tayyorlash, qisqa vaqt ichida psixologik, biologik, sotsial shart-sharoitlarni puxtalik bilan yaratib berishda muammolar paydo bo‘lishi, vaqt o‘tishi bilan ularning sonini rejalashtirib bo‘lmasligi vaqtida yordam ko‘rsatilmasligi kabilar bosimning ortib boraverishi ijtimoiy sohaga xarajatlarning tobora ko‘payishiga, bu o‘z navbatida prefektura hamda mamlakat byudjetiga katta zarar keltiradi.

Shuningdek, atrof-muhit hamda jamiyat, bu yoshdagi aholining o'zi ham aynan shu jamiyatda faoliyat yurita oladigan imkoniyatga ega bo'lishi lozim. Agar, qishloq joylarda shaharlarga nisbatan erkinroq faoliyat yuritilsa, shahar iqtisodiyoti o'ziga xos kuchli, yosh, yangi g'oyalarga to'la, tez sharoitga moslashuvchan ishchilarni talab qiladi. Hech qaysi kompaniya kuchli raqobat muhitida ortiqcha xarajat qilishni xohlamasligi ish joylaridan katta yoshli mehnat resurslarining siqib chiqarilishiga, oqibatda, pensiya yoshi uzaytirilgan taqdirda ham ish samaradorligi deyarli oshmaydi. Katta yoshli ishchi kuchini bu tarzda iqtisodiyotga foydali mehnat resursi sifatida majburan ushlab turish keyinchalik o'z samarasini bermasligi oqibatida ular ayollarga almashtirilishiga olib kelishi mumkin.

Yaqin yillargacha Yaponiya oliy ta'lim muassasalarida barcha mamlakatlar bilan bir xil yoki deyarli bir-biriga o'xshash yo'nalishlarda talabalardan mutaxassislar tayyorlanar edi. Hozirda esa bu yo'nalishlarning deyarli 1/5 qismini qariyalarni parvarishlash, ularga xizmat ko'rsatish, davolash, ovqatlanish jarayonini to'g'ri boshqarish bilan bog'liq bo'lgan yo'nalishlar egalladi. Agar AQSH, Yevropa mamlakatlarida qariyalar parvarishi kurslarda o'qitilgan tarbiyachilarga topshirilsa, Yaponiyada barcha o'z mutaxassisligi bo'yicha ishni yo'lga qo'yishini, qariyalarga e'tibor tobora ko'proq zarur bo'layotganini hisobga olgan holda, nafaqat, davlat institutlari, balki, xususiy oliy ta'lim muassasalari ham qariyalar bo'yicha tayyor mutaxassislarni yetishtirib chiqarishga katta e'tibor bermoqdalar.

Shaharlarning tobora kengayib borishi bilan bog'liq holat ularning o'z hududini qishloq xo'jalik yerlari hisobiga kengayishi barchamizga ma'lum. Oqibatda, **qishloqlarning bo'shab qolishi, mamlakat YaIM tarkibida qishloq xo'jaligi ulushi keskin tushib ketishi** kabi muammolar paydo bo'ladi. Bu muammolar kelgusida qishloq hududlarni ham shaharlardek rivojlantirish, qishloq infrastukturasini shaharlar infrastrukturasini bilan teng ravishda rivojlantirish ishlarini olib borishni talab qiladi. Shuningdek, soliqlar yoki aholiga beriluvchi imtiyozlar borasida ham ma'lum darajada qishloqlar va shaharlarning ajratilishi, qishloq xo'jaligida tadbirkorlik bilan shug'ullanuvchi xo'jaliklarga davlat

tomonidan yordam ajratilishi ko'zda tutilgan. Bunga esa, qishloq xo'jalik mahsulotlari yoki ularni qayta ishlash orqali eksportga yo'naltirilgan mahsulotlar tayyorlash bilan katta natijaga erishish mumkin. Ichki talab uchun qishloq xo'jalik mahsulotlarini ishlab chiqarishni rivojlantirish ham ma'lum ma'noda tadbirkorlikni ko'paytirishga yordam berishi mumkin, ammo, import qilib olingan mahsulotlarga nisbatan Yaponiyada ishlab chiqarilgan mahsulotlarning narxi ancha qimmatligi ularni katta hajmda ishlab chiqarish imkonini bermaydi. Eksportga yo'naltirilgan qishloq xo'jalik mahsulotlarini yetishtirish nisbatan katta daromad olishga yordam berishi mumkin.

Yaponiya shaharlari, ayniqsa, yirik shaharlariga hozirda Yevropa madaniyatining tobora kirib borishi, tinimsiz ishlash, katta bosim, yetarlicha dam olmaslik, shovqin, asabbuzarliklar aholida bir qancha **ruhiy o'zgarishlarni**, yuqori texnik ta'minot esa **gipokineziyaga** olib kelmoqda. Shahar aholisiga xos bo'lgan ushbu kasalliklarning oldini olish maqsadida shu kungacha hukumat tomonidan bir qancha ishlar amalga oshirilgan bo'lib, ular qatoriga ish kuni ish haqiga ta'sir etmagan holda qisqartirilishi, sun'iy ravishda bayram, festivallar o'tkazilishi, dam olish kunini maroqli o'tkazish uchun yetarli sharoitlar yaratilishi, yangi fikrlar o'ylab topilishi, yapon madaniyati rivojlantirib borilishi, alohida kunlar madaniyat kunlari sifatida belgilanishi kabilarni ko'rsatishimiz mumkin. Shuningdek, dam olish kunlari ham turli ko'ngilochar tadbirlar uyushtirilishi, ko'p jismoniy harakat qilishga e'tibor berilishi bu kabi muammolarning oldini olishga yordam beradi. Ammo, hozirgi yuqori darajadagi texnikalashuv vaqt o'tishi bilan bu kasalliklarning rivojlanib borishiga sabab bo'ladi va uning katta miqyosda tarqalishi oqibatlarini yo'qotish ham ancha vaqt hamda mablag'talab muammoga aylanib qoladi.

Yer litosferasi bilan bog'liq muammolardan Yaponiya uchun eng dolzarblaridan biri sanoat chiqindilari bo'lib, uni hal etish doirasida mamlakat bo'yicha targ'ibot-tashviqot ishlari olib borilmoqda. Bunga bir tomondan Yaponiya hududining kichikligi, unda yerdan foydalanishda cheklanganlik muammosi bor ekanligi chiqindilarni yerga ko'mishga imkon bermaydi. Bu

birinchi sababi bo'lsa, ikkinchi tomondan aholining kichik hududda nomutanosib tarzda joylashuvi sanoat va maishiy chiqindilardan oqilona foydalanishi zarur ekanligini ko'rsatadi. Shuningdek, Yaponiya ko'p miqdordagi va turdagi xomashyoni import qilib olishi ancha qimmatga tushadi, bu uning hamma narsaga e'tibor bilan qarashga, hattoki, chiqindilarga ham, chiqindi sifatida emas, balki, yarim tayyor mahsulot yoki xomashyo sifatida qarashga majbur etadi. Jumladan, Yaponiyada ro'zg'or chiqindilarini tozalab saralaydigan yuqori texnologiya ishlab chiqilgan bo'lib, qishloq joylarda va xususiy sektorda chiqitlarni saralashda maxsus individual mexanizmlardan foydalaniladi. Elektrotexnika vositalarini ishlab chiqaradigan firmalar o'z chiqindilarini yig'ish va qayta ishlashga majbur. Ko'plab dengiz bo'yida joylashgan yirik shaharlar qayta ishlangan chiqitlardan qurilish ishlarida, okean va dengizlarda chiqindi orollarini barpo etishda juda samarali tarzda foydalanmoqda. Bu orollar keyinchalik sayyohlik markazlariga aylantiriladi. Xuddi shu usul bilan yaratilgan orollarning birida aeroport qurilib, foydalanishga topshirilgan. Bir qator yirik va o'rta shaharlar – Kawasaki, Kitakyushu, Minamoto, Naoshima shaharlari davlat tomonidan amaliyotga tatbiq etilgan "Eco-Town" ("eko-shahar") nomli loyihalar eng yuqori ko'rsatkichlarga ega deb topilgan.⁹⁶

G'arb mamlakatlari uchun har bir tonnasini ko'mish 150 AQSH dollaridan tushib, katta zarar keltirayotgan mazkur "xom ashyo" Yaponiyaga hozirda asta-sekin daromad keltirmoqda va kelgusida turizmni rivojlantiruvchi omillardan biri bo'lib xizmat qilishi mumkin. Hozirda dunyo bo'yicha keng tarqalgan ushbu muammoning yechimini Yaponiya birinchilardan bo'lib, eng samarali usulda ishlab chiqqan va uni keng ravishda amaliyotga tatbiq etib bormoqda. Bunda turlicha chiqindilar turli usullar bilan foydali mahsulotlar, qayta ishlash jarayoni natijasida xomashyo yoki tayyor mahsulotga aylantiriladi. Bunda nafaqat, chiqindilarni qayta ishlash, balki, ularning hajmini kamaytirish va noorganik, hayot uchun xavfli, qayta ishlash imkoni kam "mahsulotlar" ni tobora kamaytirib borish,

⁹⁶ «Eco Towns in Japan» Global Environment Centre Foundation, June 2005

ularni oson va tez qayta ishlanuvchi chiqindilarga aylantirish choralari ham ko'rib chiqmoqda.

Yirik shaharlarda sanoat, tadbirkorlik rivojlanishi, aholi tobora ko'payib borishi toza ichimlik suvini yetkazib berish hamda oqova suvlarni tozalashda intensiv faoliyat olib borishni talab qiladi. Bu esa yangidan-yangi rejalarni amalga tezlik bilan amalga oshirishni, ularni to'g'ri yo'lga qo'yish kerakligini ko'rsatadi. Shuningdek, ko'pgina mamlakatlar qatori Yaponiyada ham toza ichimlik suvi yer qa'ridan tortib chiqariladi. Bu esa aholi soni ko'p bo'lgan shaharlarda shahardan tashqarida katta hajmli suv tortib chiqarish qurilmalarini o'rnatishni talab qiladi. Bu bir tomondan, yerosti suvlari zaharlanayotgan vaqtda aholi salomatligi uchun xavf tug'dirsa, ikkinchi tomondan, yerosti suvlari sathi, tezligi, joylashuvi, oqimini o'zgartirib yuboradi. Shuningdek, suvsiz bo'shab qolgan hududlarda o'pirilmalar vujudga kelishi mumkin. Bu kabi muammolarning oldini olish maqsadida yangi ichimlik suvi manbalarini izlash, ichimlik suvi tarkibi va sifatiga katta e'tibor berish, o'rnini bosuvchi turli xil ichimliklar ishlab chiqarish yo'lga qo'yilgan. Shuningdek, ichimlik suvining narxi boshqa hududlarga nisbatan shaharlarda ancha qimmatligi aholini suvni tejab ishlatishiga olib keladi.

Yirik shaharlarning **atmosferaga salbiy ta'sirini** yaxshilash maqsadida Yaponiya misolida quyidagi ishlar amalga oshirilishi lozim:


- Shahar markazi, ko'cha va xiyobonlarda yashil o'simliklarni ko'paytirish, chunki, Yaponiya yirik va o'rta shaharlarida yashil mintaqa deyarli yo'q, bor bo'lgan hududlarda ham mavjud kislorod taqchilligi talabiga javob bermaydi.

- Suv manbalari, hayvon va qushlar mavjud bo'lgan shahar bog'lari va parklarni bunyod etish. Shaharlarda nafaqat, yosh aholi, balki, ota-onasi bilan birga yashovchi bolalar ham borligi nazarda tutilgan holda, ko'ngilochar tadbirlar uyushtirilishi, bu tadbirlarga ota-onalarni ham jalb etish yaxshi natijalar beradi. Bu bir tomondan, dam olish kunlarini bolalar ham, ota-onalar ham maroqli o'tkazishiga, Yaponiyada keyingi vaqtda tobora kamayib borayotganligi kuzatilayotgan ota-onalarning bolalar bilan birga vaqt o'tkazishlarini ta'minlashi,

boshqa tomondan qo‘shimcha iqtisodiy imkoniyatlarning kelib chiqishiga yo‘l ochishi mumkin.

- Real imkoniyatdan kelib chiqqan holda aholining bir maromda shahar tashqarisiga chiqishlarni tashkillashtirish;
- Har bir shaharda turli zaharlovchi moddalarni ta‘qiqlash orqali alohida-alohida tarzda umumiy ekologik holat ustidan nazorat o‘rnatish;

Favqulodda holatlar yoki tabiiy ofatlar. Aholi ko‘p miqdorda to‘plangan hududlarda favqulodda holatlar yuz berishi halokatlar sonining ortishi, uning yanada keng tus olishiga olib keladi. Jumladan, Miyagi prefekturasida 2011-yil ro‘y bergan qattiq yer qimirlashi hamda tsunami oqibatlari yarim yil davomida o‘rganib chiqilgan. Avgust oyida oxirgi qarorlar va rejalar e‘lon qilingan bo‘lib, unga ko‘ra qayta tiklash ishlarini tugatish uchun 10 yildan ortiq vaqt zarur bo‘ladi (2021-yilgacha): bu o‘n yildan uch yili fundamental qayta tiklash ishlari uchun, to‘rt yili boshqa tiklash ishlari uchun, yana uch yili rivojlantirish ishlari uchun sarflanadi. Bu kabi rejalar orasida qayta tiklash va tsunamidan aholini muhofazalash uchun eng qulay hamda xavfsiz joylashuv rejasi sifatida quyidagi reja taqdim etilgan.




3.2.5-rasm.Aholi joylashuvi uchun eng qulay va xavfsiz rejalashtirish⁹⁷

Bunga ko‘ra hududning eng baland joylarida aholi turar-joylari joylashadi. Keyingi “qavatda” ham bir qism turarjoylar hamda yo‘llar joylashadi. Oxirgi qatlamda sanoat mintaqasi joylashib, u dengizbo‘yidan damba orqali himoyalaniadi. Oxirgi sanoat mintaqasida ham himoyalovchi va qochish uchun

⁹⁷TominagaM. Urban and spatial planning in Japan, A Master Course Student of Graduate School of Tohoku University, Department of Architecture and Building Science

binolar sanoat mintaqasi binolari ortida joylashadi. Bu reja asosida hozirda tsunamidan katta talofot ko'rgan Miyagi prefekturasini tiklash ishlari olib borilmoqda. Keyingi rejada tsunamidan ikki bora himoyalaniish dasturi ishlab chiqilgan bo'lib, qirg'oqbo'yi hududi dambasi va yashil mintaqa dengizbo'yida tashkil etiladi. Yo'llar va temiryo'l har bir qishloq xo'jalik, sanoat va savdo mintaqasi va turarjoy yerlari chegarasida qurilishi rejalashtiriladi. Amaliyotda bu kabi rejalarga tabiiy to'siqlar yoki baland yerlar yetishmasligi rejalarni amalga oshirishda muammo bo'ladi.



3.2.6-rasm.Tsunamidan ikki bora ishonchli himoyalaniish rejasi⁹⁸

Rejalarni amalga oshirishning eng muammoli jihati shundaki, ular nafaqat, yaroqsiz yerlarni qayta tiklashgagina, balki, butun shahar, munisipalitet, prefekturada o'zgarishlar olib borish, uning joylashuvini o'zgartirishga qaratilgan. Bunda esa o'z navbatida shaharlarda joylashgan katta miqdordagi aholi, ular orasida katta yoshlilarning ulushi yuqori ekanligi, atrof-muhitni himoya qilish standartlari, tabiat va yaratuvchanlik o'rtasida xavfsiz hamda qulay aloqalarni yaratish vazifalari turibdi.

Albatta, rivojlanayotgan mamlakatlar qatorida turgan O'zbekiston shaharlarini Yaponiya yoki boshqa rivojlangan davlatlar shaharlari, ularda vujudga kelgan muammolar, ularni yechish yo'llari bilan bilan taqqoslab bo'lmaydi. Biroq, ularda ro'y berayotgan ayrim holatlar – rivojlanish tendensiyalari kelgusida respublikamiz yoki mintaqada ro'y berishi mumkinligi sababli ishda qisqacha respublikamiz shaharlariga ham to'xtalib o'tdik.

⁹⁸TominagaM. Urban and spatial planning in Japan, A Master Course Student of Graduate School of Tohoku University, Department of Architecture and Building Science

Yuqoridagi fikrlardan shunday xulosaga kelishimiz mumkinki, mamlakatlarning iqtisodiy-ijtimoiy, siyosiy va madaniy taraqqiyotini ularning hududiy jihatdan bosh shaharlari boshqarib boradi. Aksariyat mamlakatlarda bosh shaharlar poytaxt shaharlarga, aksariyatida esa shu davrgacha uzoq taraqqiyot davrini boshdan kechirib, mamlakat yirik markazlariga aylangan shaharlarga to'g'ri keladi. Chunki, bu shaharlar qadimdan katta e'tibor ostida bo'lib, aholi manzilgohlari, aholi soni, rivojlanish darajasiga ko'ra boshqa rivojlanish nuqtalaridan ajralib turgan. Shuningdek, qadimdan poytaxt shaharlar yoki eng rivojlangan hududlarda mamlakat hukmdorlarining istiqomat qilishi, shu bilan birga, bu markazlarga turli mamlakatlardan xorijiy elchi, aholining kelib o'rinishi uning ahamiyatini yanada oshirib yuborgan.

Ma'lumki, rivojlangan davlatlar taraqqiyot bosqichining yuqori pog'onasida turadi va rivojlanayotgan davlatlar esa bu yo'lni ulardan keyin bosib o'tadi. Bunda rivojlangan davlatlar o'z taraqqiyotida qo'llagan ayrim tajribalarni rivojlanayotgan davlatlarda qo'llash mumkin. Shundan kelib chiqib aytishimiz mumkinki, keltirilib o'tilgan muammolar jahonning barcha mamlakatlari shaharlari uchun xos hisoblanadi. Xususan, O'zbekistonda shaharlar rivojlanishi va ularning demografik muammolarida Yaponiya shaharlarida kuzatilayotgan ayrim o'xshash jihatlarni uchratish mumkin. O'zbekiston shaharlarini Yaponiya yoki boshqa rivojlangan davlatlar bilan taqqoslab bo'lmagani holda ularda ro'y berayotgan ayrim holatlar rivojlanish jarayonida yoki mintaqada ro'y berishi mumkin ekanligini hech kim inkor eta olmaydi.

Yurtimizda mavjud shaharlarda uchraydigan muammolar hali bu taxlit keskin tus olmagan bo'lsada, ulardan kelgusida mazkur hududlarni rivojlantirish, mamlakatda aholi, mehnat resurslarini to'g'ri taqsimlash, aholiga bevosita ta'sir ko'rsatmagan holda uning harakatini boshqarish, shu orqali mamlakatda mavjud hududiy muvozanatni saqlashga e'tibor qaratish zarur. Shu bilan birga, aholining shahar hududi, uning atrofiga to'planishining kuchayib borishi, shaharlarda yuz berayotgan demografik bosimning ortishi kabi muammolar O'zbekistonning

poytaxt shahri – Toshkentda ham kuzatilib, bu muammolar keskinlashmasdan o‘z yechimini topishi zarur.

Respublikamiz poytaxti – Toshkent shahri ham mamlakat urbanistik tizimida yuqori pog‘onani egallaydi. Undan keyingi ikkinchi o‘rindagi shahar sifatida Samarqand tursada, ammo, demografik jihatdan Namangan mamlakatning eng yirik shaharlaridan hisoblanadi.⁹⁹ Ma’lumki, shaharlarning katta-kichikligi aholi soni bilan belgilanadi, chunki, bu ko‘rsatkich barqaror rivojlanish sharoitida ularning har tomonlama rivojlanish darajasini ko‘rsatadi.

Toshkent shahrining qulay geografik o‘rni yillar davomida funksiyalarining takomillashib, demografik va hududiy jihatdan rivojlanib borishini ta’minlagan. Salkam 3 mln. lik aholining talab va ehtiyojlarini qondirish, qator davlat vazifalarini bajarishi bundan keyin ham uning rivojlanib borishini taqozo qiladi. Ammo, shahar va uning atroflarining cheklangan suv, hudud, rekreatsiya resurslari, keskin ekologik-nozogeografik vaziyati bunga imkon bermaydi va muammolarning yanada keskinlashishiga olib kelishi mumkin.

Mustaqillik yillarida aglomeratsiyada o‘ziga xos demografik vaziyat shakllandi: aholi o‘sishi sustlashdi, migratsiya jarayonlari faollashdi. Shunga qaramay, poytaxt shahar 2 mln., aglomeratsiya salkam 4 mln. aholiga ega. Poytaxt shahar va aglomeratsiyaning yuqori ijtimoiy-iqtisodiy, madaniy va innovatsiya salohiyati respublikaning boshqa viloyatlari aholisi, shuningdek, shahar o‘z atrofidagi aholini o‘ziga tobora ko‘proq jalb etmoqda. Bu esa aglomeratsiyaga demografik bosimni yanada kuchaytiradi. Natijada, Yaponiya shaharlari kabi aholi joylashuvi, migratsiya jarayonlarini nazorat qilish va aholini ish, uy-joy bilan ta’minlash, transport tizimini yaxshilash kabi sotsial muammolar kelib chiqmoqda.

Toshkent shahri hududi kattalashib, uning ekstensiv holda atrofga kengayib borishi davom etmoqda. Keyingi yillarda Bektemir tumani qo‘shib olindi. Qibray, Zangiota, O‘rta Chirchiq tumanlarining qishloq xo‘jalik yerlariga suqilib kirib, ekin maydonlarining qisqarishi davom etmoqda. Turli obyektlarning duch kelgan yerga tartibsiz qurilishi ekologik-shaharsozlik muammolarni ham keltirib

chiqarmoqda. Bir vaqtlar Tokio ham xuddi “dog” ga o‘xshab, atrofga yoyilib, Tokaydo megalopolisi uchun asos bo‘lgan edi.

Shaharning yuksak iqtisodiy, ilmiy-madaniy, ijtimoiy-tashkiliy salohiyati butun respublika aholisini o‘ziga tobora tortmoqda. Shu jumladan, hozirda Toshkent shahrida tug‘ilish ko‘rsatkichlari pasayib, o‘lim ortib bormoqda. Xuddi shunday holat Yaponiya yirik shaharlarida avvalroq kuzatilgan edi. Shu bois, bunday holatlarning oldini olishda rivojlangan davlatlar tajribalarini o‘rganish va kelgusida ulardan foydalanish respublikamizda shaharlarni to‘g‘ri mutanosib rivojlantirishda asqotadi.

Yaponiyada o‘rganilgan yirik va o‘rta shaharlar muammolarini hal etish chora-tadbirlari hamda ularni mos kelgan holda O‘zbekiston shaharlari sharoitida qo‘llash imkoniyati mavjud.

Shuningdek, olib borilgan tadqiqotlar natijasida Yaponiyada markaziy shaharlarga bo‘lgan kuchaytirilgan e’tibor natijasida kelib chiqayotgan muammolar natijasi o‘laroq, aholini hududiy jihatdan to‘g‘ri taqsimlash, shaharlarga tushayotgan demografik bosimni yengillashtirish maqsadida hukumat tomonidan olib borilayotgan chora-tadbirlar samarali tashkil etilgan. Shu sababli ham hozirda har bir yangi darajaga ko‘tarilayotgan shaharlarga ma’lum darajada o‘z-o‘zini boshqarish, soliq imtiyozlari taqdim etilgan. Shuningdek, bu yangi shaharlarda soliq imtiyozlari ma’lum darajada pasaytirilganligi tufayli ularga tabiiy ravishda ko‘plab ishlab chiqarish va xizmat ko‘rsatish koxonalarining ko‘chib borishi hamda tashkil etilishi kuzatilgan. Bu kabi shaharlarda ma’lum davrlargacha aholi sonining boshqa yirik va o‘rta shaharlarga nisbatan kamligi, transport, bo‘sh ish o‘rinlari, infrastrukturaning aholi soniga nisbatan to‘g‘ri tashkil etilganligi mazkur yangi shaharlarda iqtisodiy, ekologik holatning qulayligini keltirib chiqaradi. Natijada, aynan shu sabablar tufayli aholi oqimi asta-sekinlik bilan “eski” shaharlardan “yangi” markazlar tomonga yo‘nalganligi aniqlangan. Shu asosda aytishimiz mumkinki, kelgusida Toshkent shahriga tushayotgan demografik bosimni yengillashtirish maqsadida mazkur tajribadan foydalanish imkoniyatlari mavjud deb hisoblanadi. Ya’ni, yangi aholi ehtiyojlarini ta’minlay oluvchi

markazlar shakllantirilishi, aholining diqqatini ularga tortadi va aholining hududiy jihatdan to'g'ri taqsimlanishiga sabab bo'ladi. Bu esa o'z navbatida, yangi ish o'rinlari yaratilishi, yangi markazlarning ham iqtisodiy jihatdan o'zini tiklab olishi uchun sharoit yaratib beradi.

Shuningdek, atrof-muhitni muhofaza qilish borasida ham chora-tadbirlar samarali tarzda yo'lga qo'yilgan bo'lib, shaharlarda yuqorida ko'rsatilganidek, yashil bog'larni baland binolar yoniga ko'proq barpo etish ishlari olib borilmoqda.

Yaponiya seysmik mintaqada joylashganligi tufayli u o'zining zilzilalarga bardoshli inshootlari bilan jahonda ajralib turadi. Mos ravishda O'zbekiston ham seysmik mintaqada joylashgani, hali inshootlarning, ayniqsa, strategik ahamiyatga ega bo'lgan inshootlarning aholi uchun xavfsiz qurilish texnologiyasini o'rganish orqali kelgusida vujudga kelishi mumkin bo'lgan muammolar va xavfning oldini olish mumkin deb hisoblanadi.

3-bob bo'yicha xulosalar

Xulosa o'rnida shuni aytishimiz mumkinki, shaharlarga aholi tortilishi har qanday rivojlanish darajasida ham kuchliligicha qolib, demografik hamda iqtisodiy muammolar yillar o'tib, aholi soni ko'paygani sari kattalashib boradi. Shu bilan birga, mamlakatda qariyalar soni ortib borishi muammolarni keskinlashtiruvchi omillardan biri bo'lib hisoblanadi. Yaponiya sharoitida aholining mexanik harakati cheklanmaganligi tufayli bu muammolarning hal etishning eng qulay va samarali usullaridan biri – kelgusida yashash sharoiti, ijtimoiy infrastruktura, ekologik holat hozirgi shaharlarga nisbatan ancha yaxshi bo'lgan shaharlarni hozirda aholi soni ancha kam bo'lgan sharqiy hududlarga qarab kengaytirib borish hisoblanadi. Bu kabi loyihalar hukumat tomonidan ko'rib chiqilib, tahlil qilinayotgan bo'lsada, iqtisodiy muammolarning keskinlashuvi uni amalga oshirishga to'sqinlik qilmoqda.

Yaponiyada turli sohalarda yirik va o'rta shaharlarda qo'llanilayotgan chora-tadbirlar, amalga oshirilayotgan loyihalar, olib borilayotgan ishlar, nafaqat, rivojlangan, balki, rivojlanayotgan mamlakatlar uchun ham tajriba vazifasini o'tab,

rivojlangan mamlakatlarda yirik shaharlarida aholining mujassamlashuvi oqibatlarini bartaraf etishda, rivojlanayotgan mamlakatlarda esa aholining yirik va o'rta shaharlarda to'planishi, transport, ijtimoiy-iqtisodiy, ekologik sohalarda keskinlashib borayotgan muammolarning yechimini topishda katta ahamiyatga ega bo'lib hisoblanadi.

Xulosa

Yuqorida keltirib o'tilgan fikrlardan kelib chiqqan holda shuni aytishimiz mumkinki, demografik jarayonlar barcha mamlakatlarda hududiy jihatdan yangicha ko'rinish olib bormoqda. Ular ijtimoiy-iqtisodiy, tarixiy, diniy omillar ta'sirida aholining tarixiy joylashuvi, tabiiy-demografik omillar ta'sirida aholi joylashuvining o'zgarib borishi, uning tabiiy va migratsion o'sishi, aholi migratsiyasi yo'nalishlari hamda bu o'rinda aytib o'tish kerakki, aholi harakatlarida hattoki, rivojlangan mamlakatlarda ham hukumatning ba'zida bevosita, ba'zida bilvosita aralashuvlari – loyihalar, turli imtiyozlar, yangi o'sish qutblarini rivojlantirishida o'z aksini topmoqda.

Yaponiya shaharlarida ham aynan shunday omillar ta'sirida aholining tabiiy va migratsion harakati sodir bo'lib, aholi iqtisodiy omil ta'siri ostida qulayliklar, yuqori daromad, ekologik toza muhit, ilm-fan, ishlab chiqarish markazlari hisoblangan shaharlar tomon harakatlanmoqda va bu harakatlanish vaqt o'tishi bilan boshqa yangi markazlar tomon yo'nalmoqda. Aholining harakati bunda, nafaqat, iqtisodiy jihatdan rivojlangan shaharlar, balki, tabiiy omillar ta'sirida katta zarar ko'rmaydigan sohalar – xizmat ko'rsatish obyektlari va unga bog'liq tadbirkorlik rivojlangan shaharlar tomon o'zgarib bormoqda. Agarda aholini bu markazlardan qochishga majbur etuvchi kuch yuqorida keltirilgan omillar hisoblansa, aholining boshqa hududlarga intilishi ham o'z navbatida yangi shunday markazlarning vujudga kelishi, ularning yiriklashuvi, o'z rasmiy chegaralaridan chiqib ketishiga sabab bo'lmoqda. Agar, aholining asta-sekinlik bilan tarqalib borayotgan hududlariga yorqin misol sifatida Yaponiyaning eng yirik, iqtisodiy-ijtimoiy markazlari hisoblangan shaharlari – xususan, Tokio, Osaka, Kioto, Nagoya kabilarni keltirsak, yangi, yuqoridagi shaharlarga nisbatan tezroq sur'atlar bilan demografik, ijtimoiy-iqtisodiy va siyosiy-strategik markazlari hisoblangan, tobora rivojlanib borayotgan Yokohama, Hamamatsu, Kitakyushyu, Senday, Sapporo, Sendai, Saytama, Kavasaki, Sagamihara, Niigata, Shizuoka, Hamamatsu, Nagoya, Kyoto, Sakai, Kobe, Okayama, Fukuoka va Kumamoto kabilarni keltirishimiz mumkin. Yaponiyada aglomeratsiyalarda aholining

mujassamlashuvi kuchayishi bilan birga, aholining aynan shahar emas, shahar atrofiga joylashuvi – Tokio misolida, Yaponiyaning iqtisodiy “poytaxti” hisoblangan Osaka shahrida esa, prefektura ichida migratsiya jarayonlari qishloqlar yoki shaharchalardan urbanizatsiyalashgan hududlarga hamon yuqori ekanligi kuzatilgani holda, ko’p sonli aholining Osaka shahridan boshqa yangi shaharlarga joylashuvi ham kuzatilmoqda. Ammo, bu kabi holatlarning sababi turli shaharlarda turlicha bo’lib hisoblanadi. Masalan, bu Tokioda turar-joy qimmatligi, hayot darajasi yuqoriligi, daromad keltiruvchi sanoat sohaslarining nisbatan shahar cheti, o’rta shaharlar hamda Tokio maxsus tumanlarida joylashgani, shaharning ekologik vaziyati og’irlashib borayotgani bilan izohlansa, Osaka va Kiotoda aholining prefektura ichidagi migratsiya harakatlariga shahardagi hayot nisbatan qulay, yashash ugun imkoniyatlarning yetarliligi bilan, prefekturalararo migratsiya harakatlariga esa ularning yangi markazlarga nisbatan iqtisodiy jihatdan kam ahamiyat kasb etishi, yangi markazlarning kam zarar ko’ruvchi xizmat ko’rsatish, innovatsion sohalarga ixtisoslashib borayotganligi katta rol o’ynamoqda. Shuningdek, bu borada yangi eng yirik shaharlardan biri hisoblangan Yokohama, Kitakyushyu, Hamamatsu, Kavabataning o’rni mamlakat miqyosida ancha ahamiyatli hisoblanadi.

Yaponiyada ham aholi soni uning administrativ boshqaruviga ta’sir etib, mamlakat ma’muriy-hududiy birliklari aholi soniga qarab belgilanadi. Shuningdek, ular orasida shaharlarni bir-biridan ajratib turuvchi faqatgina Yaponiyagagina xos bo’lgan shunday xususiyat ham mavjudki, shaharlar darajalarga ajratilayotgan vaqtda nafaqat, mazkur shaharning aholi soni, balki, uning rivojlanganlik darajasi, aholi salomatligini tiklash, marosim yoki tadbirlar o’tkazish uchun imtiyozlari va shunga yarasha sharoitlari ham yetarli bo’lishi lozim. Shu bilan birga, agar bunday shaharlarda mazkur sohalarda sharoitlar yetarli darajada bo’lmasa, hukumat tomonidan unga imtiyozlar ajratiladi va bu keyinchalik aholi oqimi shu shaharlarga qarab yo’nalishini ta’minlab beradi.

Aholining bu tarzda mujassamlashuvi, nafaqat, Yaponiya, balki, jahonning deyarli barcha mamlakatlari yirik shaharlarida bir qator ijtimoiy-iqtisodiy, ekologik

hamda demografik muammolarni keltirib chiqarib, ular orasida aholining Yaponiyagagina xos bo'lgan muammolari – tabiiy ofatlar ta'sirida ko'p sonli aholi istiqomat qiluvchi hududlarni muhofaza qilish, cheklangan yer resurslari mavjud bo'lgan holatda shaharlarga to'plangan aholini uy-joy hamda ish bilan ta'minlash, tobora soni ko'payib borayotgan qariyalar uchun sharoitlar yaratish va ularga qarovchilarni ish bilan ta'minlash, shaharlardagi demografik bosimni imkon qadar yengillashtirish, katta yoshli aholining qishloq hamda yoshlar kam hududlardan qulaylik yuqori bo'lgan shaharlarga yosh mehnat resurslari kabi intilishini ham ko'rishimiz mumkin.

Yaponiya shaharlari muammolarini o'rganish O'zbekiston uchun tajribaviy ahamiyatga ega bo'lib, xususan, Yaponiya hukumatining o'z aholisi xohishi, ehtiyojlarini o'rgangan holda uni mujassamlashgan holatdan asta-sekin boshqa hududlarga ham taqsimlash, rivojlangan yirik shaharlardan boshqa shaharlarga o'z xohishiga ko'ra yo'naltirish kabi tajribalarini O'zbekiston misolida Toshkent shahri tajribasida qo'llash imkoniyatlari mavjud deb hisoblanadi. Aholi rivojlanishi uning sifat va miqdoriy jihatlarida namoyon bo'lganligi sababli Yaponiyada aholi siyosati tarkibiga demografik ko'rsatkichlarni ayniqsa, sifat jihatdan yaxshilash, aholi migratsion oqimini o'zgartirish maqsadidagi har qanday choralar ham kiritiladi. Bu borada aholi soni ko'p bo'lgan yirik va o'rta shaharlar uchun alohida ravishda qo'shimcha loyihalar tayyorlanadi.

Shu bilan birgalikda, shahar hududida joylashgan bino va inshootlarni barpo etish, ularni to'g'ri joylashtirish aholi sonining tobora ko'payib borishini hisobga olgan holda ishlab chiqilib, bunda eng kam muddat Yaponiya tajribasida ellik yilni tashkil etadi. Bu esa O'zbekiston shaharlarini to'g'ri rejalashtirishda katta ahamiyatga ega bo'lib, O'zbekiston sharoitida aholi Yaponiya shaharlarida aholi soni ko'payganidek, katta raqamlarni tashkil etmaydi.

Shuningdek, Yaponiyada yirik shaharlarida shakllantirilgan transport tizimi ham aholi ko'p miqdorda to'plangan hududlar uchun amaliy ahamiyatga ega bo'lib hisoblanadi. Bunda transport tizimi eng oddiy muammolar – transport vositalarining o'z vaqtida qatnovi, ularning turlari ko'pligi, bunda qat'iy ravishda

qatnov qoidalariga rioya etilishi masalalaridan tortib, shaharlarning eng yirik muammolari – ekologik muvozanatni saqlash, ko'p sonli aholi, turar-joy, korxona va boshqa tashkilotlarni atrof-muhitga kam ta'sir ko'rsatgan holda barpo etish, tebranma migratsiya oqibatlarini samarali bartaraf etishda katta omil bo'lib hisoblanadi.

Jumladan, rivojlangan mamlakatlarda metropoliten hududi deb nomlanuvchi hudud nafaqat, yerosti yo'li xizmat ko'rsatuvchi shahar hududini, balki, shahar hududini boshqa joylardan ajratib turuvchi chegarani anglatadi. Bundan kelib chiqqan holda, ko'pgina rivojlangan mamlakatlar qatori, Yaponiyada ham shaharning metropoliten yetib borgan qismlarida avtotransport vositalari uchun to'xtash joylari barpo etilgan. Tebranma migratsiyada ishtirok etuvchi, shaharga kirib kelayotgan ko'p sonli avtotransport vositalari shahar chegarasida qoldirilib, shahar ichida muntazam qatnovchi jamoat transportidan foydalaniladi. Bu esa bir tomondan, shaharlarda ekologik holatni muvozanatda saqlash uchun katta yordam bersa, boshqa tomondan, bilvosita aholi salomatligiga yaxshi ta'sir ko'rsatadi. Shuningdek, shahar ichida ko'p sonli yengil avtomobillarni nazorat qilishdan ko'ra, shahar chegarasida maxsus to'xtash joylarini barpo etgan holda, shahar ichida jamoat transport vositalarini takomillashtirish ishlarini olib borish hukumat mas'ul boshqaruv tashkilotlari uchun yengillik tug'diradi. Yurtimizda hali rivojlangan mamlakatlardagidek shaxsiy transport vositalari haddan tashqari ko'pligi oqibatida muammolar unchalik ko'zga tashlanmasada, yangi avtomobil yo'llarining barpo etilayotganligi, mavjudlarining kengaytirib borilishi bu muammolar tobora keskinlashayotganligidan darak beradi. Kelgusida O'zbekiston sharoitida, transport vositalari shahar ijtimoiy va ekologik tizimiga zarar yetkazmasdan oldin xuddi shunday chora-tadbirlar amalga oshirilishi lozim bo'lib hisoblanadi. Ammo, bunda boshqa tomondan transport vositalarining uzviy bog'langanligiga ham katta ahamiyat berish zarur bo'lib, shahar ichi transporti ma'lum darajadagi sifat va tezlikni ta'minlab berishi shartdir.

Shuningdek, Yaponiya chiqindilarni qayta ishlash borasida jahonda o'z tajribalari bilan ajralib turuvchi mamlakat bo'lib, uning bu borada olib borayotgan

tadbirlari, nafaqat, rivojlanayotgan mamlakatlar, balki, rivojlangan mamlakatlar uchun ham katta amaliy ahamiyatga ega bo'lib hisoblanadi. Bu borada O'zbekistonda amalga oshirilayotgan ishlar boshlang'ich vazifa bo'lib hisoblanib, kelgusida chiqindini yig'ishdan tortib, uni turlari bo'yicha qayta ishlash ishlarini samarali yo'lga qo'yish zarur. Bu borada O'zbekistonda katta imkoniyatlar mavjud bo'lib, chora-tadbirlarni eng avvalo, shaharlarda o'tkazish muhim bo'lib hisoblanadi. Chunki, chiqindilarning ba'zi turlari (organik o'g'itlar sifatida) ni qayta ishlash tabiiyki, qishloqlarda yetarlicha yaxshi yo'lga qo'yilgan bo'lib, shaharlarda, jumladan, Toshkent shahrida mazkur chiqindilarni to'plash ham qayta ishlash chora-tadbirlari ham yaxshi ishlab chiqilmagan. Bunda Yaponiya tajribasidan foydalangan tarzda eng avvalo, aholini, ayniqsa, bolalarni ham tushuntirishlar olib borgan holda mazkur ishlarga jalb etish katta foyda beradi.

Sivilizatsiyaning rivojlangan mamlakatlardan rivojlanayotgan mamlakatlar tomon siljishi tufayli bu mamlakatlardagi o'xshash bo'lgan muammolar, ularning yechimini o'rganish kelgusida O'zbekiston miqyosida shaharlarni to'g'ri rivojlantirish hamda o'z vaqtida barqaror vaziyatni yaratishda muhim omil bo'lib hisoblanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

I. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Farmonlari va Qarorlari, Vazirlar Mahkamasining qarorlari

1. Ўзбекистон Республикаси Президентининг «Ишлаб чиқаришни модернизациялаш, техник ва технологик қайта жихозлашни рағбатлантиришга оид қўшимча чора-тадбирлар» тўғрисидаги 2007 йил 14 мартдаги ПФ-3860-сонли Фармони.

II. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti I.A.Karimov asarlari

2. Каримов И.А. Мамлакатни модернизация қилиш ва иқтисодиётимизни барқарор ривожлантириш йўлида. – Т.: Ўзбекистон, 2008. – 280 б.

3. Каримов И.А. Асосий вазифамиз – ватанимиз тараққиёти ва халқимиз фаровонлигини янада юксалтиришдир. – Т.: Ўзбекистон, 2010. – 80 б.

4. Каримов И.А. Жаҳон молиявий-иқтисодий инқирози, Ўзбекистон шароитида уни бартараф этишнинг йўллари ва чоралари. – Т: Ўзбекистон, 2009. – 56 б.

5. Каримов И.А. Бош мақсадимиз – кенг кўламли ислохотлар ва модернизация йўлини қатъият билан давом эттириш. 2012 йилда мамлакатимизни ижтимоий-иқтисодий ривожлантириш якунлари ҳамда 2013 йилга мўлжалланган иқтисодий дастурнинг устивор йўналишларига бағишланган Вазирлар Маҳкамасининг мажлисидаги маърузаси. / Халқ сўзи 19 январ 2013 йил.

III. Ilmiy adabiyotlar

O 'zbek tilida:

6. Abdurahmonov Q.X.. Demografiya. – Т.: “Noshir” 2011. 39-b.

7. Abdurahmonov Q.X., Abduramanov X.X. Demografiya. – Т.: “Noshir” 2011. 84-b.

8. Аҳмедов Э. А. Ўзбекистон шаҳарлари мустақиллик йилларида. – Т.: Абу Али Ибн Сино 2007. 155-б.

9. Солиев А.С. Шаҳарлар географияси. – Т.: ЎзМУ 2000. 26-б.

10. Ата–Мирзаев О. Б. Региональное прогнозирование расселения и управление процессом урбанизации. - Т.: Фан, 1979. С. 165

Rus tilida:

11. Авдокушин Е.Ф. Международные экономические отношения. М.: Эксмо 2007 г. С. 300.

12. Волгина Н.А. Международная экономика. – М.: Эксмо, 2006. С. 234.

13. Медков В. М. Демография. – Ростов-на-Дону.: «Феникс», 2002. С. 403.

14. Перцик Е. Н. Города мира. География мировой урбанизации. - М.: Международные отношения, 1999. С. 233.

15. Пивоваров Ю.А. Россия и мировая урбанизация/ Антропокультурная и пространственная динамика/. - Нальчик: Полиграфсервис, 2007. С. 165.

16. Хорев Б.С. Проблемы городов М.: Мысль. 1978. С. 458

17. Астрецов В. М. Географические подходы к перспективному планировочному и функциональному зонированию планировочных районов./ на примере Московской области. Автореф. дисс. ... канд.геогр. наук.- М., 1991. С. 35.

18. Браде И., Перцик Е., Питерский Д. Районная планировка и разработка схем расселения. - М.: Международные отношения, 2000. С. 136.

19. Воронин В. В., Шарыгин М. Д. Экономическая, социальная и политическая география. – Самара: СГЭУ, 2006. С. 392

20. Гольц Г. А. Транспорт и расселение – М.: Транспорт, 1989. С. 135.

21. Доманьский Р. Экономическая география: динамический аспект. Пер. с польского. -М: Новый хронограф, 2010. С. 376.
22. Занадворов В. С., Занадворова А. В. Экономика города. – М.: Академкнига, 2003. С. 271.
23. Кудрявцев О. К. Расселение и планировочная структура крупных городов и агломераций. - М.: Стройиздат, 1985. С. 135.
24. Лаппо Г. М. Города на пути в будущее. – М.: Мысль, 1987. С. 236.
25. Мерлен П. Город: Пер. с фр. – М.: Прогресс, 1977. С. 264.
26. Мерфи Р. Американский город. Пер. с англ. М.: Прогресс, 1972. С. 317.
27. Михайлов Е. Д. США: Проблема больших городов.- М.: Наука, 1973. С. 280.
28. Мягков В. И. Крупный город.- М.: Экономика, 1990. С. 179.
29. О'Салливан А. Экономика города.- М.: 2002. С. 705.
30. Мерлен П. Город: Пер. с фр. – М.: Прогресс, 1977. С. 264 с.
31. Мерфи Р. Американский город. Пер. с англ. М.: Прогресс, 1972. С. 317.
32. Михайлов Е. Д. США: Проблема больших городов.- М.: Наука, 1973. С. 280.
33. Мягков В. И. Крупный город.- М.: Экономика, 1990. С. 179.
34. О'Салливан А. Экономика города.- М.: 2002. С. 705.
35. Смоляр И. М. Новые города. - М.: Стройиздат, 1972. С. 183.
36. Форрестер Дж. Динамика Развития города.М.: Прогресс, 1974. С. 287.

Ingliz tilida:

37. Oxford Economics for Core Cities 2013. P. 17-18
38. "Local Autonomy Law" of Japan. P. 480
39. Autonomy Law "Local self-government" 2012. P. 47
40. "Law of the Basic Resident Registers" of Japan. P. 198

IV. Manbalar

41. A.J. Jacobs "Japan's Evolving Nested Municipal Hierarchy: The Race for Local Power in the 2000, Urban Studies Research, Vol. 2011.
42. M.Higashide, Japanese Cities: “A Geographical Approach”, The Association of Japanese Geographers, Tokyo, Japan, 1995.
43. Andrew Stevens, Japan Local Government Centre “Growth in second tier cities: urban policy lessons from Japan” Briefing for Core Cities Group, November 2013.
44. ARUP and Volterra, “Understanding the transport infrastructure requirements to deliver growth in England’s Core Cities, Core Cities Network” 2011.
45. Audirac I. “Some thoughts about Urban Shrinkage in a sea of Growth”, International Conference “The Future of Shrinking Cities: problems, Patterns and Strategies of Urban Transformation an a Global Context” February 7-9, University of California at Berkeley. 2007.
46. Aveline N. and Li H.L. Property Markets and Land policies in Northeast Asia, The Case of Five Cities: Tokyo, Seoul, Shanghai, Taipei and Hong Kong, Maison Franco-Japonaise/ Center for Real Estate and Urban Economics, Hong Kong-Tokyo. 2004.
47. Chiba city, “Current population, as of September 1, 2010,” December 2010.
48. Choriyeu O‘. Yaponiya mehnat bozori rivojlanishi: dis. – T., 2014.
49. CLAIR (Council of Local Authorities for International Relations (CLAIR)), Satoru Ohsugi, "Growth in Second Tier Cities - Urban Policy Lessons from Japan" briefing London on classes of Japanese cities. 2011.
50. Designated Cities, “Population and the number of households by the basic residential registers, as well as the number of foreign residents, as of the 1st of every month,” (In Japanese). April 1, 2010.
51. Doteuchi A. “The changing face of suburban new towns: seeking the slow life for an ultra-ageing society”, Open files of the NLI Research. 2003.

52. Dourille-Feer E. "The World's Second Biggest Economic Power" Questions Internationales, № 30, p. 38-46. 2008.

53. Ducom E. "Quand les processus s'inversent: étalement et désétalement urbains au Japon, manifestations et enjeux" (Reversing processes: urban sprawl and shrinking cities in Japan, forms and stakes), open files of HAL-SHS. 2007.

54. Ed. Council of the Tokyo Metropolitan Government Special Wards, editor-in-chief Wataru Ohmori, Tokyo 23 ku Jichiken Kakujū Undo to 'Shuto Gyosei Seido no Koso (Tokyo's 23 Wards; The Campaign for Greater Authority of Self-Government and the "Concept of the System of Administration of the Capital") Nippon-Hyoron-sha Co., Ltd., 2010.

55. E. Smart, Greater London Authority, "Well-being in London", Presentation to the OECD Working Party on Territorial Indicators, Paris, 2011.

56. Edgington D. "City profile: Osaka", Cities, Volume 17, Issue 4, pp 305-318. 2000.

57. ESPON and Overman, H. & Rice P "Resurgent Cities and Regional Economic Performance", SERC Policy Paper 1. 2008.

58. Fluchter W. "Shrinking Cities in Japan: between Megapolises and Rural Peripheries". In Oswal P. (eds 2008), Shrinking Cities Complete Works3, Case Study: Japan, Project Office Philipp Oswalt, Berlin. 2006.

59. Fujii Y. "Shrinkage in Japan". In: Oswalt P., Reniets T. (eds 2008) Shrinking Cities Complete Works3, Case Study: Japan, project Office Philipp Oswalt, Berlin. 2004.

60. Government of Japan, Chiho Jichi Ho (Local Autonomy Law), E-Gov, Tokyo, Japan, 2010.

61. Hideaki Matsumoto, Yosetsu ChihoJichiHo (The Essential Local Autonomy Law), the sixth edition, Gyosei Corporation, 2009.

62. H. Kido and E. Nakamura, "Why municipalities in Japan refused amalgamation?" in Canadian Political Science Association Conference, May 2007.

63. H. Nakamura, "Urban growth in prewar Japan," in *Japanese Cities in the World Economy*, K. Fujita and R. C. Hill, Eds., pp. 26–49, Temple University Press, Philadelphia, Pa, USA, 1993.
64. Hatta T., *Economics of urban Recentralization*, Nihon Keizai Shinbun. 2006.
65. Hill R.C., Fujita K. "Osaka's Tokyo Problem", *International Journal of urban and Regional Research*, 19, pp 181-193. 1995.
66. Ito Ruri "Internationalizing Reproductive Labor in a Super Aged Society? Japan's New Immigration Policy and Its Implications on Care Work". Communication au colloque *Women's Worlds 2005*, Panel *Women's Work and Immigration in Asia*, June 22. 2005.
67. J. Eyre, *Nagoya: The Changing Geography of a Japanese Regional Metropolis*, *Studies in Geography* no. 17, University of North Carolina, Chapel Hill, 1982.
68. J. Friedmann and G. Wolff, "World city formation: an agenda for research and action (urbanization process)," *International Journal of Urban & Regional Research*, vol. 6, no. 3, pp. 309–344, 1982.
69. J. Jacobs, "Has central Tokyo experienced uneven development? An examination of Tokyo's 23 Ku relative to America's largest urban centers," *Journal of Urban Affairs*, vol. 27, no. 5, pp. 521–555, 2005.
70. J. V. Beaverstock, R. G. Smith, and P. J. Taylor, "A roster of world cities," *Cities*, vol. 16, no. 6, pp. 445–458, 1999.
71. K. Fujita, "Neo-industrial Tokyo: urban development and globalization in Japan's state-centered developmental capitalism," *Urban Studies*, vol. 40, no. 2, pp. 249–281, 2003.
72. K. H. Shin and M. Timberlake, "World cities in Asia: cliques, centrality and connectedness," *Urban Studies*, vol. 37, no. 12, pp. 2257–2285, 2000.
73. K. Murata and I. Ota, *An Industrial Geography of Japan*, St. Martin's Press, New York, NY, USA, 1980.

74. Kanemoto Y., Tokuoka K. "Proposals for the Standards of Metropolitan areas of Japan", *Journal of Applied Regional Science* 7, pp1-15. 2002.
75. M. Muramatsu, *Local Power in the Japanese State*, University of California, Berkeley, Calif, USA, 1997.
76. Mosk, *Japanese Industrial History: Technology, Urbanization, and Economic Growth*, M.E. Sharpe, Armonk, NY, USA, 2001.
77. Nobuo Sasaki, *Do-Shu Sei (The System of Do and Shu)* Chikumashobo Ltd., 2010.
78. Oswalt P. (eds) *Shrinking Cities Complete Works3, Case Study: Japan*, Project Office Philipp Oswalt, Berlin. 2008.
79. Oswalt P., Reniets T. *atlas of Shrinking Cities/ Atlas der schrumpfenden Stadte*, Hatje Cantz. 2006.
80. Overman, H. & Rice P "Resurgent Cities and Regional Economic Performance" SERC Policy. 2008.
81. P. Taylor, *World City Network: A Global Urban Analysis*, Routledge, New York, NY, USA, 2004.
82. P. Waley, "Tokyo-as-world-city: reassessing the role of capital and the state in urban restructuring," *Urban Studies*, vol. 44, no. 8, pp. 1465–1490, 2007.
83. R. C. Hill and J. W. Kim, "Global cities and developmental states: New York, Tokyo and Seoul," *Urban Studies*, vol. 37, no. 12, pp. 2167–2195, 2000.
84. S. Sassen, *The Global City*, Princeton University Press, Princeton, NJ, USA, 1991.
85. Saito, "Global city formation in a capitalist developmental state: Tokyo and the waterfront sub-centre project," *Urban Studies*, vol. 40, no. 2, pp. 283–308, 2003.
86. Satoru Ohsugi, "Toku-seido Kaikaku to Daitoshi Tokyo (Reform of the System of the To and Special Wards and the Metropolis of Tokyo)" *Toshi Mondai Kenkyu (The Journal of Municipal Problems)* Volume 61 Issue No. 4. 2009.

87. Satoru Ohsugi, "Large City System of Japan"; pp 1-7 (PDF 7 of 40). 2011.

88. Shi-cho-son Yoran Henshu Iinkai (Municipal Directory Editing Committee), Heisei 21-nen, zenkoku shi-cho-son yoran (2009 national municipal directory), Daiichi Hoki, Tokyo, Japan, 2009.

89. Sorensen, J. Okata, and S. Fujii, "Urban renaissance as intensification: building regulation and the rescaling of place governance in Tokyo's high-rise manshon boom," *Urban Studies*, vol. 47, no. 3, pp. 556–583, 2010.

90. Tashtayeva S.K. O'zbekiston shahar aglomeratsiyalarining shakllanish va rivojlanish xususiyatlari (Toshkent aglomeratsiyasi misolida) Geografiya fanlari nomzodi, dis. –T., 2011.

91. T. Kamo, "An aftermath of globalization? East Asian economic turmoil and Japanese cities adrift," *Urban Studies*, vol. 37, no. 12, pp. 2145–2165, 2000.

92. T. Kamo, "Time for reform? Fifty years of postwar Japanese local self-government," in *Japan: Eyes on the Country, Views of the 47 Prefectures*, Foreign Press Center, Japan, Ed., pp. 8–17, Foreign Press Center, Tokyo, Japan, 1997.

93. T. Machimura, "Narrating a 'global city' for 'new Tokyoites'," in *Japan and Britain in the Contemporary World*, H. Dobson and G. Hook, Eds., pp. 196–212, Routledge, New York, NY, USA, 2003.

94. T. Machimura, "Symbolic use of globalization in urban politics in tokyo," *International Journal of Urban and Regional Research*, vol. 22, no. 2, pp. 192–194, 1998.

95. T. Machimura, "The urban restructuring process in Tokyo in the 1980s: transforming Tokyo into a world city," *International Journal of Urban & Regional Research*, vol. 16, no. 1, pp. 114–128, 1992.

96. T. Tsukamoto and R. Vogel, "Rethinking globalization: the impact of central governments on world cities," in *Governing Cities in a Global Era*, R. Hambleton and J. Gross, Eds., pp. 15–31, Palgrave Macmillan, New York, NY, USA, 2007.

97. TMG, Port of Tokyo 2009, Tokyo Metropolitan Government, Bureau of Port and Harbor, Tokyo, Japan, 2009.

98. Tsukamoto T. "Regionalism in Osaka: the success and limits of local state rescaling". Paper presented at the Association of American Geographers 2010 Annual Meeting. 2010.

99. Uemura T., Uto M., Mizuishi t., Sakakibara V. and Yasuda J. "jinkou Gensyou jidaino Jyuutaku. Tochiriyau. Shyakaishuihon Kanrino Mondai to Sono Kaiketsuni Mukete; 2040 nenno Nihonno Akiya Mondai to Sono Kaiketsu" ("Problems of houses, land use and infrastructure management in depopulated society; Countermeasures of the problems of vacant houses in 2040)", Knowledge Creation and integration, 17(10), 60-77. 2009.

100. W. Edgington, "Osaka," Cities, vol. 17, no. 4, pp. 305–318, 2000.

101. Y. Isozaki, Ed., The Local Administration in Japan, Local Autonomy College, Tokyo, Japan, 1997.

102. Y. Kato, Yokohama: Past and Present, Yokohama City University, Yokohama, Japan, 1990.

103. Yahagi H. 2009 "Toshi shukushono jidai, Kadokawa shoten, Tokyo

V. Davriy nashrlar, statistik to'plamlar va hisobotlar

104. Статистическое обозрение Республики Узбекистан за 2009 год, Ташкент, 2010.

105. United Nations Department of Economic and Social Affairs (UN DESA), Trends in International Migrant Stock: The 2008.

106. United Nations' World Population Prospects: [The 2008 Revision, Highlights](#).

107. United Nations High Commissioner for Refugee's UNHCR Global Trends. 2010.

108. UNHCR, Refugees and Others of Concern to UNHCR, Statistical Overview; UNRWA, Public Information Office. 2000.

109. World Bank's Migration and Remittances Factbook 2011.

110. IOM, World Migration Report 2010.
111. Norwegian Refugee Council – Internal Displacement Monitoring Centre's (IDMC) Internal Displacement: [Global Overview of Trends and Developments in 2010](#).
112. World Economic Forum's Global Competitiveness Report, 2012.
113. Data of Association for Consultancy and Engineering, Avoiding the Infrastructure Crunch 2010.
114. K. Miyamoto, "Japan's world cities: Osaka and Tokyo compared," in Japanese Cities in the World Economy, K. Fujita and R. C. Hill, Eds., pp. 53–82, Temple University, Philadelphia, Pa, USA, 1993.
115. M. Parkinson. "Second Tier Cities in Europe". 2012.
116. Nihon Kajo Shuppan, Kyu shi-cho-son mei binran: Meiji 22-nen kara genzai made (Old city, town and village names handbook: 1889 to the present), Nihon Kajo Shuppan, Tokyo, Japan, 1999.
117. P. Taylor, et al., Ed., Global Urban Analysis: A Survey of Cities in Globalization, Earthscan, London, UK, 2010.
118. R. Preston, "The structure of central place systems," in Systems of Cities: Readings on Structure, Growth, and Policy, L. Bourne and J. Simmons, Eds., pp. 185–206, Oxford, UK, 1978.
119. S. Sassen, Cities in a World Economy, Pine Forge, Thousand Oaks, Calif, USA, 1994.
120. Statistical Survey Department, Statistics Bureau, Ministry of Internal Affairs and Communications of Japan. 2010-2014.
121. Final Count of the Vital Statistics by the Ministry of Health, Labour and Welfare of Japan for Japanese population. 1800-2014.
122. Surveys of Ministry of Justice of Japan. 1990-2000.
123. Migration Statistics of the Statistics Agency of the Ryukyu Government. 1990-2014.
124. Land Survey of Prefectures, Shi, Ku, Machi and Mura of the Geographical Survey Institute. 1990-2010.

125. Cabinet Bureau of Statistics of Japan. 1800-2014.
126. Statistical Bureau of Judicial System and Research Department, Minister's Secretariat, Ministry of Justice of Japan. 2010-2014.
127. A-type de facto population in the "Imperial Japan Population Statistics", 1898 edition, and the "Imperial Japan Statics" of Japan. 1800-1898.
128. "Population Statistics", annual edition, compiled by the Cabinet Bureau of Statistics of Japan. 1800-2014.
129. Statistical Bureau of Local Administration Bureau, Ministry of Internal Affairs and Communications of Japan. 2010-2014.
130. Statistical Bureau of Legal Migrants of Japan. 2014.
131. Statistical Bureau of Basic Resident Registration Network System of Japan. 1995-2012.
132. Statistical Bureau of the Cabinet Order for the Population Census (Cabinet Order No.98 of 1980) of Japan. 1995-2014.
133. Employment Security Bureau, Ministry of Health, Labor and Welfare of Japan. 1995-2014.
134. Statistical Bureau of Regulating Migration Return and Reintegration Assistance to Trafficking Victims in Japan Facilitating Migration. 2012.
135. Statistical Bureau Ministry of Education, Culture, Sports, Science and Technology. 2012-2014.
136. Statistical Bureau Support Program to Facilitate School Education for Foreign Children of Japan. 2000.
137. Statistical Bureau of Migration Policy and Research of Japan. 2012-2014.
138. 総務省統計局統計調査部国勢統計課労働力人口統計室「就業構造基本調査報告」（刊行物）
139. 総務省統計局統計調査部国勢統計課労働力人口統計室「労働力調査年報」
140. Monthly Reports of Japan on the Vital Statistics. 2010-2012.

141. Whitepaper on Local Public Finance 2012, Ministry of Internal Affairs and Communications. 2012.

VI. Internet saytlari va axborot portallari

142. <http://www.halshs.archives-ouvertes.fr> (Fransiya Statistik Qo'mitasi)
143. <http://www.nli-research.co.jp> (Yaponiya shaharni rejalashtirish Bosh Boshqarmasi)
144. <http://esa.un.org/migration/index.asp?panel=1> (Yaponiya aholi ichki migratsiya Statistika Qo'mitasi)
145. <http://go.worldbank.org/QGUCPJTOR0> (Jahon Banki)
146. <http://www.publications.iom.int> (Yaponiyada o'tkaziluvchi ilmiy konferensiyalar rasmiy sayti)
147. <http://www.unhcr.org/statistics> (BMT Aholi Taraqqiyoti bo'limi)
148. <http://www.iom.int/cms/en/sites/iom/home/about-migration/world-migration.html> (Butunjahon migratsiya ko'rsatkichlarini xaritada tasvirlash)
149. <http://www.city.kumamoto.kumamoto.jp/> (Kumamoto shahri rasmiy sayti)
150. <http://www.city.chiba.jp/sogoseisaku/sogoseisaku/tokei/jinkou.html> (Chiba shahri rasmiy sayti)
151. <http://law.e-gov.go.jp/htmldata/S22/S22HO067.html> (Yaponiya huquqiy boshqarmasi)
152. <http://www.kouwan.metro.tokyo.jp/english/portoftokyo2009/index.html> (Tokio metropoliten hududini rejalashtirish rasmiy)
153. <http://www.spatialeconomics.ac.uk> (Birlashgan Qirollik yirik shaharlari Assotsiatsiyasi)
154. <http://www.jlgc.org.uk> (Buyuk Britaniya shaharlari Assotsiatsiyasi)
155. http://www.soumu.go.jp/iken/zaisei/24data/chihouzaisei_2012_en.pdf (Yaponiya moliyaviy Statistik Boshqarmasi)
156. <http://nippon.zaidan.info/seikabutsu/1999/00168/contents/145.htm> (Yaponiyada atrof-muhitni himoya qilish bo'yicha konferensiya materiallari)

157. <http://nippon.zaidan.info/seikabutsu/1999/00168/contents/143.htm>
(Yaponiyada atrof-muhitni himoya qilish bo'yicha konferensiya materiallari)
158. http://www.soumu.go.jp/main_content/000019091.pdf (Yaponiya
moliyaviy Statistik Boshqarmasi)